Akbar Hakimov
Zilola Nosirova
Binafsha Nodir

O'ZBEK XALQ AMALIY SAN'ATI

O'ZBEKISTON BADIIY AKADEMIYASI
KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI

Akbar Hakimov
Zilola Nasirova
Binafsha Nodir

O'ZBEK XALQ AMALIY SAN'ATI

o'quv qo'llanma

Toshkent – 2019

UO'K: 745/749(075)
KBK: 85,77я72
X 52

O'zbek xalq amaliy san'ati. O'quv qo'llanma / A.Hakimov, Z.Nosirova, B.Nodir. – Toshkent: LESSON PRESS, 2019. – 132 b.

Mualliflar

Akbar Hakimov – O'zbekiston respublikasi Fanlar Akademiyasi va O'zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi, professor, san'atshunoslik fanlari doktori

Zilola Nasirova – san'atshunoslik fanlari nomzodi

Binafsha Nodir – san'atshunoslik bo'yicha falsafa doktori

Taqrizchilar

Dilafruz Qodirova – san'tshunoslik fanlari doktori

Ravshan Fatxullayev – san'atshunoslik fanlari nomzodi

Assistant – Xurshida Xayitboboyeva

Dizayn va sahifalovchi – Arslan Gaynulin

Texnik musahhih – Samandar Egamberdiyev

Mazkur "O'zbek xalq amaliy san'ati" fani o'quv qo'llanmasida o'zbek xalq amaliy san'atining qadimgi tarixidan to hozirgacha bo'lgan holati haqidagi materiallar qamrab olingan. Qo'llanmaning o'ziga xosligi unda milliy hunarmandchilik turlari yangi faktologik ma'lumotlar asosida tavsiflangani bilan belgilanadi.

Ushbu qo'llanma shu yo'nalishdagi boshqa darslik, qo'llanmalardan ma'lumotlar ilmiy asoslanganligi, umumiy materialning davrlashtirish tamoyillariga tayanib, bo'lim va bosqichlarga bo'lingani hamda qadimgi va zamonaviy xalq amaliy san'atining sintez jarayoni, zamonaviy amaliy san'at muammolari, O'zbekiston hududidagi amaliy san'at turlari va ularning rivojlanish dinamikasi keng material asosida yoritilgani bilan farq qiladi.

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Badiiy Akademiyasi hamda Madaniyat vazirligi tasarrufidagi Oliy ta'lim muassasalari va o'quv rejasida O'zbekiston madaniyati va san'atiga oid fanlar mavjud Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun mo'ljallangan.

UO'K: 745/749(075)
KBK: 85,77я72

ISBN 978-9943-6260-0-3

© LESON PRESS, 2019

MUNDARIJA

1-mavzu. O'zbek xalq amaliy san'ati faniga kirish 4
2-mavzu. O'zbek xalq amaliy san'atining davrlanishi 8
3-mavzu. Qadimgi va antik davr amaliy san'ati 13
4-mavzu. Ilk O'rta asr amaliy san'ati 16
5-mavzu. Islom davri san'ati. IX-XIII asr 21
6-mavzu. Temuriylar davri amaliy san'ati 27
7-mavzu. O'zbek xonliklari davri amaliy san'ati 39
8-mavzu. XIX-XX asr O'zbekiston amaliy san'ati 43
9-mavzu. O'zbekiston Mustaqillik davri amaliy san'ati 47
10-mavzu. O'zbek an'anaviy kulolchiligi 54
11-mavzu. O'zbek an'anaviy kandakorligi 66
12-mavzu. O'zbek an'anaviy zargarligi 75
13-mavzu. O'zbek yog'och o'ymakorligi 83
14-mavzu. O'zbek kashtachiligi va zardo'zligi 90
15-mavzu. O'zbekiston janubiy hududlaridagi yarim ko'chmanchi aholi badiiy hunarmandchiligi 100
16-mavzu. O'zbekiston badiiy sanoati 108
17-mavzu. O'zbekiston noan'anaviy bezak san'ati 111
18-mavzu. Zamonaviy amaliy bezak san'ati muammolari 113
Adabiyotlar ro'yxati 117
Atamalarning izohli lug'ati 120

1-MAVZU. "O'ZBEK XALQ AMALIY SAN'ATI" FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI

Reja:

1. "Xalq amaliy san'ati" tushunchasi va uning maishiy hayotdagi o'rni.

2. O'zbekiston hududida amaliy san'atning tarixiy shakllanishi va rivojlanishi jarayoni.

3. O'troq va ko'chmanchi xalqlarning o'zaro munosabatlari – o'zbek xalq amaliy san'atining tarixiy va badiiy xususiyatlarini belgilovchi muhim omil.

"Amaliy san'at" tushunchasi "badiiy hunarmandchilik", "amaliy-bezak san'ati" deb ham yuritiladi. Ushbu tushunchalarni – amaliy san'at buyumlarining ikki xil tabiati, ya'ni bir-biri bilan bog'liq badiiy va amaliy vazifalari o'zaro birlashtiradi. Shuning uchun ham hunarmandchilik va badiiy hunarmandchilik buyumlari bir-biridan farq qiladi. Ish quroli, uy-ro'zg'or buyumlari sanaladigan bolta yoki ketmon hunarmandchilik buyumidir. Chiroyli naqshlar bilan bezatilgan lagan yoki xontaxta esa amaliy san'at asaridir.

O'zbekiston hududida amaliy san'at XX asrgacha an'anaviy badiiy hunarmandchilik doirasida rivojlangan. 1950 - yillarda hunarmandlar kombinatlar, fabrika va zavodlarda yangi texnologiyalar asosida (konveyer, mashina texnologiyalari) ishlay boshlashgan. Ularning bu usulda tayyorlagan mahsulotlari tufayli amaliy san'at badiiy sanoatga aylandi.Chinni zavodlari va to'qimachilik, kulolchilik, gilamdo'zlik va zardo'zlik fabrikalari hamda kombinatlarida amaliy san'at buyumlari tayyorlandi. 1970 - yillarda kulolchilik, zargarlik, badiiy to'qimachilik sohalarda yangi yo'nalishlari paydo bo'laishi natijasida amaliy san'atning noan'anaviy bezak san'ati shakllandi. Oliy yoki o'rta maxsus o'quv yurtlarni bitirgan professional kulollar, gobelenchilar, oynasozlar o'z asarlari bilan ko'rgazmalarda qatnashadilar. Ularning buyumlari binolardagi interer va ekstererlarni ham bezatib kelmoqda.

Mustaqillik davrida O'zbekistonda jahon andozalariga mos va muhim ijtimoiy vazifalarni bajaruvchi, amaliy san'atga yaqin, lekin o'ziga xos xususiyatlarga ega yo'nalishlardan biri – dizayn sohasi

shakllanadi. Dizayn sohasi alohida fan sifatida o'qitilayotgani bois bu xususdagi mavzu "O'zbek xalq amaliy san'ati" fani dasturiga mavzu sifatida kiritilmagan. O'zbekiston amaliy san'ati boy tarixga ega. Keyingi ma'ruzalarda uning har bir tarixiy bosqichi to'g'risida maxsus ma'lumotlar va tahliliy sharhlar beriladi. O'zbek amaliy san'ati tarixining o'ziga xosligi hududimizdagi xalqlarining uzoq o'tmishdan to hozirgacha shakllangan turmush tarzi bilan bog'liqdir. Chunki, O'zbekiston hududida yashagan o'troq va ko'chmanchi xalqlar madaniyatining o'zaro munosabati amaliy san'atida ifodasini topgan.

O'zbekistonda ham amaliy san'atning shakllanishida iqtisodiy, siyosiy, diniy va ijtimoiy dunyoqarash tamoyillari jiddiy rol o'ynagan. Masalan, islom dini hududimizga kirib kelishi bilan mahalliy amaliy san'atning badiiy uslubi tubdan o'zgargan ushbu uslub naqsh estetikasi doirasida IX asrdan boshlab to XX asr boshigacha rivojlanadi. Zamonaviy O'zbekiston amaliy san'ati ham ayni naqsh uslubi yo'nalishida rivojlanib kelmoqda. O'zbek xalq amaliy san'ati an'analarining uzoq asrlar davomida saqlanib, avloddan avlodga o'tishida badiiy hunarmandchiligimizning poydevori bo'lmish "ustoz-shogird" tizimi katta ahamiyatga ega. XIX asrda xalq amaliy san'atining asosiy badiiy maktablari va ularning o'ziga xos mahalliy xususiyatlari shakllandi. XX asrdagi ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarishlar xalq amaliy san'atining ijtimoiy funksiyalarini ham keskin o'zgartirdi. 1950–80- yillarda o'zbek xalq amaliy san'atining asl an'analari va tarixiy tajribasi ko'p hollarda unutildi va uning barcha turlarini qayta tiklash masalasi dolzarb muammoga aylandi.

O'zbek xalq amaliy san'atini ilmiy o'rganish jarayoni ancha murakkab. 1990- yillarda yuzaga kelgan davlat chegaralari doirasida mintaqa san'atlari tarixini qarab chiqish haqidagi masala ko'tarilgan edi. O'shanda 1965 yilda "O'zbekiston san'atlari tarixi" (mualliflar T.A.Pugachenkova, L.I.Rempel) yirik asari nashr etilganidan keyin butunittifoq matbuotida "O'zbekiston san'ati tarixi" atamasini qo'llash borasida bahs qizg'in tus oldi. Moskvalik olim B.Ya.Staviskiy bunday yondashuv noto'g'ri deb chiqdi va buni qadimda va o'rta asrlarda "O'zbekiston" degan davlat bo'lmagani bilan asoslashga urindi. "O'rta Osiyo san'ati tarixi" atamasidan

foydalanish to'g'riroq bo'lar edi, dedi u. L.I.Rempel o'sha jurnalda maqola e'lon qilib, B.Ya.Staviskiy bilan munozaraga kirishdi. Moskvalik olim fikrini S.B.Pevzner yoqlab chiqdi va "O'zbekiston san'ati tarixi" va "Turkmaniston san'ati" kitoblari mualliflari (G.A.Pugachenkova, L.I.Rempel)ni "...hozirgi siyosiy-ma'muriy chegaralarda" qamalib qolgan mintaqa san'ati taraqqiyotini ko'rsatishga urinishda aybladi. O'zbek olimlari mintaqaviy yondashuv to'g'riligini inkor etmagan holda, XX asrda vujudga kelgan davlat tuzilmalari doirasidagi badiiy madaniyat tarixi o'z respublikalari uchun tegishli ekanini ta'kidlab chiqdilar. O'zbekistonning va mintaqadagi boshqa respublikalarning davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi bu bahsga nuqta qo'ygandek ko'ringan edi. Biroq 1990 – yillar o'rtalarida B.Ya.Staviskiy Markaziy Osiyo san'atlarini, B.V.Veynmarn e'tiroflariga suyangan holda, hozirgi davlat tuzilmalari doirasidagina qarab chiqish to'g'rili ekanligi haqidagi oldingi fikrlarini yana takrorladi. G.A.Pugachenkova yangi tarixiy voqelik – mintaqa davlatlarining mustaqillikka erishganini hisobga olib, o'zining oldingi yondashuvlarini rivojlantirgan holda javob berdi.

Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi tabiiy-iqlim shart-sharoiti bu mintaqada o'troq-dehqonchilik madaniyati shakllanishi va ilk tamaddunlarning yuzaga kelishi uchun muhim omil bo'lgan. Qadimgi Xitoy, Hind va Misr singari eng qadimgi shahar madaniyati ham aynan mana shunday sharoitda vujudga kelgan. O'zbekiston hududida qadimgi davlatlarning paydo bo'lishi va shunga muvofiq tarzda ko'p asrlik san'at tarixining yuzaga kelishi uchun ikki daryo oralig'idagi ilk tamadduniy taraqqiyotga asos bo'lib xizmat qildi. O'zbekiston hududi Buyuk ipak yo'lining eng muhim qismi hisoblanadi. Uning tarixiy chorrahasi aynan mana shu erda joylashgan edi. Buyuk ipak yo'lidan turli-tuman yuklar ortilgan karvonlar yurgan. Ayni vaqtda undan G'arbdan Sharqqa va Sharqdan G'arbga madaniy g'oyalar va an'analar tarqalgan. Eron-ahmoniylar, yunon-ellin, hind-budda, xitoy, eron-sosoniy va arab-musulmon madaniyati an'analari, keyinchalik esa Rossiya va Evropa madaniyatining kirib kelishi ko'p jihatdan amaliy san'atimizning xilma-xilligini belgilab berdi.

O‘zbek xalq amaliy san’atida ko‘chmanchi xalq madaniyatining roli ham katta edi. Ammo XX asrga kelib bu omilning ta’sirida deyarli barham topdi. Qadimgi davrdan boshlab, shaharsozlik va hunarmandchilikning jadal rivojlanishi natijasida O‘zbekiston hududida davlatchilik taraqqiyotidagi yangi shaharsozlik yuzaga keldi.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar:

1. Xalq amaliy san’atida “ustoz-shogird” tizimi va an’ana tushunchalari nimadan iborat?
2. Xalq amaliy san’atining asosiy funksiyalari nimadan iborat?
3. O‘zbekiston hududida yashovchi o‘troq va ko‘chmanchi xalqlar
madaniyatining amaliy san’atda tutgan o‘rni qanday?
4. O‘zbekiston hududida badiiy maktablar shakllanishi va o‘ziga xosligi nimada?
5. O‘zbekiston xalq amaliy san’ati va dinniy dunyoqarashlar nimadan iborat?

2-MAVZU. O'ZBEK XALQ AMALIY SAN'ATINI DAVRLASHTIRISH

Reja:

1. O'zbek xalq amaliy san'atining asosiy tarixiy bosqichlari
2. O'zbek xalq amaliy san'ati tarixiy bosqichlarining o'ziga xos xususiyatlari va farqli jihatlari
3. Zamonaviy o'zbek amaliy san'ati rivojlanishida tarixiy va badiiy merosning o'rni

O'zbek xalq amaliy san'atini o'rganishda uning asosiy tarixiy bosqichlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. O'zbek xalq amaliy san'ati bir necha davrga bo'linadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Eramizdan avallgi II ming yillik: mis davri amaliy san'ati
2. Eramizdan avallgi I ming yillikning ikkinchi yarmi: ilk shaharsozlik amaliy san'ati.
3. Eramizdan avallgi IV asr oxiri – eramizning IV asri: antik davr amaliy san'ati.
4. V- VIII asrlar: ilk o'rta asr amaliy san'ati.
5. IX-XIII asrlar: Mo'g'ullar bosqinigacha Movarounnahr amaliy san'ati
6. XIV asr ikkinchi yarmi – XVI asr boshi: Amir Temur va temuriylar davri amaliy san'ati.
7. XVI asr – XIX asr birinchi yarmi: xonliklar davri amaliy san'ati
8. XIX asr oxiri – XX asr boshi: chor Rossiyasining Turkistonni bosib olishi va sho'rolar davlatlari tarkibidagi amaliy san'at.
9. Mustaqillik davri zamonaviy O'zbekiston amaliy san'ati.

O'zbekiston da amaliy san'atining ilk shakllari paydo bo'lishi paleolit davridayoq (Eramidan avvalgi XIII-V mingyilliklar) ma'lum edi. Biroq ibtidoiy jamoa davrida san'atning yorqin namunalari yaratilmagan va san'at ijtimoiy-mafkuraviy hamda muayyan badiiy-estetik vazifalarga ega emas edi.

Birinchi davr – eramizdan avvalgi II ming yillik: mis davri amaliy san'ati. Bu davr ilk davlatchilik tuzilmalarining yuzaga kelishi va shahar madaniyati va hunarmandchiligining paydo bo'lish

davridir. Ilk davlat tuzilmalari nishonasi sifatidagi kichik shaharchalar shahar madaniyatining eng dastlabki shaklidir.

Tadqiqotchilar dastlabki kichik shaharlar eramizdan avvalgi II ming yillikda paydo bo'lganini ta'kidlashadi. Masalan, O'zbekiston janubidagi 200 gektar maydonni egallagan yirik Jarqo'ton manzilgohi yoki uy-joy, ma'muriy binolar va ibodatxonalar majmui ko'rinishidagi kichikroq Sopollitepa va boshqalar.

Dastlabki yirik shaharlar eramizdan avvalgi I ming yillikda yuzaga kelgan. Qadimgi davrdayoq O'zbekistonning barcha hududida shaharsozlik shiddat bilan rivojlangan. O'zbekistonning janubi (Qiziltepa, Bandixon, Dalvarzintepa, Xolchayon, Kampirtepa va h.k) va markaziy mintaqalari (Samarqand yoki yunon mualliflaricha Maroqand), Farg'ona (yunon mualliflaricha Kiropol) va Xorazm (Qal'aliqir, Tuproqqal'a va boshqa)da shaharsozlik keng rivojlangan. Bu davr badiiy hunarmandchiligiga oid, asosan, kulolchilik va kandakorlik buyumlari saqlanib qolgan. Ularda badiiy va diniy e'tiqod bilan bog'liq jihatlar yaxlit shaklda o'zini namoyon etadi.

Ikkinchi davr – eramidan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmi: ilk shaharsozlik amaliy san'ati. Bu Baqtriya, So'g'd, Xorazmning shakllanishi davri bo'lib, amaliy san'atda ikkita muhim yo'nalish kuzatiladi. Ulardan biri sug'orma dehqonchilik, ikkinchisi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvachilik bilan mashg'ul mintaqalarning rivojlanishi bilan bog'liq. Amaliy san'at ahamoniylar badiiy hunarmandchiligi an'analari doirasida rivojlanadi. Bunga Amudaryo xazinasidagi buyumlar misol bo'la oladi.

Uchinchi davr – eramidan avvalgi IV asr oxiri – eramizning IV asri: antik davr amaliy san'ati. Bu davrda amaliy san'at Aleksandr Makedonskiy saltanati va ellinistik san'ati an'analari doirasida eron-ahamoniy va sak-skif san'ati (Amudaryo xazinasi) bilan o'zaro aloqada rivojlanadi. Yunon-Baqtriya va Xorazm antik amaliy san'ati rivoji mahalliy an'analarga tayanadi. Ayni davr amaliy san'atida mahalliy san'at bilan qorishib ketgan sharqiy ellinizm san'ati ta'siri seziladi. Bu jarayon, ayniqsa, kulolchilik va kandakorlik sohalarda yaqqol ko'rinadi. Bu davrda amaliy san'atning mafkuraviy va estetik vazifasi avvalgi davrga qaraganda ancha ortgan.

sohalaridan biriga aylandi. O'rta va Yaqin Sharq hududlarini birlashtirgan temuriylar davlatida amaliy san'atining ko'pgina badiiy maktablari mavjud bo'lgan. Movarounnahrdagi kulolchilik, koshinkorlik, kandakorlik, zaragarlik, gilamdo'zlik, kashtachilik va boshqa sohalarda Eron va Yaqin Sharq hunarmandchiligining an'analari o'zaro uyg'unlashgan. Shu bilan bir qatorda amaliy san'atga Xitoy san'atining badiiy va texnologik uslublari ham o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Ettinchi davr – XVII-XIX asr boshi: o'zbek xonliklar davri amaliy san'ati. O'zbekiston san'ati tarixidagi bu davrda amaliy san'at barqaror bo'lgan. Ammo unda biror muhim yutuqga erishilmagan. An'anaviy uslub va texnologiyalarga asoslangan usta hunarmandlar bu davrda sopol, suyak, toshdan noyob buyumlar yaratishgan. Buxoro, Xiva, Samarqand, Farg'ona vodiysi shaharlari va O'zbekiston janubidagi shahar va qishloqlar bozorlariga kundalik turmushda keng qo'llaniladigan xalq hunarmandlarining rango-rang mahsulotlari chiqarilgan. Ustalarning ushbu buyumlarida Xitoy va Eron badiiy an'analari izlarini payqash mumkin. Bu vaqtda badiiy hunarmandchilikning asosiy maktablari va markazlari yuzaga kelgan. U keyinchalik, XX asr san'atining umummilliy uslubi uchun zamin yaratgan.

Sakkizinchi davr – XIX asr oxiri va XX asr: chor Rossiyasining Turkistonni bosib olishi davri va sho'ro davridagi tarkibidagi amaliy san'at. XIX asr keyingi asr estetikasi va san'atining tubdan o'zgarishi uchun zamin yaratdi. XX asr san'ati ko'p asrlik O'zbekiston san'ati tarixining ajralmas tarkibiy qismidir. Ayni vaqtda bu davr badiiy madaniyati oldingi davrlar san'atidan keskin farq qiladi. Chunki bu davrda hududda teatr, rangtasvir, haykaltaroshlik, opera va balet, simfonik musiqa va kompozitorlik, kinematografiya va televidenie singari san'atning yangi noan'anaviy evropacha shakllari yuzaga keldi va rivojlandi. Lekin amaliy san'atda ham XX asr boshigacha ko'p asrlik an'analarni o'zida mujassamlashtirgan "ustoz-shogird" tizimi deyarli o'zgarmagan holatda saqlanib qoldi. Amaliy san'atning barcha sohalarida an'analar davom etdi. Afsuski 1930 – 1980-yillar oralig'ida o'zbek amaliy san'ati inqirozga uchrab, undagi qadimiy badiiy va

To'rtinchi davr – V-VIII asr: ilk o'rta asr amaliy san'ati. Bu ilk o'rta asr davlatlari – So'g'd, Xorazm, Tohariston, Farg'ona va bu vaqtda yuzaga kelgan Turk xoqonligi davri san'ati va madaniyatidir. Amaliy san'atda ilk bor so'g'd va turk san'ati tamoyillari uyg'unlashishi jarayoni kuchaygan. Ilk o'rta asrda amaliy san'atda tasviriy shakllar taraqqiy etgan. Ushbu davr amaliy san'atining o'ziga xos yana bir xususiyati shundan iboratki, unda turk-so'g'd san'ati badiiy jihatdan o'zaro uyg'unlashgan. Bu esa ushbu xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, savdo va siyosiy aloqalari rivojlanganidan dalolat beradi.

Beshinchi davr – IX-XII asr: mo'g'ullar bosqinigacha Movarounnahr amaliy san'ati. Movarounnahrda yirik sulolaviy davlat tuzilmalari – somoniylar, qoraxoniylar davlatlari yuzaga keladi, savdo aloqalari kengayib, hunarmandchilik shaharlari juda tez rivojlanadi. Savdo-hunarmandchilik shaharlari infratuzilmasining jadal takomillashishi esa hududda shaharsozlik va me'morlik ravnaq topishi mahalliy san'at va hunarmandchilik maktablari shakllanishi bilan bevosita bog'liqdir. Mintaqaga VII-VIII asrlarda kirib kelgan islom dini IX-XI asrlarda mahalliy shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy shaharsozlik tuzilmasi va me'moriy qiyofasini o'zgartirish barobarida uning falsafasiga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan. Musulmonlarning o'rta asr shaharlari qiyofasi ko'proq masjidlar, madrasalar, minoralar va hokazolarda namoyon bo'lgan. IX-XII asrlarda yangi bezak usuli shakllanib, rivojlanib, u islom o'rta asr amaliy san'atining asosiga aylangan. Tasviriy madaniyat o'rnini bezak san'ati egallagan va u musulmon madaniyatining muhim asoslaridan biri bo'lib qolgan. Mo'g'ullar bosqini tufayli XIII asr boshida Movarounnahrda davlat qurilishi inqirozga uchraydi.

Oltinchi davr – XIV-XVI asr boshi: Amir Temur va temuriylar davri amaliy san'ati. Amir Temur va uning vorislari saltanati jahon madaniyati taraqqiyotida o'chmas iz qoldirgan ulkan madaniy-tarixiy voqelikdir. Temuriylar saltanati hozirgi O'zbekiston hududidan bir necha marta katta hududni o'z ichiga olgan. Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san'at yuksak rivojlangani bois bu davr haqli ravishda "Temuriylar renessansi" deb ataladi. Aynan shu vaqtda davlat amaliy san'atning kuchli homiysi bo'la olishi namoyon bo'ldi. Amaliy san'at madaniyatning etakchi

texnologik uslublar, betakror tarixiy tajribalar unutildi, ko'p amaliy san'at markazlari barham topdi.

To'qqizinchi davr – Mustaqillik davri zamonaviy O'zbekiston amaliy san'ati. Milliy mustaqillik g'oyalari va davlatimizning jahon hamjamiyatida o'z o'rnini egallashi yo'lidagi intilishlar san'atning juda ko'p turlarida o'z ifodasini topdi.

Jamiyatning bozor munosabatiga o'tishi va xususiy mulkchilikka, tadbirkorlikka keng yo'l berilishi sho'ro davrida inqirozga uchragan amaliy san'at sohalarining shiddat bilan ravnaq topishiga asos bo'ldi. Boy tarixiy o'tmishga ega O'zbekiston amaliy san'ati o'ziga xos an'analari va uslublarini saqlab qolgan. Bu esa milliy madaniyatlarning o'ziga xosligiga tahdid solayotgan, tobora avj olib borayotgan hozirgi globolizatsiya sharoitida g'oyat muhimdir. Madaniy an'analar vorisligi, maktablarning mahalliy xususiyatlari mavjudligi, chog'idagi uslubiy yaxlitlik asosida ravnaq topgan hunarmandchilik o'zbek amaliy san'atining milliy o'ziga xosligini belgilab beradi.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar:

1. O'zbekiston xalq amaliy san'ati fanining asosiy bosqichlari nimalardan iborat?
2. Amaliy san'atda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tamoyillarining ahamiyati qanday?
3. O'zbekiston amaliy san'ati rivojlanishida Islom dinining o'rni qanday?
4. Asosiy bosqichlarining bir biridan farqi nimadan iborat?
5. Bosqichlarga xos ashyoviy dalillardan misollar keltiring.

3-MAVZU. QADIMGI VA ANTIK DAVR AMALIY SAN'ATI

Reja:

1. O'zbekiston hududida ilk san'at namunalarning paydo bo'lishi.
2. O'zbekiston hududidagi qadimgi Baqtriya, So'g'd va Xorazm davlatlarida badiiy hunarmandchilikning mahalliy ko'rinishlari shakllanishi.
3. Aleksandr Makedonskiy O'rta Osiyoni bosib olganidan keyingi davr amaliy san'ati.
4. Kushonlar davri amaliy san'ati.

Qadimgi va antik davr san'ati miloddan avvalgi 4 ming yillikdan to milodiy III-IV asrgacha bo'lgan davr san'atini o'ziga qamrab oladi. Qadimgi va antik davr san'ati bir necha bosqichga bo'linadi:

1. O'zbekiston hududida ilk san'at namunalari paydo bo'lishi (neolit, bronza davri – miloddan avvalgi 4-1 ming yillik);
2. Mahalliy amaliy san'atning ahmoniylar madaniyati bilan chambarchas bog'liqligi (miloddan avvalgi VI-IV asrlar);
3. Aleksandr Makedonskiy O'rta Osiyoni bosib olganidan keyingi davr amaliy san'ati (miloddan avvalgi IV-II asrlar);
4. Kushonlar davri amaliy san'ati (miloddan avvalgi I asr – milodiy III asr)

Eramidan avvalgi II ming yillikning oxiri – I ming yillikning birinchi yarmiga kelib, Movarounnahrda yirik tarixiy-jug'rofiy viloyatlar: Baqtriya, So'g'd va Xorazm yuzaga keldi. Bu joylarda san'at va badiiy hunarmandchilikning mahalliy ko'rinishlari shakllandi. Bu davr san'ati ikki yo'nalishda ravnaq topdi. Ulardan biri dehqonchilik va shahar madaniyati, ikkinchisi esa ko'chmanchilar va chorvadorlarning an'analari bilan bog'liq san'at edi.

Misdan yasalgan soch qisqich. Miloddan avval 2-ming yillik. Sopollitepa.

Muzeylarimizda saqlanayotgan eksponatlar shu davrda So'g'dda kulolchilik va zargarlik san'ati yuksak darajada taraqqiy topganidan guvohlik beradi. Mo'minobod, Chakka (Samarqand viloyati) shaharchalarida topilgan diniy, maishiy va to'y-hashamlarga mo'ljallangan, shakl jihatdan xilma-xil sopol idishlar kulolchilik buyumlariga ishlov berish texnikasi nechog'li mukammal bo'lgani va amaliy san'at an'analari rivojlanganligini namoyish etib turibdi. Xuddi shu mintaqa (Afrosiyob, Samarqand)dan topilgan oltin sirg'alar, bilaguzuklar (Chakka, Mo'minobod) shaklan nafis zargarlik buyumlari bu davrda amaliy san'at ravnaq topganidan dalolat beradi.

Sopol idish. Miloddan avval 2-1 ming yillik. Mo'minobod.
Oltin sirg'a. miloddan avval 2 ming yillik. Afrosiyob.

Mazkur manzilgohlardan topilgan boshqa ashyolar o'sha davr me'morchiligi, hunarmandchiligi taraqqiyoti darajasini ko'rsatib, o'zida diniy qarashlarni aks ettiradi. Eramizdan avvalgi 1 mingyillik

o'rtalariga kelib, So'g'dda yana rivojlanish yuz beradi. Bu davrda O'zbekistonning barcha hududida shaharlashuv (urbanizatsiya) jadal rivojlangan. Aleksandr Makedonskiyning (eramizdan avvalgi 334–326 yillar) O'rta Osiyoga bosqinchilik yurishlari ahmoniylar davlatini (eramizdan avvalgi VI-IV asrlar) barbod etib, qadimgi O'zbek san'ati tarixida yangi davr – ellinizm davrini boshlab berdi. Ellin ta'siri kulolchilikda uzoq saqlanib qolgan. Shimoliy Baqtriya va So'g'd shaharchalaridan topilgan ko'zalar, qadahlar, kosalar shakl jihatidan sof yunoncha sopol buyumlardir. Ellin madaniyati uzoq muddat ellinlarning siyosiy hukmronligi asoratida bo'lgan qadimgi xalqlarning, jumladan, ajdodlarimizning moddiy va ma'naviy merosida chuqur iz qoldirgan. Qadimgi va antik davr o'zbek amaliy san'atida turli diniy, madaniy va badiiy an'analar o'zaro uyg'unlashgan.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar:

1. Qadimgi va antik amaliy san'ati davrlanishi qanday umumiy ta'rifga ega?
2. Har bir davrning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
3. Ellin va ellinistik tushunchalarni o'ziga xosligi nimadan iborat?
4. Qadimgi va antik amaliy san'atining asosiy xususiyatlari nimada?
5. Kushon sulolasi davriga oid ashyoviy dalillardan misollar keltiring.

4-MAVZU. ILK O'RTA ASR AMALIY SAN'ATI

Reja:

1. Turk xoqonligi davrida so'g'd va turk xalqlarining siyosiy, savdo va madaniy munosabatlari.
2. Ilk o'rta asr amaliy san'atidagi badiiy maktablar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
3. So'g'd amaliy san'ati shakllanishida boshqa xalqlar bilan madaniy aloqalarning ta'siri.

Ilk o'rta asr amaliy san'ati milodiy V-VIII asrlarni qamrab oladi va unda yangi tarixiy sharoitda antik davrga xos madaniy an'analar davom ettiriladi. SHuning uchun ham bu davrni yana so'nggi antik davr deb atashadi. V-VIII asrlarda o'zbek xalq amaliy san'atida bir qator o'ziga xos badiiy maktablar shakllanadi. Ular: Baqtriya-Tohariston, So'g'd, Xorazm, Farg'ona va Choch amaliy san'at markazlardir. Bu davrda amaliy san'atning kulolchilik, badiiy metall hamda kashtachilik va badiiy matosozlik kabi turlari rivojlangan. Muzeylarda saqlangan buyumlardagi tasviriy syujetlarning rang-barang bezaklarida doston va qadimgi miflardagi obrazlar tasvirlangan. Ularda qadimgi Xitoy, Hind, Eron, Yunoniston va boshqa xalqlarning madaniy an'analari bilan mahalliy obrazlari o'zaro uyg'unlashgan.

Idish. VI asr. So'g'd. Samarqand.

Ilk o'rta asrda O'rta Osiyo hududiga ko'chmanchi qabilalar bostirib kirgan. Buning natijasida avval sosoniylarni, keyinroq esa qudratli Turk xoqonligini bo'ysundirgan kuchli eftalitlar davlati yuzaga kelgan. Ko'chmanchi eftalitlar asos solgan va turklar tazyiqi ostida eramizning 563–567 yillarida tarqab ketgan eftalitlar davlati

san'atida turli badiiy uslublarning bir-biriga ta'sir ko'rsatishi uchun sharoit tug'dirgan. Eftalitlar davlati san'atida baqtriya-kushon, sosoniylar (Eron) va gupti (Hindiston) san'ati unsurlari bir-biriga chuqur singmagan holda rivojlangan.

Ko'za. VII asr. So'g'd. Buhoro.

Turk xoqonligi hokimiyati o'rnatilishi bilan so'g'd va turk xalqlarining siyosiy, savdo va madaniy munosabatlari kengaygan. San'atda o'ziga xos turk-so'g'd qo'shma uslubi paydo bo'ladi. Ayni vaqtda so'g'd hududi xoqonlik doirasida o'zining muayyan mustaqilligini saqlab qolgan. Bu davrda siyosiy-ijtimoiy va o'zaro savdo-sotiq munosabatlarda so'g'dliklar, ya'ni hozirgi O'zbekiston va Tojikiston markaziy mintaqalarida yashagan aholining roli kuchaygan. Samarqand (Afrosiyob), Buxoro, Panjikent, Binket, Varaxsha, Nahshab shaharlari madaniy hayot markazlariga aylandi. Bu shaharlarda hashamatli qasrlar va ko'chalar qurilib, ular ajoyib devoriy rangtasvir bilan bezatilgan. XX asrning 50-yillardan keyin juda ko'p qadimshunoslar va san'at tarixchilari o'z tadqiqotlarida buni ta'kidlashgan. Mahalliy ustalar oltin va kumushdan ajoyib idishlar yasagan, kulollar turli-tuman sopol idishlar ishlab chiqargan, to'qimachilik ustaxonalarida ajoyib shoyi va ip-gazlama matolar to'qilgan. So'g'd mollari Buyuk ipak yo'li bo'ylab dunyoning har tomoniga tarqalgan. Savdo-sotiq keng yo'lga qo'yilgani tufayli san'at va hunarmandchilikning mahalliy an'analari Eron, Hindiston, Vizantiya, Xitoy va SHarqning cho'l mamlakatlari ustalari badiiy usullari bilan o'zaro uyg'unlashgan.

Ossuariy. VII-asr. So'g'd.

"So'g'd san'ati" tushunchasi muayyan hududiy va morfologik qiyofaga ega. Uning yodgorliklari (Samarqand, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlari mintaqalari). Ushbu hududlarda yaratilgan yoki shu mintaqa san'ati an'analari bilan bevosita bog'liqdir (torevtika). Samarqand So'g'didan shimoli-sharqqa tomon (Ustrushona, Choch, Farg'ona) ko'chmanchi san'at an'analari va Tan Xitoyi madaniyati ta'siri kuchli bo'lgan. Janub (Baqtriya-Tohariston) san'atida ellin va biroz budda an'anasi, G'arb (Buxoro, Xorazm)da esa eron-sosoniy san'ati ta'siri kuzatiladi. O'rta Osiyoning shimoli-g'arbidan Xitoygacha cho'zilgan Buyuk ipak yo'li o'tgan hududdagi so'g'd mustamlakalarida so'g'd madaniyati ta'siri izlari ko'rinadi. So'g'd san'ati morfologik manzarasi keng bo'lib, unda mahobatli rangtasvir, haykallar, ganj va yog'och o'ymakorligi (Afrosiyob, Panjikent, Varaxsha) ravnaq topgani qayd etiladi. Shuningdek, hunarmandchilikning: torevtika (tilla suvi yugurtirilgan kumush), kulolchilik, koroplastika, to'qimachilik, zargarlik san'ati kabi turlari ham taraqqiy etgan.

San'at ashyolari, xususan, torevtika buyumlarining qaerda tayyorlangani va unda so'g'd uslubining qaysi mahalliy xususiyatlari mavjudligini aniqlash qiyin. O'sha paytda, savdo-sotiqda va mol ayriboshlashda kandakorlik buyumlarining bozori chaqqon bo'lgan. Birgina asarda turli uslub va hunarmandchilik maktabiga xos xususiyatlarni kuzatish mumkin. Masalan, VIII-IX asrlarga oid ayol yuzli qush tasviri tushirilgan kumush idishida So'g'd, vizantiya, arab, eron san'ati an'analari o'z ifodasini topgan. YA.Smirnov, I.Orbeli, S.Trever, G.Grigorev, L.Rempel, V.Darkevich va ayniqsa,

B.Marshak tadqiqotlarida So'g'd madaniyati tarkibi atroflicha yoritilgan.

So'g'd va unga qo'shni mintaqalar amaliy san'atida o'zaro tasvir aloqalari keng bo'lganiga qaramay, hududdagi bu davrga mansub mashhur yodgorliklarni uch asosiy yo'nalishda barpo etilgan deyish mumkin. Bular: shimoli-sharqiy yo'nalish (ko'chmanchi, turk tarkibli va xitoy an'analari), janubiy yo'nalish (Baqtriya-Tohariston, ellin va Hind budda san'ati bilan bog'liqlikda) va G'arbiy yo'nalish (ko'proq Parfiya va eron-sosoniy an'analarini aks ettiruvchi Xorazm).

So'g'd amaliy san'ati shakllanishida uning boshqa xalqlar madaniyati bilan o'zaro hamkorlik aloqalari muhim rol o'ynagan. Ammo so'g'd amaliy san'ati barcha davrda o'zining xususiyatlarini aniq saqlab qolgan. So'g'd san'atida kosmogonik astral (yulduzga oid) va handasaviy shakllar tasviri, hayvonot va nabotot mavzusi, antropomorf (odamga o'xshatish) va voqeaband tuzilmalar keng o'rin tutadi. So'g'd san'ati afsonaviy mavjudotlar tasvirlanishi jihatidan ham o'ziga xoslik kasb etadi. Bular: qiz qushlar, ajdarholar va boshqa tasvirlar. Afsonaviy mavjudotlar orasida qanotli tuya tasviri etakchi o'rin egallaydi. U sosoniylar semurg'i ikonografiyasi ta'sirida shakllangan timsoldir. Qiz qushlar tasviri ellin an'anasiga borib taqaladi. Ammo uning obrazlari islom davri (IX-X asrlar) dagi hunarmandchilikda ommalashib ketdi. Movarounnahrdan topilgan shu mavzu tasvirlangan idishda arab-musulmon, eron-fors, ellin va so'g'd san'ati xususiyatlari bir-biri bilan qorishib ketganini kuzatish mumkin.

Otashparastlarning dafn marosimida ishlatiladigan sopol – ossuariylar yoki ostodonlar shu davrning antiqa yodgorliklari sirasiga kiradi. Samarqand muzeyida turli shakldagi – to'g'ri to'rtburchakli, oval shakldagi ostodonlar saqlanadi. O'troq shahar aholisi dafn marosimida to'rtburchak ossuariylardan foydalangan. Bu aholining yashaydigan uylari ham shu shaklda bo'lgan. Ko'chmanchi qabilalar esa rasm-u udumlari uchun oval ossuariylardan foydalangan. Ularning ko'chma go'shalari – o'tovlari ham yumaloqsimon shaklda bo'lgan. Ostadonlarning devori bo'rtma rasmlar bilan bezatilgan. Qopqoqlari ko'pincha uncha katta bo'lmagan odam haykalchasi bilan bezatilgan. So'g'd ossuariylari

asosan V-VII asrlarga mansub bo'lib, ular muayyan shaxslar bilan bog'liq bo'lgan. Garchi o'zaro hamkorlik aloqalari bo'lsa-da, So'g'd san'ati O'rta Osiyoning o'sha zamondagi Tohariston, Farg'ona, Choch, Xorazm, Marg'iyona, Ettisuv san'atidan farq qiladi. So'g'd san'atida O'zbekiston janubida keng tarqalgan buddaviylik mavzusi yo'q bo'lsa-da, u uslub jihatidan Tohariston maktabiga ancha yaqindir.

Ilk o'rta asr san'ati mavzusi va uslubi bo'yicha keyingi islom davri amaliy san'atiga qaraganda, avvalgi antik davr san'ati bilan ko'proq aloqadordir. Holbuki, ilk o'rta asr san'ati O'rta Osiyo va umuman, butun musulmon san'atining keyingi taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Shu bois san'at rivojlanishi nuqtai nazaridan bu davrni so'nggi antik davr san'ati deb atash o'rinlidir. Sho'ro va undan keyingi davr tarixshunosligida ilk o'rta asr sifatida V-VIII asrlar e'tirof etiladi.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar:

1. Ilk o'rta asr amaliy san'atida qanday asosiy badiiy maktablar shakllanadi?
2. Ushbu davr amaliy san'atida eng rivojlangan turlari qaysi?
3. Ilk o'rta asr amaliy san'atining badiiy xususiyatlari nimadan iborat?
4. Bu davr amaliy san'atning asosiy syujetlarining kelib chiqishi qanday?
5. So'g'd amaliy san'atining o'ziga xosligi nimadan iborat?

5-MAVZU. ISLOM DAVRI SAN'ATI. IX-XIII ASR

Reja:

1. O'zbekiston hududiga islom dinining kirib kelishi va hudud amaliy san'ati tarixida tub o'zgarishlar yuz berishi.
2. Movarounnahr shaharlarida badiiy hunarmandchilik turlarining rivojlanishi va ularga xos xususiyatlar.
3. IX-XIII asr Movarounnahr amaliy san'atida yangi badiiy uslublar va mavzular.

IX asrdan boshlab, o'zbek amaliy san'ati tarixida tub o'zgarishlar yuz beradi. Hududga islom dini kirib kelishi munosabati bilan avvalgi amaliy san'atdagi syujetli va tasvirli kompozitsiyalar o'rnini naqsh estetikasi egalladi. Bu davrda shahar madaniyati rivojlanib, unda me'morlik va amaliy san'at turlari ravnaq topadi. Bu davrda Movarounnahr shaharlari – Buxoro, Samarqand, Shosh, Termiz, Axsiket, Xorazmda badiiy kulolchilik, kandakorlik, zargarlik, yog'och o'ymakorligi va oynasozlik rivojlanadi hamda islom san'atiga xos an'analar paydo bo'ladi. Mazkur shaharlar amaliy san'at markazlariga aylanadi. Arab yozuvlari, handasaviy va o'simliksimon naqshlar amaliy san'at buyumlarini bezaydi. Inson qiyofasini tasvirlash man etilib, ba'zi buyumlarda zoomorf (hayvonot dunyosi) syujetlar naqshsimon shakllarda ifodalanadi. Shahar madaniyati aynan badiiy hunarmandchilik va me'morchilik orqali tez rivojlanadi. Lekin XIII asr boshida Chingizxon lashkari bu gullagan shaharlarni vayron qildi. Natijada, amaliy san'at ham inqirozga yuz tutdi.

IX asrdan boshlab, kulolchilik badiiy hunarmandchilikning eng keng tarqalgan turlaridan biriga aylandi. Kulolchilikda jiddiy o'zgarishlar yuz berib, unda yangi shakllar paydo bo'ldi, bezaklarda boshqa texnik va badiiy usullar qo'llandi, bezak mazmuni o'zgardi. Avvalgi g'oyalar saqlangan bo'lsa-da, ularning talqinida bezaklar ustunlik qila boshladi. Bu davrda mintaqada etakchi kulolchilik markazlari shakllandi. Ular orasida, ayniqsa, Samarqand, Quva, Shosh, Buxoro, Xorazm alohida ajralib turadi. Bu davr kulolchiligida ikki: sirkori va sirkori bo'lmagan kulolchilik yo'nalishida rivojlanadi. Agar Afrosiyob sirkori kulolchiligida

So'g'd-musulmon shahar san'ati xususiyatlari yaqqol namoyon bo'lsa, sirkori bo'lmagan, ko'proq qo'lda ishlangan kulolchilik namunalarida qadimgi turkiy an'analar bilan aloqa bir qadar saqlanib qolgan. Bu davrda qush, jonivor va odam ko'rinishidagi shakllar yopishtirib ishlangan katta hajmdagi idishlar ko'p tayyorlangan. VIII asr oxiri – IX asr boshida O'rta Osiyo shaharlarida mintaqadagi hunarmandchilik markazlaridan biri bo'lgan Afrosiyob sirkori sopollari keng rasm bo'lgan.

Sirlangan idish. XI asr. Afrosiyob.

Sirlangan idish XI asr. Afrosiyob.

IX-XII asrlarda chinakam badiiy mukammallikka va yuksak texnik sifatga erishdi. Afrosiyob kulolchiligi bilan uslubiy yaxlit bo'lgan Farg'ona va SHosh kulolchiligi ayni chog'da o'ziga xosligini ham saqlab qoldi. Bu hol ushbu hududdagi aholining asosiy qismini turklar tashkil etuvchi mahalliy aholining dunyoqarashini ifodaladi. X-XII asr Farg'ona va Shosh kulolchiligida jonivorlar, qushlar, baliqlar tasvirlari to'q yashil va issiq ranglarda tasvirlangan. Ularda ko'proq turkiy xalqlarga xos ramzlar va folklor-she'riy

syujetlar aks etgan. Kulolchilik buyumlarida, umuman, amaliy sanatda o'rdaklar, turnalar, shoxdor kiyiklar tasvirlangan. Ma'dan idishga chiziqlar tushirish ham o'rta asr turkiy torevtikaga xos xususiyatdir. Afrosiyob sopol buyumlariga qiyoslaganda Farg'ona va Shoshda tayyorlangan buyumlarda islimiy va handasaviy naqshlar kam, ko'pqiyofali kompozitsiyalar ham ko'p emas. Jonli mavjudotlar tasvirida esa shakllar yaxlitligi va haqqoniy ishlanganlikka erishilgan. Hudud kulolchiligida uslub umumiyligiga qaramay, har bir hudud amaliy san'atiga xos etnomadaniy unsurlar muayyan darajada sezilib turadi.

XI asr o'rtalarida Movarounnahr amaliy san'atida badiiy uslubda jiddiy o'zgarish boshlanib, unda bezak naqsh-gul ustunlik qiladi. O'lkada kumush taqchilligi tufayli kumush va tilla buyumlardan tangalar yasaladi. Mis va mis qotishmali buyumlar ko'p tayyorlanadi. XII asrga kelib, ular uslublashtirilgan hayvonlar va qushl ar tasvirlari bilan ziynatlanib, naqsh-gullar bilan bezatiladi. CHizma va o'ymakorlik naqsh tushirishning keng tarqalgan usuliga aylangan. Movarounnahrda tayyorlangan buyumlar gullar tasvirlarining zich, naqshlarining qalamnusxaliligi bilan ajralib turadi. XI-XII asrlar kandakorlik buyumlarini bezashda afsonaviy jonzotlar – qanotli sfinks va takalar, qanotli arslonlar, odamboshli qushlar, semurg' tasviri qo'llangan. XI-XII asrlar o'zbek amaliy san'ati buyumlarida hayvonot olami – quyonlar, itlar, ohular, qoplonlar, shuningdek, qushlar va baliqlar tasviri asosiy o'rin tutadi. Bu tasvir zich islimiy gullar uzra namoyon bo'ladi. Gullar tasviri shu qadar zichki, jonivoru qushlar tasvirlari ham gulga o'xshab, ular bilan birikib ketadi. Agar islimiy naqsh ilk o'rta asrda keng qo'llangan bo'lsa, handasaviy, arabcha nusxa gullar tasviri va girixlar yangi zamon san'atining muhim xususiyatlaridan biriga aylanadi. Epigrafik naqshning keng rasm bo'lishi ham bu davr amaliy san'atidagi muhim yangilik edi. Sopol buyumlar sirtiga kufiy yozuvida yaxshi niyatlar bitilgan. Masalan, "...kosa yoki idish egasiga shukur, omad, tansog'liq yor bo'lsin". Vaqt o'tishi bilan yozuvlar asta-sekin uslublashib aralash ko'rinish hosil qiladi va ular o'ziga xos "yozuvli naqsh-gul"ga aylanadi.

Xorazm shohi Abu Ibrohim ismi bitilgan kumush patnis. XI-XII asr. Xorazm.

Mis patnis. XII asr. Farg'ona.

Ko'chmanchi xalqlar san'ati va hunarmandligi an'analari badiiy to'qimachilik – gilamdo'zlik, kigiz bosishda namoyon bo'lgan. Ular turkiyzabon xalqlar uchun otameros san'atdir. Turkiy gilamdo'zlik uchun an'anaviy g'oyalarni ifodalovchi ramziy ma'noga ega shakllar va gullar tasviri badiiy matolar bezagiga kirib kelgan. Bunday matolar asosan, Movarounnahr shaharlarida ishlab chiqarilgan. Mo'g'ullar bosqinigacha bo'lgan davrda Movarounnahr badiiy matolarni faqat ichki iste'mol uchun emas, balki arab mamlakatlari va G'arbga keng eksport qilish uchun ham ishlab chiqarishi bilan dovrug' qozongan. Ma'lumki, bu davrda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida turkiy etnosining roli ancha kuchaygan.

Mis ko'za. XII asr. Movarounnahr.



Baliqlar tasvirli mis patnis. XII asr. Samarqand.

Jumladan, badiiy hunarmandchilikning uzviy bo'lagi gilamdo'zlik va kigizchilikda ham turkiylar etakchilik qilishgan. Qo'y, tuya junidan tayyorlanadigan ushbu buyumlar chorvachilik rivojlangan joylarda ko'proq ishlab chiqarilgan. Mato to'qish, zardo'zlik, yirik kashtachilik buyumlari esa ko'proq shahar yoki qishloq hunarmandlari tomonidan tayyorlangan. Mo'g'ullar bosqinigacha bo'lgan davrda o'g'uz, saljuq, qarluq kabi turkiy ko'chmanchi qabilalarning gilamlari xaridorgir bo'lgan. Ko'chmanchi qabilalar gilamlari bezaklarida qabilaning tamg'asi ramzi va eron-So'g'd san'atiga xos juft-juft bo'lib turgan jonivor va qushlar, geraldik kompozitsiya mo'g'ul bosqinigacha bo'lgan davr gilamlari naqsh-gulida birikib ketadi. Bu jarayon gul kompozitsiyasining uslublashuvini namoyon etadi.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar:

1. Bu davr amaliy san'ati qanday tamoyillar kesimida rivojlanadi?
2. Islom dinining tasviriy san'atga bo'lgan munosabati nimadan iborat?
3. Amaliy san'atning qanday turlari asosiy o'rin egallaydi?
4. Bu davr amaliy san'atida naqsh estetikasining o'rni qanday?
5. Movarounnahrda qaysi asosiy amaliy san'at markazlari bo'lgan?

6-MAVZU. TEMURIYLAR DAVRI AMALIY SAN'ATI

Reja:

1. Amir Temur va temuriylar davlatida hunarmandchilik rivojlanishining asosiy tamoyillari.
2. XIV asr oxiri – XV asr boshida Movarounnahr amaliy san'atining asosiy turlari va ularga xos xususiyatlar.
3. Xorijiy kolleksiyalardagi temuriylar davri hunarmandchiligi namunalari sharhi.

Bu davr XIV-XVI asrlarni o'z ichiga oladi. Bu davrda amaliy san'at rivojlanishi Amir Temurning shaharlarni qayta tiklab, yangi buyuk davlatning barpo etishi bilan bevosita bog'liqdir. Temuriylar poytaxti Samarqandda badiiy kulolchilik, kandakorlik, zargarlik, to'qimachilik, gilamdo'zlik, kashtachilik rivojlangan. Amir Temur ko'pgina Sharq mamlakatlaridan Samarqandga mohir ustalarni olib kelgan. Kulolchilik, yog'och o'ymakorligi, kandakorlikda islom madaniyati an'analari bilan bir qatorda, Xitoy san'ati an'analari ham seziladi. Kulolchilikda oq-moviy rang, bezak naqshlarda Xitoy san'atiga xos syujet va naqshlar: qush, ohu, bulutlar va boshqa tasvirlar keng tarqalgan. Lekin shunga qaramay, barcha buyumlarda mahalliy xususiyatlar saqlangan, aniqrog'i, ustunlik qilgan. Miniatyura san'ati juda rivojlanib, amaliy san'at ustalari kitobat san'atida ham o'z mahoratini namoyon etgan. Amir Temur va temuriylar davrida siyosatda islomning roli ancha kuchaygani tufayli hunarmandchilik rivojlangan. Ayni damda san'atda ham, hunarmandchilikda ham dunyoviylik ya'ni hayotiylik ochiq-oydin namoyon bo'la boshladi. U hukmron sulolaning saroy san'atida o'zining eng yorqin ifodasini topdi. VIII-XII asrlardayoq arab-musulmon olamida mahalliy badiiy an'analarning bir-biriga uyg'unlashuvi boshlangan va bu jarayon mo'g'ullar bosqinidan keyingi davrda ham davom etgan edi. Bu tarixiy vaziyatda Amir Temur va vorislari savdo-iqtisodiy aloqalarini jonlantirishga, O'rta va Yaqin Sharqning eng yaxshi ustalarini temuriylar saltanati poytaxtlarida jamlashga qaratilgan siyosat olib borishdi. Ular ulkan markazlashgan davlat barpo etishga intilishdi.

Amir Temur hukmronligi va undan keyingi temuriylar davrida Samarqand bosh shahar edi va u bu paytga kelib o'zining boy tarixiy va madaniy an'analariga ega edi. Shuningdek, Buxoro, Shahrisabz, Toshkent, Termiz va boshqa ko'plab shaharlar san'at va hunarmandchilik markazlari deb tan olingan edi. Ular faqat o'zaro emas, balki Xitoy, Hindiston va arab mamlakatlari, boshqa yirik mintaqalar bilan savdo aloqasi va madaniy hamkorlik o'rnatgan edi.



Idish. XV asr. Samarqand.
Idish fragmenti. XV asr. Samarqand.

XIV-XV asrlar san'ati va hunarmandchiligi mo'g'ullar bosqinigacha bo'lgan davrda naqsh-gullarga moyil estetika rivojini o'zida namoyon etadi. Samarqand kulochililigi, shisha, torevtika buyumlari, suyak, yog'och buyumlar ishlab chiqarish bilan shuhrat qozondi. Bu erda eng yaxshi navdagi qog'ozlar chiqarilar, ip-gazlama va jun matolardan keng foydalanilar edi. Klavixo o'z kundaligida shaharning boyligi va go'zalligi, ajoyib me'moriy qurilishlar va ularning hayratomuz bezaklari haqida yozadi, oltin va kumushdan yasalgan pardoz buyumlaridan va shoh a'yonlari va valiahdlarning kiyim-kechaklaridan ko'pchiligini sanab o'tadi. Mo'g'ul bosqini oqibatlari bartaraf etilgandan keyin va Amir Temurning markazlashgan davlat barpo etishga yo'naltirilgan siyosati natijasida Movarounnahr va Xurosonda kulolchilik san'ati markazlari qayta tiklanadi. Sopol idishlar tayyorlash uchun, jumladan, Samarqand atrofidagi mahalliy loydan foydalanishgan. Klavixoning e'tiroficha, "bu erning loyi dunyodagi eng yaxshisidir". Kulollar xilma-xil idishlar yasashgan. Samarqand saroy qo'rg'oni hududidan XV asrga oid qatlamlarda xilma-xil kosalar, katta va kichik laganlar, tog'oralar, chiroqlar topilgan. XIV asr oxiri – XV asr boshida mahalliy koshindan xitoy chinnisiga taqlid asosida

tayyorlangan Movarounnahr laganlari paydo bo'lgan. Bu kulolchilik buyumlarining aksariyati karvon yo'llari bilan Evropaga olib chiqilgan. Ularning badiiy qiymatini qadrlagan o'sha zamon kishilari bu buyumlarni yuqori baholashgan. Bu xil sopol idishlar Samarqanddagina emas, Movarounnahrning, Buxoro, Toshkent, SHahrisabz kabi shaharlarda ham yasalgan.

Ulug'bek davrida Samarqand atrofida maxsus "Chinnixona" ustaxonalari faoliyat ko'rsatgan. XV asrga oid Movarounnahr laganlari uslub va bezagi o'sha davrda Xitoyda yasalgan xuddi shunday chinni buyumlarniki bilan deyarli bir xil bo'lgan. Temuriylar davri Movarounnahrda Temuriylar kulollik uslubining uzil-kesil shakllanishi va keng tarqalishi bilan tavsiflanadi. Bundan oldingi davrda yasalgan sopol buyumlari ulardan bir qadar farq qiladi. XVI-XVIII asrlarga kelib, ularning shaklida ham birmuncha o'zgarish ro'y beradi. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Axsikent, Ko'xna Urganch va Shahrisabz singari eng yirik shahar markazlarida olib borilgan qadimshunoslik tadqiqotlar natijasida o'sha zamonda yasalgan idish-tovoqlarning katta miqdordagi qiziqarli va noyob namunalari aniqlandi. Xitoy chinnisiga taqlid qilib ishlangan namunalarning aksariyati hashamdor kulolchilik ashyolaridir. Kundalik turmushda ishlatiladigan sopol idish namunalari, odatda loydan yasalib, bir xil bo'yoq bilan bo'yalgan. Ko'p hollarda sopolning oq angobi ustidan moviy bo'yoqda keng rasm bo'lgan islomiy naqshlar yozilgan. SHu bilan bir qatorda, ushbu kulollik idishlarida xitoy chinnisi bezaklaridagi ramziy uslublardan foydalanilgan. Bular: anor (barakali kun tilash), shaftoli, qo'ziqorin (abadiyat tilagi – "chji"), o'simliksimon (islimiy) suvratlar, ajdarho va boshqa tasvirlar. Boshlang'ich davrga xos taqlid namunalari bilan bir qatorda, rassomlarning ijodida asta-sekin yangi aralash naqsh-gul uslubida bezatilgan asarlar paydo bo'la boshladi. Umuman, temuriylar kulolchiligi Yaqin va O'rta Sharqning boy mahalliy badiiy an'analari va dunyoning boshqa mintaqalaridagi eng yirik kulolchilik markazlarining eng yangi yutuqlariga asoslangan edi.

Ko'zacha. O'rta Osiyo. 15 a.

XIV-XV asrlarda mahalliy ustalar yirik binolar qurilishida ishlatish uchun katta miqdordagi sirkori koshinlar ham tayyorlashgan. Bu paytda usta kulollar me'moriy-pardoz vositalari: o'yma va boshqa terrakotalar, koshinlar, sirkori taxtachalar va naqshu nigorli rangin mayolikalar ishlab chiqarish bilan shug'ullanishgan. Bu buyumlar me'morchilik inshootlaridagi ichki va tashqi bezaklarning jozibador bo'lishini ta'minlagan. Usta kulollar me'moriy bezakka olib kirgan feruza-zangori rang temuriylar davri san'atining ramziy ifodasidir. Idish-tovoq kulolchiligidan farqli o'laroq, me'moriy-pardoz sopolchiligida xitoy badiiy an'analari ta'siri sezilmaydi. Me'moriy inshootlarda bezak sifatida qo'llanilgan sopol bo'laklarida islimiy-handasaviy va epigrafik tusdagi naqsh-gullar keng o'rin egallagan.

Registondan topilgan mis idishlar. XIV-XV asrlar.

Ma'danga badiiy ishlov berish san'ati temuriylar davrida chinakamiga ravnaq topgan. Movarounnahr shaharlarida oltin va kumush, bronzadan xilma-xil shakldagi idish-tovoqlar, mis kandakorligi bilan bezatilgan uy-ro'zg'or buyumlari, qurol-yaroqlar,

harbiy anjomlar, turli-tuman zargarlik zeb-ziynatlari va diniy buyumlar ishlab chiqarilgan. Amir Temur va dastlabki temuriylar hukmronligi vaqtida Movarounnahr torevtikasida O'rta va Yaqin Sharq G'arbiy markazlarining ta'siri yanada kuchliroq sezila boshlagan. Bu ko'proq Sohibqironning G'arbiy yurishlari natijasida Movarounnahrga shu mintaqalardan ko'plab ustalar olib kelingani bilan bog'liq. O'rta Osiyo ustalari yasagan buyumlarda naqsh-gullarni nafislashtirish va idish shakllarini ixchamlashtirishga, buyumlarning – dastalar, tagliklar va afsonaviy qiyofalar shaklidan foydalanishga intilish kuchaygan.

Mis qazon. 1397-yil. Turkistondagi Ahmad Yassaviy maqbarasi.

A'yonlardan ayrimlarigina oltin va kumush hoshiyali qimmatbaho idish-tovoqlardan foydalangan. Olis mamlakatlardan tashrif buyurgan mehmonlarga ziyofat berish chog'ida ularning qo'l yuvishi uchun tilla va kumush dastsho'ylar qo'yilgan. Samarqanddagi Registon maydoni yaqinida joylashgan ustaxonada XIV-XV asrlarga oid brinch buyumlardan iborat xazina topilgan edi. Bular turli vazifalarga mo'ljallangan 60 dan ortiq idish buyumlardir: degchalar, kosalar, ko'zalar, idish tagliklari va qopqog'lari; uy-ro'zg'or buyumlari: mis qoshiqchalar, tarozi va h.k. Xazina tarkibida odatdagi hunarmandchilik mahsulotlari bilan bir qatorda, asl nusxadagi san'at asarlari ham mavjud bo'lgan. Ularning bezaklarida yangi zamon alomatlari namoyon bo'lib: naqsh-gullar yanada ingichkalashib nafislashgan, syujetli tasvirlarning o'ziga xos talqinlari aks etgan. Mo'g'ullar bosqinigacha bo'lgan davrdan farqli o'laroq, kishilar qiyofasi tasviri alohida ajratilmaydi. Ular yuzaga ishlangan naqshlar bilan batamom qo'shilib ketib, ko'zalar va

idishlar sirtini gilam gullaridek yoppasiga qoplab oladi. XIV asr oxiri va XV asr boshiga oid buyumlar bezagida donador islimiy naqsh-gullar ustunlik qiladi. Bu xil gul naqshlar ustidan forscha naqshu-nigorlar joylashtirilgan. Ma'dan buyumlar tavsifi haqida qo'shimcha ma'lumotni XV asrga oid miniatyuralardan olish mumkin. Ma'dandan yasalgan buyumlar: katta qozon, keng barkash, ko'za, guldon, dumaloq nozik gul-naqshlar bilan bezatilgan kosa, shamdon va boshqa buyumlar ham shu tarzda bezatilgan.

Shamdon. 1397-yil. Turkistondagi Ahmad Yassaviy maqbarasi.

Xo'ja Ahmad Yassaviy maqbarasi uchun yasalgan 11 dona bronza buyum XIV–XV asr boshidagi buyumlarning alohida guruhini tashkil etadi. Ular orasidagi noyob, dunyoga mashhur bronza qozon Sankt-Peterburgdagi Davlat ermitajidan yana maqbaraga qaytarib olib kelindi. Ushbu qozon 1935- yilda olib ketilgan edi. Olti dona shamdon, peshtoqning asosiy eshigida osig'liq turadigan yana bir juft bolg'a va bosh tanobiydan dahmaga kiriladigan eshikda osig'liq turadigan yana bir juft bolg'a ham shular jumlasidan. Ma'lumki, mazkur maqbara o'zi 1397 yilda Amir Temurning buyrug'iga binoan, u Ahmad Yassaviy qabrini ziyorat qilgandan keyin barpo etilgan. Maqbaradagi qirq quloqli quyma doshqozon kattaligi, muhtashamligi va tashqi tomoni g'oyat ziynatlanganligi bilan kishini lol qoldiradi. U maqbaraning katta tanobiysidan o'rin olgan. Qozonga shirin suv to'ldirilib, bu suv juma namoz o'qigani kelganlarga ulashilgan. Qozonning tashqi tomoniga

suls va kufiy xatida uning yasalgan vaqti, buyurtmachisi va yasagan ustaning ismi shariflari qayd etilgan. Qozonni usta Sharofiddin Tabriziyning o'g'li Abdul Aziz yasagan. 7 xil ma'dan qorishmasidan quyilgan bunday qozon boshqa topilgan emas. Holbuki, suv solish uchun toshdan qozon shaklidagi bunday katta idish yasash an'anasi XIII asrdayoq ma'lum edi. Usta Tabriziy yasagan ushbu qozon bezagida turli badiiy an'analar namoyon bo'lgan. Undagi bezaklarni muayyan markaz bilan chegaralash mushkul. Oltita ko'p qatli shamdon bezagida, naqshli bezaklar bilan bir qatorda, ham tarixiy mazmundagi, ham yaxshi tilak mazmunidagi yozuvlar mavjud. Yozuvlar arab tilida bitilgan. Ammo forscha matnlar ham bor. Tarixiy mazmundagi ushbu yozuvlar mazkur buyumlar Amir Temur buyrug'iga binoan yasalganini bildiradi va ustaning ismi sharifi keltiriladi: "Izzaddin ibn Tojiddin Isfahoniy, 1397 yil sanasi". Ushbu shamdonlar bezagidagi qator jihatlar suriya-misr badiiy an'analari bilan bog'liqdir. Ayni vaqtda ularda ma'dan buyumlar ishlab chiqaruvchi Erondagi markazlar an'analariga yaqinlik ham seziladi. Jumladan tadqiqotchilar, bu epigrafik yozuvlarga o'xshash yozuvlar XII-XIII asrlarga mansub eron buyumlarida ham ko'p ekanligini ta'kidlashgan. Bundan mazkur shamdonlarni yasashda Suriya (Shom) ustalari ham ishtirok etgan, deb taxmin qilish mumkin. 1401 yilda Amir Temur Damashqni bosib olganidan keyin ko'p ustalarni Movarounnahrga olib kelgan. Bundan avvalgi davr san'ati tarixida bu turdagi shamdonlar uchramaydi. Ayni shamdonlar yangi estetik didni o'zida aks ettiradi.

Mironshoh ibn Temurning uzuk-muhri. 1408-yil.

Movarounnahrda zargarlik buyumlari – ayollarning zebi-ziynatlari, ot jabduqlari va harbiy qurol-yaroqlar oltin, kumush, mis, bronza va jezdan yasalgan. Ularni bezatish uchun zumrad, feruza, gavhar, xalsedon, yoqut, dur, billur yoki shisha qadamalardan

foydalanishgan. O'rta asr zargarlari quyish, kandakorlik, tilla suvi yugurtirish, toshlarga ishlov berish kabi texnik usullaridan foydalanganlar. Temuriylar davrida qimmatbaho ma'dan va toshlardan yasalgan zargarlik buyumlarining shakllari va uslubida o'zgarishlar kuzatiladi. Bu davrda ayollarning zargarlik ziynatlariga e'tibor kuchayadi. Erkaklar libosi – kamarlar, choponlarga qimmatbaho ma'dan va toshlardan qadamalar tikish zargarlarning sevimli mashg'ulotiga aylanadi. Hunarmandlar turli aslaha va zirhlar yasashda ham yuksak mahorat ko'rsatishgan. Egar-jabduq va qurol-anjomlarning qismlari ham san'at buyumiga aylangan. Naqsh-gullar bilan bezatilgan, qimmatbaho ma'danlar va toshlar qadab ziynatlangan kamarlar, dubulg'alar, shamshirlar, oyboltalar va boshqa harbiy anjomlar asosan zodagon amaldor va harbiy sarkardalarga mo'ljallangan. Shunday durdona yodgorliklardan biri Amir Temurning nabirasi, Shohruhning o'g'li Sulton Ibrohimning zirhidir. Uning kamari naqshlariga tilla suvi yuguritirilgan.

Ulug'bek ibn Shohruh ismi bitilgan ko'za. XV asr boshi.

Istambuldagi To'pqopi saroy muzeyida temuriylarning Movarounnahrda XV asrda yasalgan qurol-aslahalarining ajoyib namunasi saqlanadi. Bu shamshir bo'lib, uning dastasi oq nefritdan ajdarho boshi shaklida yasalgan va tilla to'qachalar bilan bezatilgan. Qini ham bezak san'ati namunasidir. Uning yuqori qismi zarhal naqshlar bilan ziynatlangan hamda feruza, zumrad va yoqut kabi qimmatbaho toshlar qadalgan. Muzey to'plamlarida XV-XVI asrlarda shuhrat topgan qurol-yaroq va zirh-sovutlarning namunalari saqlanadi. Shunday durdona buyumlardan biri kamari zarhal

naqshlar bilan ziynatlangan zirhdir. Zirh XV asr boshida Shohruhning o'g'li Sulton Ibrohimga atab Sherozda yasalgan.

Ajdar tasviri tushirilgan Ulug'bek qutichasi. Fragment. 1420-1449 y.

Bu davrda yog'och, suyak, shisha, yarim qimmatbaho toshlar (marmar, nefrit, yoqut), pape-mashedan yasalgan buyumlar kabi ashyolar bilan bog'liq hunarmandchilik rivojlangan. Yog'och, nefrit va marmardan ham maishiy buyumlar va me'morchilikka oid jihozlar: ustunlar, eshiklar, devorlar, dahmalar va boshqalarni tayyorlashda foydalanganlar. XIV-XVI asrlardagi badiiy uslub namunalari deyarli saqlanib qolmagan. Biroq zamondoshlarning guvohlik berishicha, rangdor shisha qoplamalardan dunyoviy inshootlar intererlarini bezashda vitraj san'atining o'ziga xos shakli sifatida foydalanilgan.

Bu davrga xos suyak yo'nish san'ati xilma-xil buyumlarda namoyon bo'lgan. Suyakdan asosan, qilich, pichoq sopi, harbiy aslaha qismlarini bezashda foydalanilgan. Fil suyagi mayda pardoz buyumlari yasashda qo'l kelgan. Shuningdek, undan xotin-qizlarning upa-eliklari saqlanadigan turli qutichalar sirtiga qadamalar qilingan. Ustalar cholg'u sozlarini bezashda ham suyak tasmachalarini qo'llashgani o'sha davr miniatyura asarlarida ko'rinadi.

Yog'ochning xilma-xil navidan sandiq, quti, lavh, cholg'u asboblari, xontaxta, taxtu-toj jihozlari yasalgan. YoOg'ochdan ro'zg'orda ishlatiladigan ommabop buyumlar bilan bir qatorda chinakam san'at durdonalari ham yaratilgan. Ulug'bekka yoki Shohruhga tegishli sandal yog'ochidan yasalgan o'ymakori quticha, shubhasiz, bu davrga oid noyob asarlar sirasiga kiradi. Ushbu quticha XV asrda O'rta Osiyoda yasalgan va boshdan-oyoq islimiy naqshlar bilan qoplangan. Dastasi va qulflari esa tilladan yasalgan.

Quticha bezagida musulmon dunyosining naqsh-gul uslubi va temuriylar saltanatida urfga kirgan Xitoy syujetlari qo'shilib ketgan. Quticha qopqog'ida Ulug'bekning unvoni va ismi yozilgan. Qopqoqning ikki oralig'ida afsonaviy ajdarholar tasviri tushirilgan tumor joylashgan.

Ustalar naqsh nafisligiga erishishga, bezatilayotgan buyumlar sirtini iloji boricha naqshlar bilan to'ldirishga intilishgan. XIV asr yog'och o'ymakorligi namunalari – Qur'on uchun yasalgan lavh (1359 y, usta Hasan ibn Sulaymon al-Isfahoniy), Sayfiddin Boharziy maqbarasidagi, Xo'ja Ahmad YAssaviy maqbarasidagi o'ymakori eshiklar va Shohi Zinda majmuidagi Husan ibn Abbos maqbarasidagi o'ymakori bezagidagi islimiy naqshlar hali-hanuz but-butun saqlanib qolgan. Bu davr yog'och o'ymakorligi uslubi naqsh-gul asosni kuchaytirishga asoslangan. Ayni jihat buyumlarga badiiy ishlov berishda ham, boshqa qattiq ashyolar – tosh o'ymakorligi bo'yicha, mozaika va koshinlarda va boshqalarda ham kuzatiladi. XIV-XV asrlar yog'och o'ymakorligi namunalari o'rta asr yog'och o'ymakorlarining naqsh-gul solish san'ati yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Bu buyumlarda badiiy o'ymakorlikning ikki asosiy usulidan foydalanilgan. XIV asrda ko'proq o'yma yoki qirqma (kesma) naqshlar bilan bezashning oddiy yo'sini keng yoyilgan. Keyinchalik esa XV asrda – yanada murakkabroq bezak usuli – tagzaminsiz o'ymakori usuli qo'llanilgan.

Bu davrda tosh yo'nish san'ati ham ravnaq topgan. Usta tosh yo'narlar uy-ro'zg'or buyumlari: idish-tovoq, kapgir, cho'mich, muhrli uzuk-xotamlar bilan birga, me'morchilikda qo'llanadigan jihozlar yasashgan. Nefrit va agatdan yasalgan kosa, qutichaga o'xshagan nodir buyumlardan bir qanchasi saqlanib qolgan. Oq nefritdan yasalgan buyumlarning shakli juda bejirim bo'lib, ularga benuqson, tugal ishlov berilgan. Marmar va nefritdan yasalgan me'moriy yoki diniy-marosimiy inshootlari bezagida tekis islimiy, handasaviy gullar epigrafik yozuvlar bilan birlashib ketishi ko'proq uchraydi. Go'ri Amir dahmasidagi turli navdagi marmar va nefritdan yasalgan sag'ana va Hakim at-Termiziyning marmar dahmasi (XV asr) toshyo'narlik san'atining chinakam durdonasidir. Movarounnahrda pape-mashe qaysi vaqtda paydo bo'lganini aytish

qiyin. Ammo XIV-XV asrlarda ustalar Samarqandning mashhur me'moriy inshootlari bezagida pape-mashe ashyolaridan foydalanishgan. Bu davrda pape-mashedan yasalgan, tilla va kumush iplardan to'pgul islimiy girixlar va mayda xatlar bilan yaxlit qoplangan qalamdonlarning ajoyib namunalari tadqiqotchilar tomonidan "1400–1425 yillar" deb sanalangan.

Temur va temuriy hukmdorlari davri jihozlari sifatida, albatta, xilma-xil gilamlar tilga olinadi. Bu davrda gilamlar ipak, zardo'zlik, kumush kashtagullar bilan bezatilgan va ularga ko'plab rangdor matolar qiyqimlaridan quroq gullar tikilgan. Taxt guldor qalin gilamlar bilan bezatilganini o'sha davrga oid kichik miniatyura asarlaridan bilib olsa bo'ladi. Tadqiqotchilar tasvirlarni tahlil qilish asosida temuriylar davridagi shohona gilamlarning ikki asosiy turiga urg'u beradilar. Ulardan birinchisi va ancha qadimgisi deb atalganlarning gulida handasaviy naqshlar ustunlik qiladi. Ancha keyingi davrlardagi gilamlar bezagini esa asosan islimiy yo'lidagi naqsh-gullar tashkil etadi. Bundan tashqari, gilamlarda to'pgul va lavhalardan bir-biridan go'zal bezaklar xosil qilingan. Keyinchalik islimiy naqshli gilamlar keng shuhrat qozongan safaviylar gilamlari bezaklari uchun asos bo'lgan. Eron va O'rta Osiyo mintaqalaridagi XV asrga oid gilamlarning saqlanib qolgan parchalarida jigarrang va och jigarrang tusli tagzamindagi handasaviy gullar ustunlik qilganini ko'ramiz.

XIV-XV asrlarda Movarounnahr shaharlarida hashamdor va rang-barang choyshablar, uy ichi bezagi va ot yopqichi uchun zardo'zlik matolari, a'lo sifatli ip-gazlama matolari to'qilgan. Klavixoning qayd qilishicha, o'sha paytda turli-tuman darpardalar va uy ichini bezatish uchun boshqa guldor matolar to'qilgan va ularga rang-barang qadamalar va yopishtirmalar qo'llangan.

Temuriylar davri hunarmandchiligi o'sha vaqtdagi badiiy madaniyatning boshqa turlari kabi jahon tamadduni tarixidagi yorqin sahifalardan biridir. Bu davrda mintaqa san'atida mislsiz durdonalar yaratildi.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar:

1. Amir Temurning bunyodkorlik siyosatini shahar hunarmandchiligida keskin rivojlanishida qanday o'rin tutgan?
2. Shahar madaniyatida amaliy san'atning o'rni qanday?
3. Bu davrda amaliy san'atning asosiy markazlari qaerda joylashgan?
4. Amaliy san'at buyumlarida qaysi chet el an'analari seziladi?
5. Samarqand kulolchiligi to'g'risida qanday ma'lumotlar mavjud?

7-MAVZU. O'ZBEK XONLIKLARI DAVRI AMALIY SAN'ATI

Reja:

1. XVII asr oxiri va XVIII asr birinchi yarmida O'rta Osiyoning boshqa Sharq mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari va o'zbek amaliy san'ati rivoji.
2. XVIII – XIX asrlarda o'zbek amaliy san'atida mahalliy maktablar shakllanishi.
3. Badiiy hunarmandlikning asosiy turlari va uning markazlari.

XVII asrdan to XIX asr boshigacha bo'lgan davr Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklar davridir. Bu davrda mahalliy xalqlarning boshqa xalqlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalari ancha kamaygan. Bu jarayon madaniy hayotga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Miniatyura san'ati hamda me'morlik sohalari inqirozga uchragan. Amaliy san'atda ham mahalliy an'analar ustuvorligi namoyon bo'lib, buyumlarning badiiy sifati avvalgi davrlarga qiyoslaganda ancha past, naqshlar mayinlashgan, o'simliksimon handasaviy naqshlardan ko'proq foydalanilgan. Muzeylar xazinalarida bu davrga oid amaliy san'at namunalaridan faqat kulolchilik, kandakorlik, marmar va suyak o'ymakorligi, zargalik buyumlari saqlanib qolgan. Kashtachilik, gilamdo'zlik namunalari haqidagi ma'lumotlarni esa miniatyura va yozma manabalardan olish mumkin. Bu davrda feodal tarqoqlik natijasi va o'lkada uch xonlik: Xiva, Buxoro va Qo'qon xonliklari tashkil topgan. Butun mintaqa san'ati va hunarmandchiligida mahalliy maktablar yuzaga kelib, ularda o'ziga xos an'analar shakllangan. Mintaqaning asosiy xalqlari: qozoqlar, tojiklar, turkmanlar, o'zbeklar, qoraqalpoqlarning hayot tarziga muvofiq plastik san'atning asosiy turi – badiiy hunarmandchilik keng yoyilgan. Bu davrda an'analari to hozirgacha etib kelgan amaliy san'at markazi va maktablari shakllangan. Badiiy hunarmandchilikdagi simbioz mintaqa ichkarisida alohida etnomadaniy hududlar yuzaga kelishida namoyon bo'ladi. Ayni holat o'z taqdirini o'zi belgilab olgan turkiyzabon xalqlar: qirg'izlar, qozoqlar, o'zbeklar, turkmanlar, qoraqalpoqlar turmush tarzining bir-biridan va qo'shni xalqlardan bilan farqlanishiga asoslangan.

Bunday etnomadaniy hududlar tilga olingan xalqlar o'rnashgan joylarda vujudga kelgan. Natijada, mintaqa hududida simbiozning quyidagi shakllari: Farg'ona vodiysida tojik-o'zbek-qirg'iz simbiozi (Chust, Xo'jand, Rishton, O'sh – sopol, kashta, zargarlik san'ati, gilamdo'zlik); o'zbek-tojik simbiozi (Buxoro, Samarqand va qisman Farg'ona vodiysi – amaliy san'atning barcha turlari); o'zbek-qozoq simbiozi (mintaqa shimoli – Toshkent, Sirdaryo tumanlari, shuningdek, Zarafshon vodiysining ayrim qismlari – gilamdo'zlik, kigiz bosish), o'zbek-turkman-qoraqalpoq simbiozi (Chorjo'y, Chimboy tumanlari – sopol, zargarlik san'ati) paydo bo'lgan. Mintaqa ichida aloqalarning faollashuvi qo'shni mamlakatlar bilan madaniy aloqalar susayishiga olib kelgan. Buxoro, Qo'qon, Xiva, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent badiiy hunarmandchilik va san'atning sara an'analari markaziga aylangan. Bu shaharlardagi maktablar o'zining mahalliy xususiyatlari bilan bir-biridan farq qilgan.

O'troq xalqlarning saroy-shahar san'ati bilan bir qatorda, qishloq badiiy hunarmandchiligida ham muayan farqlar kuzatiladi. Qishloq badiiy hunarmandchiligi qadimiy naqsh-gul va texnologik usullari bo'lgan ko'chmanchi chorvador qabilalar an'analarini o'zida aks ettirgan. O'troq xalqlar hunarmandchiligida turkiyzabon ustalarning ko'p asrlik tajribasi, mahorati namoyon bo'ladi. Ularning ajdodlari asrlar mobaynida shahar muhitiga singib ketgan edi. Badiiy hunarmandchilik va me'moriy bezaklar shundan guvohlik beradiki, bu vaqtda mintaqada turli maktablarning asosiy uslubiy va texnologik o'ziga xosliklari bo'lgan. Ular mahalliy etnomadaniy muhitning shu hududda yashaydigan aholi hayot tarzining o'ziga xosligini aks ettirgan. Buxoro, Qo'qon, Xiva, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent badiiy hunarmandchilik va san'atning sara an'analari jamlangan markazga aylangan. Bu markazlardagi mahalliy maktablarning o'ziga xos uslublari paydo bo'lgan. Bu davrda karvon yo'llari O'rta Osiyo shaharlarini hozirgi Afg'oniston, Hindiston, eron markazlari, shimoldagi Sirdaryobo'yi shaharlari, qozoq ko'chmanchilari, Sibir bilan bog'lagan. Mahalliy bozorlarga qoramol, chorva mahsulotlari, tuyalar, qisman hunarmandchilik buyumlari etkazib berilgan. Qozoq aholisi bilan qizg'in savdo-sotiq olib borilgan. Qozoq ustalari qo'y terisidan chakmonlar

tayyorlashgan. Ular turli ranglarga bo'yalgani tufayli atlasga o'xshab ketgan. "Ularni Buxoroga olib boradilar, – deb yozgan edi bir zamondosh. U erda qo'y terisidan tayyorlangan chakmonlarni atlasdan tikilgan chakmonlar narxida sotishgan. Chunki ular juda nafis ishlangan". Qoraqalpoqlar Buxoroga qoramol va teri olib borgan. Turkmanlar bilan keng savdo ishlari olib borilgan. Ular Buxoro bozorlarida, asosan, ip-gazlama matolari sotib olishgan. Turkmanlar tikkan kiyimlar, hurjunlar Buxoro bozorlarida qo'lma-qo'l bo'lib ketgan. Zarafshon va Farg'ona vodiysi aholisi turkman gilamlariga ishqiboz bo'lgan. Gilamlar boylar uyini bezab turgan. Turkmanlar Buxoro bozorlariga otlarning alohida zotlarini haydab kelganlar. Bu paytda O'rta Osiyo aholisi asosan, paxta matolari va buyumlarini ishlab chiqargan va eksport qilgan. Kamroq miqdorda shoyi matolar olib chiqilgan. Ilk o'rta asrdan farqli o'laroq to'qimachilar tayyorlagan eksport mahsulotining asosiy qismi feodal boylarga emas, o'rtahol aholiga mo'ljallangan. Savdo-sotiqning rivoji O'rta Osiyo davlatlarida to'qimachilik sanoatining kengayishiga olib kelgan. Farg'ona to'qimachiligi avvalgidek qo'l mehnatiga asoslangan va xalq ustalarining uquvi, zehni mahorati tufayli yuqori sifatli matolar ishlab chiqarilgan. XVII asr oxiri va XVIII asr birinchi yarmida O'rta Osiyoning boshqa sharq mamlakatlari bilan xalqaro savdo-iqtisodiy aloqalari ancha susaygan.

XVIII asr oxirida O'rta Osiyoda Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklarining siyosiy hamjihatliligiga putur etgan. Buxoro amirining ko'chmanchi qozoq cho'li bilan savdo aloqalari, qo'shni mamlakatlar va Rossiya bilan aloqalarining kengayishi, eng avvalo, to'qimachilik taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Ko'chmanchilar Buxoro hunarmandlarining mollarini jon-jon deb olar edilar. Buxoro yung mahsulotlari Farg'onada arzon edi. Erga to'shaladigan va mebel o'rnini bosadigan kigiz va gilamlar uy ichini ko'rkamlashtirgan. SHuningdek, qopchiqlar, arqonlar, iplar, yopinchiqlarning barchasi jundan tayyorlangan. Jun bosh kiyimi, guldor kigizlar va yo'l-yo'l xurjunlar voha aholisi orasida keng rasm bo'lgan. Buxoro aholisi hunarmandlik mahsulotlarining ortiqcha qismini xo'jalikda zarur narsalar bilan ayirboshlagan.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar:

1. Bu davrda iqtisodiy o'zgarishlarning madaniy sohasida qanday ta'sir ko'rsatgan?
2. Amaliy san'atning badiiy sifati va uslubining asosiy jihatlari qaysilar?
3. Xonliklar davri amaliy san'atni o'rganish uchun asosiy manbalari nimadan iborat?
4. Amaliy san'atning badiiy markazlarining o'ziga xosligi nimada?
5. Xonliklar davri amaliy san'at namunalaridan misollar keltiring.

8-MAVZU. XIX –XX ASR O'ZBEKISTON AMALIY SAN'ATI

Reja:

1. XIX-XX asr o'zbek badiiy hunarmandchiligidagi mahalliy maktablar.
2. XIX asr oxiri va XX asr boshida Turkiston badiiy hunarmandchiligi.
3. 1920-1980 yillar O'zbekiston amaliy san'atining asosiy xususiyatlari va muammolari.

Mintaqaning XIX-XX asrlar an'anaviy hunarmandchiligi tarixini shartli ravishda uch bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich – XIX asr oxiri va XX asr boshi. Bu davr Turkistonni bosib olish jarayoni boshlanib, o'lkani harbiy-iqtisodiy jihatdan o'zlashtirish va etnografik nuqtai nazardan o'rganishga kirishilgan ed. Bu yillar ko'plab muzey to'plamlariga asos solinadi, mahalliy qo'l hunarmandchiligini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratgan rossiyalik tarixchi - etnogroflar, sayohatchilarning ilmiy ishlari chop qilinadi. Bu yillar Turkiston badiiy hunarmandchiligining tabiiy va jadal rivojlanish davri bo'lib, ustalarning buyumlari mahalliy aholining ro'zg'orbop va marosimlar uchun kerak bo'lgan ehtiyoj va talablarini bemalol qondirar edi.

Ikkinchi bosqich – 1920-1980- yillar – milliy respublikalar tashkil etilishi va ularning sho'ro davlati tarkibiga kiritilishi davri. SHo'ro siyosati xalq badiiy sanoati qismatini tubdan o'zgartirib yubordi. 1920- yillardan ustalar shirkat arteliga birlashtirildi. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy va mafkuraviy siyosat xalq amaliy san'ati uchun to'siqqa aylandi. An'anaviy badiiy hunarmandchilikning noyob qatlamini tashkil etuvchi yakkam-dukkam va mayda kustar sanoatlar asta-sekin tugatildi. Hayotning oldingi tartiblarini tanqid qilish va yangi turmush uchun kurash ko'plab an'anaviy turdagi buyumlar, texnologiyalar va asriy ko'nikmalar va tarixiy hunarmandchilik tajribasining avloddan-avlodga olib o'tishiga barham berib, ustalarning faoliyatiga chek qo'ydi.

Uchinchi bosqich – 1990 yillar – mintaqadagi sobiq sho'ro jumhuriyatlari milliy mustaqillikni qo'lga kiritgani va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, jumladan, badiiy madaniyat sohasida

mustaqil siyosat yurgizu boshlagani, o'z milliy tarixi va madaniy merosini qadrlashning paydo bo'lishi xalq madaniyati va san'atiga yangicha munosabatning shakllanishiga imkon berdi. An'anaviy bayramlar, rasm-rusumlar, marosimlar, shuningdek, unut bo'lib ketgan qator kasb-korlaru- hunarmandchilik turlari qayta tanlana boshladi. Mintaqa davlatlari (har biri o'z imkoniyatlariga qarab) unut bo'lib ketgan an'anaviy hunarmandchilikni qayta tiklash va saqlanib qolgan turlarini rivojlantirish uchun zarur iqtisodiy va ijtimoiy sharoit yaritishga harakat qilmoqda.

XX asr boshigacha O'zbekiston hududida dehqonchilik (o'troq), shahar va ko'chmanchilik yoki chorvadorlik hayot tarzi etakchilik qilgan. Hamda bunday hayot tarzi ko'p jihatdan o'lkada istiqomat qilayotgan xalqlar an'anaviy estetikasi va madaniyati xarakteri va mohiyatini belgilab bergan. Bu farq badiiy hunarmandchilikning shakl va turlarida, ayniqsa, bo'rtib ko'rinadi. Badiiy hunarmandchilik mahsulotlarida o'troq va ko'chmanchi xalqlar madaniyatining bo'linishi yanada aniq seziladi. Agar tub aholining o'troq dehqonchilik va shahar hayot tarziga moyil madaniyatida, jumladan, pishgan g'isht va xom g'isht (guvalak)dan qurilgan doimiy an'anaviy turarjoylarning shakl-shamoyilida rang-baranglik kuzatilsa, ko'chmanchilik hayot tarzi bilan yashovchi aholi uchun turarjoyning eng keng tarqalgan turi o'tov bo'lgan. Chunki chorva xo'jaligi uchun bu juda qulaydir.

Hayot va turmush sharoitlariga bog'liq ravishda badiiy sanoatda ham farqlar yuzaga kelgan. Ya'ni – o'troq va shahar infratuzilmasida kulolchilik, to'qimachilik san'ati, mis kandakorligi buyumlari tayyorlash, zardo'zlik san'ati rivojlangan. Talab yo'qligi, shuningdek, texnologik murakkablik va xom ashyo taqchilligi tufayli ko'chmanchi xalqlar turmush tarzida ular u qadar keng rusum bo'lmagan. Ayni vaqtda ko'chmanchilar o'tovni, kiyimlari va otning egar-jabduqlarini bezash uchun badiiy to'qimachilik (gilamdo'zlik, kashtachilik, kigiz bosish), zargarlik san'ati va charm buyumlarga oid ko'pdan-ko'p narsalar tayyorlashgan. SHunday qilib, o'troq va ko'chmanchi aholi madaniyatida an'anaviy hunarmandchilik shakl va turlarida qadimiy tafovutlar saqlangani holda, har ikkala madaniyatda, umumiy turlar rivojlanishi kuzatiladi. Masalan, kashtachilik ko'chmanchi va o'troq xalqlarda juda rivojlangan edi.

Ammo kashtachilik buyumlaridagi gullar, ramzlar, tasvir tizimi uni nimaga xizmat qilishida ikkala madaniyat o'rtasida farq seziladi. Badiiy hunarmandchilikning yorqin mahalliy maktablari bilan bir qatorda, XIX asrga kelib, turli etnomadaniy an'analar o'zaro hamkorligining chegara maydonlari vujudga kelgan. Gap turli etno-xo'jalik guruhlarining mashhur madaniy va badiiy simbiozga olib kelgan yashash joylari haqida bormoqda. Amaliy san'at badiiy xususiyatlarining shakllanishida etno-genetik omil bilan bir qatorda, konfessional (diniy) omil ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston hududida ko'p asrlar davomida, ayniqsa, mintaqaning markaziy qismlaridagi shahar markazlarida islom aqidalarining jiddiy ta'siri ostida san'atda uslublashtirish hodisasi ro'y berdi. Mintaqaning aynan urbanik (shahar) madaniyatida islom ta'siri, ayniqsa, yaqqol ko'rinib turardi. Qishloq joylarda, ayniqsa, tog'li yoki chorvador xalqlar madaniyatida bu ta'sir unchalik kuchli bo'lmagan.

Rossiya qo'shinlari Turkistonni bosib olguniga qadar, bu erda hunarmand ustalar mahalliy aholining maishiy buyumlariga ehtiyojini to'la ta'minlagan. Rossiyada ishlab chiqarilgan fabrika mahsulotlarini Turkistonga olib kelinishi (arzon mato, chinni va temirdan ishlangan maishiy buyumlar) tufayli ko'plab amaliy san'at turlari bu raqobatga bardosh bera olmay, inqirozga uchragan. Rossiyada arzon anilin buyoqlarining paydo bo'lishi esa mahalliy mato va jundan tayyorlangan hunarmandchilik buyumlari (kashtachilik, gilamdo'zlik, chitgarlik, matosozlik va hokazo) sifatining pasayishiga sabab bo'lgan. Bu davr kulolchilik, kandakorlik, zargarlik, matosozlik, chitgarlik, gilamdo'zlik, kashtachilik, yog'och o'ymakorligi va boshqa amaliy san'at turlari rivojlangan.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar:

1. Rossiya Turkistonni bosib olishining badiiy hunarmandchilik sohasidagi ta'siri qanday bo'lgan?

2. Rossiya fabrika mahsulotlarining mahalliy hunarmandchilikka ko'rsatgan salbiy ta'siri qanday bo'lgan?

3. Badiiy to'qimachilik mahsulotlarida anilin bo'yoqlarining ishlatilishining oqibatlari qanday?

4. O'zbekiston amaliy san'ati sho'rolar tuzumi sharoitida qanday bo'lgan?

5. O'zbekistonda badiiy sanoat va noan'anaviy bezak san'atining shakllanishi va xalq amaliy san'ati bilan bog'liqligi nimadan iborat?

9-MAVZU. MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEKISTON AMALIY SAN'ATI

Reja:

1. O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi – halq amaliy san'atining tarixida yangi sahifa.
2. Mustaqillik davri amaliy san'atining asosiy turlari va ularning sharhi.
3. Mustaqillik davrida an'anaviy badiiy hunarmandchilik an'analarini saqlash va uni qayta tiklash muammolari.

1991 yilda O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, uning tarixida yangi davr boshlanib, madaniyat va san'at sohalarida ham yangi tarixiy sahifalar ochiladi. Madaniy merosga, milliy qadriyatlarga munosabat tubdan o'zgarib, amaliy san'at sohasida yangi jarayon yuz beradi. Unutilgan an'anaviy bayramlar, urf-odatlar, udumlar, shuningdek, bir qator yo'qolib ketgan hunarmandchilik turlari qayta tiklandi. Amaliy san'at sohasida "Ustoz-shogird" tizimi yo'lga qo'yilib, hunarmandlarning ijtimoiy mavqei o'sa boshladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonini e'tiborga olib, amaliy san'at ustalari uchun soliq sohasida davlat tomonidan bir qator imtiyozlar yaratilib berildi. Bu davrda O'zbekiston xalq amaliy san'atini rivojlantirish uchun YUNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlar ham muayan darajada ko'maklashadi. 1990- yillarga kelib, O'zbekistonning iqtisodiy ahvoli va an'anaviy hunarmandchiligi estetikasi nihoyatda ayanchli holatga tushib qolgan, XIX asr va XX asr boshi kashtachiligi an'anasi yo'qotilgan, hamma sohada fabrikada ishlab chiqarilgan matolar va sun'iy yoki paxta iplardan foydalanilar edi. Natijada, xalq hunarmandchiligi mahsulotlariga talab keskin pasayib, kashta past sifatli ommabop suvenir, yani sovg'abop narsa bo'lib qolgan edi. 1920- yillar boshida ham xususiy mulkka barham berilgani tufayli, amaliy san'atning iqtisodiy asosiga putur etgan edi. SHu asnoda tabiiy iqtisodiy tayanchidan mahrum bo'lgan hunarmand ustaning ijtimoiy maqomi pasayib ketdi. O'z mahsulotlarini mustaqil sotishga intilgan usta hunarmandlar noqonuniy ish qilganlikda ayblanib, soliq idoralari tomonidan ta'qib ostiga olindi.

Mustaqillik davrida xususiy mulkni vujudga keltirish va bozor iqtisodiga o'tish an'anaviy badiiy hunarmandchilikni qayta tiklash uchun asosiy iqtisodiy omilga aylandi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan xalq ustalari maqomini mustahkamlash, an'anaviy hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan hukumatning qator hujjatlari va farmonlari e'lon qilindi. An'anaviy badiiy hunarmandchilik yuqori sifatli mahsulotlarini qayta tiklashda olimlar, mutaxassislar, san'atshunoslardan iborat ekspertlar hamjamiyati faoliyati ham muhim rol o'ynadi.

Rishtonlik usta, akademik Sharofiddin Yusupov. 2012-yil.

Ustalarning o'zi ham hunarmandchilikka o'zgarishlar kiritish zarurligini tushunib etishdi. Mustaqillikka erishilgandan keyin O'zbekiston xalqaro huquqning mustaqil sub'ekti sifatida BMT, YUNESKO singari nufuzli tashkilotlarga a'zo bo'ldi. Toshkentda horijiy davlatlarning elchixonalari, diplomatik vakolatxonalari, xalqaro tashkilotlar, banklar va fondlar ochildi. O'zbekistonga xorijiy sayyohlar oqimi keskin oshdi. Ular an'anaviy san'at turlari namunalariga katta qiziqish bildirdilar. Bu esa, o'z navbatida, mahsulotlar sifatini baholash mezonlariga ta'sir qildi. Hunarmandchilikning avvalgi mashhur markazlarini va qadimiy texnologiyalar hamda bezaklarni qayta tiklash jarayonida xalqaro omil muhim rol o'ynay boshladi. Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy voqelik va estetik omillar an'anaviy badiiy hunarmandchilik rivojiga ijobiy ta'sir etib, jumladan, an'anaviy o'zbek kashtachiligining yangi bosqichini belgilab berdi. Bu sohada umumiy ijobiy siljishlarga

qaramasdan, chuqurroq tadqiq etishni taqozo etuvchi, ijodiy xususiyatga ega qator muammolar aniqlandi. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi ko'p jihatdan an'anaviy badiiy hunarmandchilikning istiqboldagi taraqqiyotini belgilab berdi. Davlatimiz o'z mustaqil taraqqiyotining dastlabki yillarida duch kelgan juda katta iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, madaniyat va san'at, shuningdek, badiiy hunarmandchilik tarmoqlarini iqtisodiy jihatda qullab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlikni shakllantirish uchun sharoit yaratish, amaliy san'at ustalari uchun iqtisodiy va soliq imtiyozlarini berish kabilarda mas'ullikni o'z zimmasiga oldi. Bunday oqilona siyosat an'anaviy badiiy hunarmandchilikni qayta tiklash va takomillashtirishga yo'l ochib berdi. Milliy o'zlikni anglashning o'sishi madaniy merosga qiziqishni oshirganligi bilan muhim ahamiyat kasb etdi.

1993 yildan O'zbekiston an'anaviy kulolchiligi inqirozdan chiqa boshladi. U.Ashurov, I.Komilov, Sh.Yusupov, A.Toirov, R.Usmonov, A.Esonov, N.Qodirov singari rishtonlik usta kulollar ishqor bilan ishlash texnologiyasidan foydalanib, an'anaviy kulolchilik shakllarini qayta tikladilar. Xonqa tumani markazi yaqinidagi Modir qishlog'i, Yangiariq tumani markazidan uncha uzoq bo'lmagan Kattabog' qishlog'i Xorazm kulolchiligining asosiy markazlari bo'lib qoldi. Ammo jiddiy muammolar mavjudligi ham namoyon bo'ldi.

1990-yillarda Buxoro-Samarqand kulolchilik maktabi mahsulotlari, o'z shakliga ko'ra, g'ijduvonlik usta Alisher va Abdullo Narzullaev va ularning shogirdlari, urgutlik usta No'mon Obloqulov, denovlik usta Zuhur Rasulov kabilar saqlab kelayotgan avvalgi o'nyilliklardagi an'anasini rivojlantirdi. Ayniqsa, Alisher Narzullaev katta muvaffaqiyatlarga erishdi. U G'ijduvon markazida o'z mablag'iga an'anaviy san'at markazini qurdi. Bu erda nafaqat kulolchilik, balki Buxoro hududidagi kashtachilik, gilam to'qish, zargarlik san'ati, kandakorlik singari hunarmandchilikning boshqa an'anaviy turlari ustalari ish olib boradilar.

Qashqadaryo gilamdo'zlari. 2008-yil.

1990-yillardan Marg'ilon, Xiva, Toshkent, ayniqsa, Buxoroda an'anaviy kandakorlik san'ati qayta tiklandi va u ayni paytda jadal rivojlanmoqda. Zamonaviy kandakorlik uchun jez, bronza, mis, alyumin, melxior kabi metallar xomashyo sifatida ishlatilmoqda. Metalldan ishlangan buyumlar kumush, mis, sadaf, feruza va emal kabilar bilan bezatiladi. 1990- yillardan Qo'qon kandakorlik maktabi an'analarini usta Maqsud Madaliev va uning oilasi davom ettiryapti. Ular nafis shaklli va bezakdor mahsulotlar ishlab chiqarmoqdalar. Buxoroda mohir kandakorlar guruhi ishlaydi. Xivada kandakorlik an'anasi torroq doirada saqlanib qolgan. Ko'pgina xalq ustalari zargarlik san'ati an'analarini rivojlantirishmoqda. Toshkentda, masalan, N. Xolmatov, F. Dadamuhamedov, G. Yuldasheva, U. Xolmurodov singari ustalar o'zlari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarda o'zbek zargarlik san'atining asriy an'analarini shaxsiy ijodiy izlanishlari bilan uyg'unlashtirayotganligi ko'zga tashlanadi.

Namat tayyorlash jarayoni. Boysun.2003-yil.

Zardo'zlik ham 1990- yildan keng tarqalgan badiiy hunarmandchilik turiga aylandi. Buxorodagi tarixiy zardo'zlik markazi qadimgi ustalar avlodi vakili B.Jumaev samarali ish olib bormoqda.

O'zbekistonning janubiy va janubi-g'arbiy hududi Xorazm, Samarqand viloyatlaridagi Urgut, Nurota, Farg'ona vodiysi, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi, yashayotgan aholi ehtiyojiga mutanosib ravishda an'anaviy gilamchilik qayta tiklandi. Toshkent, Buxoro, Xiva va O'zbekistonning boshqa shaharlarida ipak gilamlar ishlab chiqaradigan ustaxonalar ishga tushirildi. Ular ishlab chiqarayotgan gilamlar xaridorlarning yuksak talablariga javob bermoqda. Ularning bezaklarida an'anaviy o'zbek gilamlari bezaklaridan tortib Sharq miniatyurasidagi syujetli sahnalargacha foydalanilmoqda. O'zbekistonning turli hududida, ayniqsa, Farg'ona vodiysining Marg'ilon, Qo'qon kabi shaharlarida 1990- yillardan hunarmandchilik yo'li bilan shoyi matolari ishlab chiqarish qayta tiklandi. Keyingi yillarda mashhur italyan, fransuz, yapon va amerikalik modeler-dizaynerlar O'zbekistonning an'anaviy shoyi matolariga qiziqish bildirmoqdalar. Marg'ilonda hunarmandchilik markazi yaratgan respublikada tabiiy bo'yoqlardan foydalanish tajribasini ommalashtirgan, shuningdek, mahsulotlarinda bozorning yuksak talablarini an'anaviy estetikaning nozik didini uyg'unlashtirib yuborgan. Qadimiy sulola ustalar avlodi vakili Rasul Mirzaahmedovning faoliyati diqqatga sazovordir.

Kasanachilik asosida rivojlantirilayotgan zamonaviy kashtachilikda ham bir qator o'zgarishlarga yuz berdi. Urgut, Nurota, Kattaqo'rg'on, Boysun, Denov, Sherobod, Sho'rchi, Sariosiyo, Kitob, Shaharisabz, Koson, Qamashi, G'uzor, Namangan, Andijon, G'allaorol, Baxmal, Shofirkon singari shahar va qishloqlarda so'zana turidagi yirik shaklli devorpechlar ishlab chiqarilmoqda.

Kashta ustasi Madina Qosimboyeva. 2012-yil. Toshkent.

Urgut va uning atrofidagi qishloqlar kashtachilikning yirik markazlariga aylandi. Bu kashtalar uslubida XIX asr oxiri Samarqand kashtachiligi an'analari davom etmoqda. Chust, Marg'ilon, Andijon, Shahrisabz, Kitob, Boysun kabi Kashtachilikning yirik markazlarida ham faoliyat ko'rsatilmoqda. Qadimiy chevarlar avlodi, "Tashabbus" respublika tanlovi g'olibi, usta chevar Zuhra Oblaberdieva (Buxoro viloyati), shuningdek, bugungi kunda 300 dan ortiq shofirkonlik chevarni ish bilan ta'minlagan Farhod Ramazanov (ip bo'yoqchisi) va Muhabbat Qo'chqorovalardan (chizmakash) iborat oilaviy tadbirkorlar tajribasi ibratlidir. Nurota va Shahrisabz kashtalaridagi an'anaviy mavzulardan foydalanib, murakkab "ilma" usulida kashta tikayotgan toshkentlik chevar Madina Qosimboevaning ijodiy tajribasi ham o'rganishga arziydi.

Hukumatimiz va qator xalqaro tashkilotlarning xalq badiiy hunarmandchiligini rivojlantirish sohasida olib borayotgan ishlari O'zbekiston an'anaviy badiiy hunarmandchiligi sohalari qayta tiklanishi va ravnaq topishiga ishonch uyg'otadi.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar:

1. Mustaqillik davrida milliy an'anaviy qadriyatlarga qanday munosabat bo'lgan?
2. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng amaliy san'at sohasida qanday islohotlar bo'ldi?
3. "Ustoz- shogird" tizimining qayta tiklanishining sabablari nimada?
4. O'zbekiston hukumati va xalqaro tashkilotlarning amaliy san'at sohasini rivojlantirishda qanday o'rin tutgan?
5. An'anaviy hunarmandchilikning qanday turlari mavjud?

10-MAVZU. O'ZBEK AN'ANAVIY KULOLCHILIGI

Reja:

1. O'zbek an'anaviy kulolchiligi tarixiy bosqichlari.
2. O'zbekiston hududidagi kulolchilik turlari va maktablari.
3. O'zbek an'anaviy kulolchiligining badiiy va texnologik xususyatlari.

Kulolchilik – O'zbekiston badiiy hunarmandchiligining eng qadimiy turlaridan biridir. U bajarish texnikasiga ko'ra, sirlanmagan va sirlangan kulollikka bo'linadi. O'troq va ko'chmanchi xalqlarning milloddan avvalgi 2 ming yillik oxiri – 1 ming yillik boshiga mansub ikkita kulolchilik turi – bo'yalgan va kulrang sopol buyumlari aniqlangan. Milodiy I-IV asrga tegishli zoomorf shaklidagi ushlagichlar bilan bezatilgan idishlar qadimgi Kaunchi shahri kulolchiligiga xos. VIII asr oxiri - IX asr boshida Movarounnahr hududida sirlangan kulolchilik buyumlari paydo bo'ladi va keng tarqaladi. Bu davrga kelib, ushbu xududda kulolchilik san'atining etakchi markazlari shakllanadi. Shunday asosiy markazlardan biri Afrosiyob bo'lgan.(qadimgi Samarqand)dan tashqari, Choch, Farg'ona, Buxoro kabi markazlarda ham sirlangan kulolchilik buyumlari ishlab chiqarilgan. Buyumlar o'simliksimon, geometrik va arab yozuvlari bilan bezatilgan. XIV-XVasrda Movarounnahrda ham Xitoy chinnisiga taqlid qilib yasalgan oq-moviy kulolchilik buyumlari paydo bo'ladi.

XIX asrga kelib, hozirgi O'zbekiston hududida quyidagi kulolchilik maktablari va markazlari shakllangan:

a) Samarqand-Buxoro maktabi (markazlari – Toshkent, Samarqand, Urgut, G'ijduvon, SHahrisabz);

b) Farg'ona maktabi (markazlari – Rishton, G'urumsaroy);

v) Xorazm maktabi (markazlari – Xiva, Madir, Kattabog').

Badiiy sirkori keramika (kulolchilik san'ati) O'zbekiston amaliy san'atining eng qadimgi va g'oyat qiziqarli turlaridan biridir. U mintaqamizda VIII asr oxirida paydo bo'lgan. IX-XVI asrlarda bu erda kulolchilik san'ati yuksak darajada rivojlangani bois ustalar yasagan sopol buyumlar O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlariga eksport qilingan. XIX asrda hozirgi O'zbekiston hududida O'rta

Osiyo kulolchilik san'atining tarixiy an'analariga ega asosiy maktab va markazlar yuzaga keldi. Bular:

a) Toshkent, Samarqand, Urgut, Buxoro, G'ijduvon, Shaharisabz, Kitob, Kattaqo'rg'on va Denovda markazlari bo'lgan markaziy yoki Samarqand-Buxoro maktabi;

b) Rishton va G'urumsaroyda markazlari bo'lgan shimoli-sharqiy yoki Farg'ona maktabi; Urganch, Xiva shaharlari, Modir va Kattaboq qishloqlarida markazlari bo'lgan janubi-G'arbiy yoki Xorazm maktabi.

Ustalar, asosan, oshxonabop va ro'zg'orbop idish-tovoqlar yasashgan. O'zbek ustalarining idish-tovoqlari ko'rinishiga ko'ra: kosasimon shaklga (kosa) va ko'zasimon shaklga (ko'za) bo'lingan. Bunday farq ustalarning ixtisoslashuvi bilan izohlanadi. Kulol-kosagar kosa, shokosa, piyola, lagan, tovoq, tog'ora, bodiya kabi idish-tovoq ishlab chiqargan; ko'zagar esa turli shakldagi, xajmi har xil ko'zalar va xumchalar yasagan. Idishlar kulol charxida aylantirilib, shaklga solingan. Shuningdek ba'zan, qolipda quyilgan yoki qo'lda yasalgan. Idishlarning shakllari o'ta oddiyligi va foydalanish uchun qulayligi bilan ajralib turgan. Ularning mutanosibligi va nafisligi zaminida ko'plab avlodlarning didi, mahorati yotadi. Mo'yqalamda naqsh solish (qalami) sirkor buyumlarni bezashning eng kam tarqalgan usuli bo'lib, ustalar buyumlarni shunchaki bo'yashmagan. Ular angob bo'yicha (chizmadan) o'yib chizishni ham mahorat ila egallaganlar. Yuqori sifatli oshqovoq po'stlog'iga mahorat bilan bo'yoq va sir berilgan idish-tovoq ajoyib badiiy xususiyatlari bilan ajralib turadi: uning kompozitsiya(tasvir)sidagi naqshu- nigorlar aniq va ma'nodor, ranglar yorqin va ravon, naqsh va gullari rang-barangdir. XIX asr oxiri – XX asr boshida Rishton kulolchiligi o'zining yuqori texnologik va badiiy sifatlar bo'yicha shaksiz etakchi o'rinni egallagan. Rishton ustalari o'zlarining lirizmga yo'g'rilgan naqshu-nigor uslubini ishlab chiqqan edilar. Usta Abdulloning asarlari shu uslubning diqqatga sazovor fazilatlarini ochib beradi.

Lagan. XX asr boshi. G'ijdivon.

Boshqa kulolchilik markazlari, ya'ni, G'ijduvon, Kattaqo'rg'on, Madir, Shahrisabz va Toshkentning ham buyumlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. XIX asr oxiriga kelib, kulollar san'atida uslubiy o'zgarishlar ko'zga tashlana boshladi. Naqsh – gul san'atiga muayyan narsalar: choyidish, ko'za, cholg'u asboblaridan tortib, miltiq va pichoqlarning tasvirlari olib kirilgan. Shu davr G'ijduvon kulolchiligi naqsh-gulida hayvonotga oid alomatlarning mo'lligi o'ziga xos xususiyat sifatida namoyon bo'ladi. Ayni chog'da bu davr kulolchiligida ko'plab mavzular haddan tashqari handasaviylashtirilgan. Ularning nomlarigina hayvonotga oidligini bildirgan. XIX asr oxiri va XX asr boshida Samarqandda sopol buyumlarni sirlash uchun qo'rg'oshin siri bilan bir qatorda, tuproqdan ajratib olingan ishqorli sir qo'llanilgan. Uning zamini (tagi)dan ko'k yoki yashil bo'yoq bilan naqshu-nigor berilgan. Zangori moviy rangda naqshlangan ushbu buyumlar Rishton namunalariga bir oz o'xshaydi. Shahrisabz ustalarining buyumlari o'zining yorqin, iliq va erkin rang tasvirli suvratlari bilan ajralib turadi. Toshkent kulollarining ko'pgina mahsuloti badiiy sifati ancha past. XIX asr oxiriga kelib, Toshkentda sopol mahsulotlari ishlab chiqarish keskin kamaygan. Ularning miqdori emas, sifati ham kamaygan. Chunki ular Rossiyaning markaziy mintaqalaridan olib kelingan fabrika buyumlari bilan raqobatga dosh berolmagan. XIX asr oxiri va XX asr boshida Xorazm kulollari idish – tovoq va me'moriy bezak bo'laklarini yaratish bilan shug'ullanishgan. Xorazm kulolchiligi bezagida naqshu- nigorlarning "arabiy xat"i mumtoz naqsh-gullari va islimiy naqsh-gulining boyligi saqlanib qolgan. Xiva kulolchiligi gullari mazmuniga Rossiyadan keltirilgan

chinni, fayans mato buyumlaridagi rasm-naqshlar ta'sir ko'rsatgan. Xorazmda topilgan bodiya bunga misol bo'la oladi. Unda rubob, tuncha, miltiqlar tasvirlangan. Kulolchilikda muayyan narsa-buyumlarni tasvirlash kuchaygan. Fabrika bo'yoqlari hisobiga ranglar xilma-xilligi ortgan. Feruza rangining ommaviy ko'kish ranglari bilan bir qatorda, yaltiroq qo'rg'oshin rangda tasvirlangan yorqin va rang-barang naqshu- nigor keng yoyilgan. Idish-tovoqlar XIX – XX asr boshida, asosan, olib sotarlar tomonidan olib kelingan. Ustalar ham o'z mahsulotlarini bozorda sotish bilan shug'ullanganlar. Shogirdlar ham ham ustoz ruxsati bilan щzlari yasagan buyumni bozorga olib chiqishgan. XX asr 20- yillari oxirida ko'plab kulolchilik markazlarida shirkatlar, kurs, maktablar tashkil etilgan. Bu davrda kulollar an'anaviy lagan, tovoq, bodiya kosa, ko'zalar yasashgan. Ularni mo'yqalamda naqshu- nigorlar bilan bezashgan, o'yib naqsh bitishgan, qolipda gul yasab yopishtirishgan. Kulolchilikning mashhur markazlari o'zining mahalliy o'ziga xos badiiy o'zgarishlarini saqlab qolgan. 1960-yillar oxiridan O'zbekiston an'anaviy kulolchiligida umumiy tashvishli holat kuzatiladi: an'anaviy kulolchilikda qator noyob markazlari tugab bitdi. An'anaviy kulolchilik ishlarining keskin yomonlashuvi sabablari ko'proq ijtimoiy-iqtisodiy ahvol bilan bog'liq edi. Ya'ni xalq kulollari mahsulotiga etarlicha talab yo'q edi, kulollarning mavqei tushib ketgandi. Mahalliy hokimiyat xalq ustalari taqdiriga befarq qaragan. 1980- yillar ikkinchi yarmi va 1990- yillar boshida O'zbekiston an'anaviy kulolchiligidagi eng nohush holat kuzatiladi. Umumiy iqtisodiy qiyinchilik xuddi shu davrda yuz bergan edi. 1993- yildan O'zbekistonda ijtimoiy, iqtisodiy vaziyat barqarorlasha boshlagach, ahvol birmuncha mo''tadillashdi. Rishton ustalari o'z buyumlarining asosiy an'anaviy shakllarini tikladilar va hozirgi paytda sopol idishning ikki xilini yasamoqdalar.

Lagan. Usta Abdulla. XX asr boshi. Rishton.

Yassi idishlar yasaydigan ustalar "kosagar" deb atalgan. Ular yassi va uncha baland bo'lmagan shakldagi buyumlar yasashgan. Cho'ziq, baland idishlar (ko'za, xum) yasaydigan ustalar esa "ko'zagar" deb atalgan. Hozirgi paytda bunday tasnif o'z ma'nosini yo'qotgan. Chunki ba'zi ustalar har ikkala turdagi buyumlarni bemalol yasaydilar. Ayni paytda ko'plab ustalar, ayniqsa, o'rta va yosh avlod vakillari ko'proq yassi buyum – lagan yasash va bezash bilan shug'ullanishmoqda. Rishtonda ishqorli sir tayyorlash yo'sini qayta tiklangan va ustalar undan o'z idishlarini bo'yashda foydalanmoqdalar. Rishtonda tayyorlangan buyumlarning bezak mazmuni Rishton kulolchiligiga xos badiiy xususiyatlarni belgilaydi. Rishton kulolchiligi naqsh-gul turlariga xos juda boydir. Unda O'zbekistonda foydalanilayotgan kulolchilik buyumlarining barcha naqsh-gul turlari: handasaviy va islimiy naqshlar, ramziy belgilar, buyum tasvirlari, hayvonlar va odam tasviri mavjud. Farg'ona kulolchiligidagi markaz G'urumsaroydir. Bu erda 1970-80- yillarda uch usta – M.Rahimov, M.Turopov va S.Hakimov ishlagan. Hozirda G'urumsaroy kulolchiligi an'analarini, ularning shogirdlari davom ettirmoqdalar. G'urumsaroy sopol buyumlari naqsh-guli uncha katta bo'lmagan uslublar doirasidan iborat bo'lib, ular: ko'za, choryaproq, xochsimon yirik gul, yulduzsimon shakllardir. Buyumlar shakllari plastikasi ham u qadar rang-barang emas. Ammo o'ziga xos. Buyumlar katta laganlar (diametri 0,5 m), o'rtacha laganlar, ro'zg'orbop yassi idish – tovoqlar va qo'shquloq idishlardan iborat.

Lagan.XX asr boshi. Rishton.

Xorazm kulolchiligining asosiy markazlari – Xonqa tuman markazi yaqinidagi Modir qishlog'i, Yangiariq tumani markazi yaqinidagi Kattabog' qishlog'idir. Xorazm kulolchiligi buyumlari

ham shakllari ham bezaklarga ko'ra betakror xususiyatlarga ega. Chetlari tik qayrilgan yirik barkash – bodiya bu hududda eng keng tarqalgan va deyarli yagona idish turlaridan biridir. Odatdagidek, Xorazmda ham, bodiyaning ichki sirti handasaviy naqshlar bilan bezatiladi va bu shakllar o'zaro tutashib, aylanadi. Buxoro – Samarqand maktabi kulolchiligining asosiy xususiyati texnologik omil – qo'rg'oshin-lojuvard va yashil-sariq hamda jigarrang bo'yoqlardan foydalanish bilan bog'liq. Bu ko'p hollarda buyumlarning ramziy jarang kasb etishini belgilaydi. 1990- yillarda bu maktab buyumlarida o'z shakl jihatidan oldingi o'n yilliklardagi an'analar rivojlangani seziladi. Bu an'analar G'ijduvondagi kulollar sulolasi vakillari: aka-uka Alisher va Abdulla Narzullaev yasagan buyumlarda yaqqol ko'rinadi. Buxoro – Samarqand maktabining turli markazlarida gul tushirish yo'sini o'ziga xos xususiyatga ega. Masalan, G'ijduvon va Shahrisabz ustalari, asosan, mo'yqalamda naqshu-nigor chizadilar. Urgut va Denov ustalari esa ko'pincha o'yma gullardan foydalanadilar. Umuman o'tgan asrdagi an'anaviy kulolchiligida ishlab chiqarish markazlari, ustalar miqdori kamayib ketishi, ishlab chiqarilgan buyumlar turi va ular texnik sifati pasayishi kuzatiladi. loydan yasalgan va bo'yalgan o'yinchoqlarni ham sirlanmagan sopol buyumlar sirasiga kiritish mumkin.

Xum. Usta Turg'un Shermatov. 1997-yil. G'urumsaroy. Namangan viloyati.

Biroq 2012 yil bahorida Uba qishlog'i (Buxoro viloyati)ga qilgan ekspeditsiyamiz pirovardida shu ayon bo'ldiki, Hamrobibi

Rahimovaning o'g'li Jabbor Rahimov biror shogird tayyorlab qoldirmaganligi bois loydan o'yinchoq-hushtak yasashning qadimiy an'anasi bu erda barham topgan. Ubaning yagona o'yinchoqsozi Kubaro Boboeva qoliplar yordamida gipsdan yirik haykalli shakllar tayyorlashga o'tgani hunarmandchilik bu turining qadr-qimmati tushib ketishi va aynishga olib keldi. Ambar opa Sattorova yasab kelgan g'ildirakli qush va hayvonlar ko'rinishidagi Kasbining mashhur o'yinchoqlari birmuncha avvalroq barham topgan edi. Hozirgi paytda esa bu ko'rinishdagi o'yinchoqlarni G'ijduvonda Narzullaevlar va Samarqandda Muxtorovlar sulolasi vakillari yasashmoqda. 1960-yillarda Samarqand terrakota maktabiga asos solgan mashhur usta Abdurahim Muxtorovdan saboq olgan kelini Dilorom Muxtorova ushbu maktab an'analarini davom ettirmoqda. A.Muxtorovning o'g'illari Zarif va Islom 1980 – 1990-yillarda ertaklardagi ajdarholar va folklor obrazlari ustida faol ish olib bordilar. Biroq ular ko'p ishlashmadi. Hozir faqat Dilorom Muxtorova folklor mavzusida terrakotadan kompozitsiyalar yasamoqda. U loydan hayvonlar va xalq ertaklari qahramonlarining turli kompozitsiyadagi 100 dan ortiq ko'rinishini yasagan.

Rishtonlik usta Sh.Yusupovning o'g'li Firdavs Yusupov 2012 yildan terrakotali o'yinchoqlarni bo'yoqsiz yasashni boshladi. Uning uzunligi 10 sm – 15 sm gacha bo'lgan ertak qahramonlari XX asr oxirida o'ratepalik usta G'ofur Halilov yasagan hajmi 20 sm – 40 sm.gacha bo'lgan, ustki qismi oq-qizil-ko'k ohakli bo'yoq bilan qoplangan yirik hajmdagi fantastik obrazlarni eslatadi. Biroq ildizi boshqa markazlarga aloqador ushbu Rishton o'yinchoqlari yaratilish tajribasi mohiyatan mualliflik yondashishini namoyon etadi.

Murakkab tarixiy yo'lni bosib o'tgan G'ijduvon, Urgut, Rishton, Andijon, Denov, Xiva va Toshkent sopol buyumlarida saqlanib qolgan sirlangan kulolchilik o'zining badiiy echimi jihatidan jiddiy qiziqish uyg'otadi. Sirlangan kulolch ilik buyumlarida an'anaviylik va yangilanish o'zaro uyg'unlashgan. Davrning ijtimoiy o'zgarishlari o'zbek kulolchiligiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. XX asr o'rtalaridan an'anaviy badiiy hunarmandchilik buyumlari nafaqat ro'zg'or uchun kerakli jihoz, balki sovg'abop buyum sifatida ham qadrlana boshladi va bu yangi yuz yillikda ham davom etdi. Buyumlarning ko'pgina an'anaviy shakllari yo'qolib ketdi.

Faqatgina laganlarda turli naqsh namunalari saqlanib qoldi va ular o'zining ro'zg'orbop xususiyatini yo'qotmadi. Shuningdek, laganlarda yangi naqsh turlari sinalib kelinmoqda. XIX asrda O'zbekiston sirlangan kulolchiligining asosiy maktablari shakllandi. Mamlakatimizda sopol buyumlarga badiiy bezak berish uslubi, shakli-shamoyili va texnologik xususiyatlariga ko'ra uchta kulolchilik maktabi mavjud: shimoli-sharqiy – Farg'ona maktabi, markaziy – Buxoro-Samarqand maktabi, janubi-g'arbiy – Xorazm maktabi. Farg'ona va Xorazm maktablari kulolchiligi moviy-havo rangda bo'lib, asosan, ishqorli sir bilan qoplanadi. Buxoro-Samarqand maktabi buyumlari sarg'ish-jigarrang bo'lib, bu erda ko'proq qo'rg'oshinli sir qo'llaniladi. XX asr o'rtalarida ham Samarqand, Shahrisabz, Kattaqo'rg'on, Rishton, Qo'qon, Jizzax, Xiva, Urganch bozorlarida rango-rang sirlangan sopol buyumlar yoki bo'yalgan hushtak-o'yinchoqlarni xarid qilish mumkin edi.

1960-yillar boshiga kelib, bir qancha ajoyib markazlar yo'qoliba boshladi. Bunga sabab, asosan, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar edi, albatta. Samarqand, Kattaqo'rg'on, Shaharisabz, Kitob, Denov, Toshkent kulolchiligi an'analari ko'p jihatdan talofot ko'rgan bo'lsa, ba'zi markazlari butkul yo'qoldi. Ular haqida faqat muzeylarda saqlanib qolgan namunalar guvohlik beradi. 1960 – 1980- yillarda nafaqat xalq kulol-ustalari buyumlarining oldi-sotdisi, balki bu kasb bilan shug'ullanadigan ustalar soni ham keskin kamayib ketdi. Ko'pchilik mashhur ustalar hayotdan ko'z yumishgan bo'lsa, boshqalari o'zlariga shogird topolmay yoki moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlanmaganligi tufayli befoyda bo'lib qolgan kulollik hunari bilan shug'ullanmay qo'yishgan . Xalq ustalari yasagan sopol buyumlari chinni, metall va plassmassa singari sanoat buyumlari bilan raqobatlasholmagan. Mustaqillikdan keyingi davrda sirlangan sopolsozlik yo'nalishida ham ijobiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Hukumat qaroriga binoan xalq ustasining mavqei mustahkamlandi. Bir qator kulollar O'zbekiston Badiiy Akademiyasining oliy unvonlari bilan taqdirlandilar. Ular orasida Toshkentdan Akbar Rahimov, Rishtondan Sharofiddin Yusupov, G'ijduvondan Alisher Narzullaev, Samarqanddan Sharif Azimov bor. Shunday bo'lsa-da, turli sabablarga ko'ra, an'anaviy sirlangan kulolchilikning o'tmishdagi mashhur markazlari saqlanib qolmagan. Shaharisabz

kulolchiligi an'analarini tiklashning uddasidan chiqilmadi. Shahrisabzlik kulollar sulolasining ettinchi vakili Rustam Muzaffarov hunarning bu turini yaxshilab o'rgandi. Biroq uning sopol buyumlari sifati mazkur maktab an'anaviy buyumlari sifatidan ancha past.

Umar Jo'raqulov vafot etgach, Samarqand sirlangan kulolchiligi barham topdi. Hozirda tashkil etilgan Samarqand terrakotali o'yinchoq maktabi mahsulotlari butunlay boshqacha. U, asosan, folklor manbalarga asoslanadi va unda shaxsiy-mualliflik san'ati kuchli. Denov kulolchiligi yanada ayanchli ahvolda. U erda usta Zuhur Rasulov ishlab kelmoqda. Biroq u ham keksayib qolgan. Uning shogirdlari, hunarini davom ettiruvchilar yo'q. O'zbekistondagi YUNESKO vakolatxonasi bu yo'nalishda ko'pgina amaliy ishlarni bajargan. Jumladan, uning ko'magida Surxondaryoda mahalliy usta I. Eshonqulov ustaxonasi qayta tiklangan va sopol buyumlar pishiriladigan pechi ishga tushirilgan bo'lsa-da, Boysun an'anaviy sirlangan kulolchiligi o'zining avvalgi darajasiga erisha olmadi. O'yinchoq-hushtak "Ot". Usta H.Rahimova. 1968-yil. Uba qishlog'i.

Rishton kulolchiligi an'analarini davom ettiruvchilar keyingi yillarda birmuncha ko'paydi. Biroq buyumlarning texnologik va naqshli kompozitsiyalari badiiy qiymati jihatidan unchalik yuqori darajada emas. Hozirgi paytda, Sharafiddin Yusupov va Baxtiyor Nazarov Rishton kulolchiligining yuksak an'analarini davom ettirib, samarali mehnat qilishmoqda. G'urumsaroy kulolchiligi an'analarini esa mashhur usta Ma'sud Turopovning shogirdi Vahobjon Buvaev izchillik bilan rivojlantirib kelmoqda. G'ijduvon va Urgutda ustalar sulolasi bir maromda ishlab kelishmoqda. G'ijduvonlik mashhur kulol Ibodulla Narzullaev an'analarini uning o'g'illari Alisher va Abdulla Narzullaev davom ettirmoqda. Urgutda kulolchilik san'atini Mahkam Obloqulovning o'g'li No''mon Obloqulov rivojlantirmoqda. Xivada mahalliy kulolchilik an'analarini xivalik mashhur usta Odilbek Matchonovning farzandlari Modir qishlog'ida va qo'shni qishloq Kattabog'da yashovchi kulol Bahodir Otajonov davom ettirishmoqda. Yuqorida nomlari keltirilgan ustalar va kulolchilik markazlari zamonaviy kulolchilikning mahalliy maktablari xususiyatlarini saqlab qolgan. Shuningdek, ularning

buyumlari o'zida shu markazlarga xos texnologiya va naqshinkorlikni namoyon etadi.

Toshkent zamonaviy sirlangan kulolchiligining asoschisi Muhiddin Rahimov an'analarini ustaning o'g'illari Akbar va Alisher Rahimov yangicha yo'nalishda davom ettirishmoqda. 1960-yillar boshida Kushonlarning antik kulolchiligi (I-II asrlar) hamda Afrosiyobning sirlangan kulolchiligi (IX-XI asrlar)ni ta'mirlash ishlari bilan shug'ullangan Muhiddin Rahimov qadimiy namunalarni qayta ta'mirlash asosida yangicha ko'rgazmali eksponatlar yaratdi. Bu an'ana uning keyingi ijodiy ishlarida ham davom etdi. Shuningdek, usta temuriylar kulolchiligi namunalari ustida ham ish olib borgan va ularni yangicha talqin etishga ham erishgan. Keyinchalik bu yo'nalish uning o'g'li Akbar va Alisher ijodida davom ettirildi va boyitildi. Ular qadimiy an'anaviy texnologiya bilan zamonaviy naqshu-nigorlarni uyg'unlashtirishga erishdilar. Buxorolik yosh kulol Abduvohid Karimov ham shunday ruhda ish olib borib, Afrosiyob va asl Buxoro ko'k-havo rang kulolchiligi an'analarini qayta tiklab, ularni mualliflik buyumlari sifatida taqdim etmoqda. Bu ustalar an'anaviy texnologiyani saqlagan holda, turli tarixiy davrlar naqsh mavzulariga birmuncha erkin tarzda yondashib, buyumlarga badiiy bezak berishda mualliflik kashfiyotlari qilishmoqda. Shunisi e'tiborliki, ularning barchasi "kulolchilik" mutaxassisligi bo'yicha oliy ma'lumotga ega mohir rassomlardir. "To'yga"- dekorativ kompozitsiya. Usta A.Muxtarov. 1978-yil. Samarqand

Umuman, O'zbekiston sirlangan kulolchiligi o'zida asl xususiyatlarni saqlab qolishi va unda yangicha talqinlarning paydo bo'lishi jihatidan an'anaviy qo'l kashtachiligiga o'xshash holatni namoyon etadi. Sirlangan kulolchilik ham ikkita yo'nalish mavjud. Birinchisi, an'anaviy sirlangan kulolchilik bo'lib, bunga Rishton, Andijon, G'urumsaroy, Urgut, G'ijduvon va Xiva ustalari buyumlarini kiritish mumkin. Ushbu markazlar ustalari ijodida an'anaviy usullar va shakllar saqlanib qolgan. YAngilanish esa, asosan, buyumlar shakli va ba'zi naqsh unsurlari o'zgarishi bilan bog'liqdir. Rishton ustalari – Rustam Usmonov, Firdavs Yusupov, Alisher va Baxtiyor Nazirov ijodida naqsh mavzulariga birmuncha erkin yondashish aniq ko'rinadi, deyish mumkin. Ikkinchidan, usta-

kulollarning shaxsiy-ijodiy tashabbusi ancha aniq namoyon bo'lgan bu buyumlarda foydalanilgan usul va naqshli bezaklar muayyan mahalliy an'analarga bog'liq bo'lmagan tarzda kengaytirilgan. Mazkur yo'nalish yuqorida nomlari tilga olingan rassom-kulollar toshkentlik Akbar va Alisher Rahimovlar va buxorolik Abduvohid Karimov ijodida kuzatiladi.

O'zbek kulolchiligining bozor iqtisodi sharoitiga moslashuvi jarayonida salbiy hodisalar ham kuzatilmoqda. Bozor sharoitida o'z mahsulotlarini o'tkazishga urinish tufayli ko'pgina ustalar sayyohlarga ma'qul keladigan buyumlar ishlab chiqarib, qadimiy an'analar va uslubning o'ziga xosligiga putur etkazdilar. Shogirdlar tayyorlash bilan bog'liq muammolar ham talaygina. Qadimdan davom etib kelayotgan "ustoz-shogird" tizimi endilikda jonlashib qoldi. Agar avval ustozlar shogirdlarini imtihonlarda sinab, ularga diplom o'rnida o'tadigan "oq fotiha"larini berguncha ularning bilimi, malakasini ma'lum bir darajaga etkazishgan bo'lsa, hozirda bunday amaliyot ishlari, ming afsuski, kuzatilmaydi. Yosh ustalar uzoq vaqt ta'lim olish imkoniga ega bo'lmaganliklari bois 2 – 3 oylik o'quv mashg'ulotlarini tugatiboq, bozorda o'zlarining badiiy jihatdan juda sifatsiz mahsulotlarini sotishga oshiqadilar. Bozordagi savdo-sotiq ishlari yuqori malakali usta-kulollar tayyorlashning an'anaviy tizimini buzmoqda. Bu esa avval mashhur bo'lgan kulolchilik markazlari mavqeining yanada tushib ketishiga olib kelmoqda. Yuqori sifatli sopol buyumlar muallifi yaratgan etakchi ustalar o'z mahsulotlarini yuqori narxda sotishga urinishayotgan bir vaqtda shogirdlar arzon garovga mahsulot sotishmoqda. Ular badiiy buyumlar salonlarini, Buxoro, Samarqand, Toshkent sayyohlik markazlari bozorlarini o'zlari ishlab chiqargan sifatsiz mahsulotlar bilan to'ldirib tashlashgan. Yosh kulollar bozor va buyurtmachi didiga mo'ljallab mahsulot ishlab chiqarishni jadallashtiradilar. Bu bilan mahsulot sifatini tushirib yuboradilar. Albatta yosh kulollar orasida ham azaliy an'analarni tushunib etib, uni qaysidir jihatdan saqlab qolishga urinayotganlar bor. Mustaqillik davrida an'anaviy kulolchilikning tiklash jarayoni kuchaydi. Ustalarga buyumlarni sotishi uchun barcha iqtisodiy imtiyozlar yaratilib berilmoqda.

Hozirgi payt milliy kulolchilikni rivojlantirish, uning o'ziga xos tabiatini, undagi azaliy naqshinkorlikni va O'zbekiston

kulolchiligining badiiy-qiyofasi tuzilishini saqlab qolish dolzarb muammo bo'lib bormoqda. Ijodiy va tashkiliy xususiyatga ega muammolarga qaramasdan, mustaqillik davrida yuz bergan ijobiy natijalar kishini quvontiradi. Xalq usta-kulollarining ijtimoiy mavqei oshdi. O'zbekistonda va qo'shni mamlakatlarda kulolchilik an'analariga qiziqish sezilarli darajada o'sdi. Ko'pgina ustalar o'z mahoratlarini yanada oshirish va mustahkamlash uchun xorijiy mamlakatlarga ijodiy safarlarga jo'natildi. Ular, shuningdek, chet ellarda shaxsiy ko'rgazmalarini o'tkazishga muvaffaq bo'lishdi.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar:

1. Qadimgi va antik davr kulolchilik buyumlarining qanday turilari mavjud?
2. Movarounnahr hududida sirli kulolchilik buyumlarining paydo bo'lishi va uning ahamiyati nimalardan iborat?
3. Mug'ullar davrigacha (IX-XIII asr boshi) asosiy kulolchilik markazlar qaerda joylashgan?
4. O'zbekistonning qanday asosiy kulolchilik maktab va markazlari mavjud?
5. Mustaqillik davrdagi kulolchilikning qanday asosiy muammolari bor?

11-MAVZU. O'ZBEK AN'ANAVIY KANDAKORLIGI

Reja:

1. O'zbek an'anaviy kandakorligi shakllanishi.
2. O'zbekiston hududidagi kandakorlik turlari va maktablari.
3. O'zbek an'anaviy kandakorligining badiiy va texnologik xususiyatlari.

Islomgacha bo'lgan davr kandakorlik buyumlari namunalari O'zbekiston muzeylarida juda kam saqlanmoqda. Mavjud buyumlar bezagida mahalliy an'analar bilan bir qatorda, hind-budda, ellin va eron san'ati ta'siri ko'rinadi. IX-XIII asr boshi Movarounnahrda bronzadan ishlangan buyumlar (patnis, idish, ko'za, siyohdon, shamdonlar) keng tarqalgan va ularning bezagida islom san'atiga xos yangi estetik naqshlar ifoda etilgan. Temuriylar davriga oid kandakorlik buyumlarining namunalari ham bizgacha juda kam etib kelgan. Ularning bezaklari avvalgi davr uslublari va naqshlari bilan bog'liq. Bu davrda mahalliy kandakorlikda inkrustatsiya (qadama) uslubi ishlatila boshlagan. XIX asrga kelib, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Samarqand, Shahrisabzda kandakorlikning asosiy maktab va markazlari shakllangan. Buyumlarning asosiy turlari: patnis, dastshuya, choyidish, qumg'on, oftoba. XX asr oxiriga kelib, extiyoj bo'lmaganligi sababli, kandakorlik deyarli barham topdi. Mustaqillik davrida Buxoro, Toshkent va Qo'qon kandakorligi qayta tiklanganligini kuzatish mumkin.

O'zbekiston amaliy san'atida ma'danga ishlov berish yosh bo'yicha faqat badiiy kulolchilikdan keyin turadigan eng qadimgi turlardan biridir. Eng keng tarqalgani esa mis kandakorligidir. Mis kandakorligi turli davrlarga noyob namunalari etib kelgani bo'yicha ham, uslublari mavzusi mo'lligi bo'yicha ham hunarmandchilikning boshqa turlaridan ustun turadi. O'zbekiston mis kandakorligining asosiy jamlamasi O'zbekiston xalqlari milliy tarixi Davlat muzeyida, Toshkentdagi O'zbekiston Davlat San'at muzeyida, shuningdek, Sankt-Peterburgdagi Davlat ermitajida saqlanadi. XIX-XX asrlar O'zbekiston kandakorligining qiziqarli namunalari Toshkentdagi Amaliy san'at muzeyida, Samarqanddagi A.Ikromov nomidagi O'zbekiston xalqlari madaniyati tarixi muzeyida, Xiva, Buxoro,

Qo'qon, Farg'ona, Nukus, Qarshi va Termiz o'lkashunoslik muzeylarida saqlanmoqda. Ular O'zbekistondagi va xorijdagi qator xususiy jamlamalarda ham mavjud. Ko'p asrlar davomida kandakorlik o'ziga xos badiiy qonun-qoidalar ishlab chiqilib, uning texnik ijro usullari takomillashtirilgan.

Choydish. XX asr boshi. Qo'qon.

Muzeylar jamlamalarida XVIII asr oxiri va XX asr boshidagi O'zbekiston badiiy kandakorligi to'laroq tarzda namoyon etilgan. Ularni bezashda o'tmish asrlar kandakorligining an'analarining kuchli tasiri seziladi. Bu davrda Buxoro, Xiva, Qo'qon, Samarqand, Qarshi, Shahrisabz va Toshkent kandakorlik buyumlari ishlab chiqarishning asosiy markazlari bo'lgan. XVIII asr oxiri va XIX asr birinchi yarmi buyumlari kuchli mutanosibliklari, naqsh-gullarining nafisligi va ifodaliligi hamda idish shakllarining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshida Rossiyadan keltirilgan fabrika buyumlari ta'siri ostida iste'molchilar didi o'zgaradi, hajmdor buyumlarga talab ortadi. Ammo kandakorlik buyumlari o'sha paytda nafaqat o'zining bezak sifatlari, balki uy ichi

jihozlarining bir qismi sifatida ochiq tokchalarga terib qo'yilishi bilan ham qadrli bo'lgan. Ular, mahalliy aholi turmushida muhim rol o'ynagan. Aholining boy qatlamlarida bu buyumlar ijtimoiy mavqe va egasining badavlatligini namoyish etuvchi vosita bo'lib xizmat qilgan. XIX-XX asr boshidagi kandakorlik buyumlari shakl va xizmat turlari bo'yicha rang-barangdir. Ular orasida obdon bezatilib, choy va suv solishga mo'ljallangan, turli nomlar bilan atalgan, xilma-xil qiyofa va shaklda yasalgan, suv, sut, meva sharbati, qiyom, shirinlik va xo'l meva solishga mo'ljallangan rang-barang kosasimon idishlar, ayniqsa, ommalashib ketgan.

Oftoba. XXasr boshi. Shahrisbaz.

Ro'zg'orbop idishlar tarkibiga barkashlar, meva, sharbat solinadigan kosalar, choynaklar, chelaklar va ovqat suzish qurollari (cho'mich, kapgir va boshqa), tovalar, kosaxaltalar, guldonlar, ko'zalar, suvdonlar, chilopchinlar, turli maishiy buyumlar: mayda pul (tanga)lar solib qo'yiladigan qutichalar, tamakidonlar; yozuv buyumlari: qalamdonlar, shamdonlar va boshqalar kirgan. Shuningdek, marosim uchun anjomlar – ehson qutilari, chilimlar ham keng qo'llanilgan. Mis kandakorligi buyumlarini uch kasb ustalari yasaganlar. Misgarlar qolip yasab, qalami bilan uni oqartirganlar, degrezlar idishlarning qolip qismlarini quyganlar (dastalar, qopqoq qubbachalari), kandakorlar buyumga kandakori va o'ymakori gullar bitganlar. Barcha markazlarda taxminan bir xil kandakorlik, o'ymakorlik, nafis qirqmalar texnik usulidan foydalanilgan. Ular gul-naqshga ma'nodorlik bag'ishlash uchun tagzaminga puanson va to'r ishlovi bera boshlaganlar. Kandakori buyumlar gullarining mavzulari ancha rang-barang bo'lib,

O'zbekiston amaliy-bezak san'atining boshqa turlari bezagida ham uchraydi. Islimiy naqshning turlari ayniqsa ko'p. Odatda, tumor (medalon)lar, to'pgullar, handasaviy shakllar, xilma-xil hoshiya yo'llari shu gul bilan to'ldiriladi. Handasaviy naqshlar, odatda, yordamchi bezak sanaladi. Uslublashtirilgan ko'rinishda qo'llanuvchi jonzotlar tasviri kamdan-kam uchraydi. Bu asosan, jonzot tanasining muayan qismlaridangina iborat bo'ladi: chashmi bulbul (bulbul ko'zi), qo'chqorak (qo'chqor shoxi), pushta baliq (baliq tangachasi) va boshqalar. Idish qismlari – dastalarni bezashda aksar hollarda hayvon va parrandalarning tana qismlaridan birining hajmiy-plastik tasviri ishlatilgan – buni degrezlar bajarganlar. Buyumlarni bezashda, diniy mavzularga, shuningdek, xattotlik naqshu-nigorlariga katta ahamiyat berilgan. XIX asr oxiri va XX asr boshiga kelib, Farg'ona, keyinroq Buxoro va Samarqand kandakorligida me'moriy yodgorliklar tasvirlari, Qo'qon kandakorligida esa afsonaviy mavjudotlarning qiyofalari paydo bo'lgan.

Patnos. XIX asr boshi. Buxoro.

XIX asrda O'zbekiston badiiy kandakorligi mahalliy maktablari faoliyati to'la yo'lga qo'yiladi. Bu maktablarning o'ziga xosligi naqsh-gul tamoyillarida, gul mavzularining mazmunida, buyumlarning shakli va nimaga mo'ljallanganligida, shuningdek, u yoki bu texnik usullardan foydalanishda namoyon bo'ladi. Kandakorligining chuqurligi, gullarning xilma-xilligini aytmasa, ijro yo'sini, umuman, hamma joyda bir xil.

Ancha chuqur o'ymakorlik "kandakori", sayozroq o'ymakorlik "chizma" deb atalgan. Kandakorlikda o'ymakorlikdan tashqari, yana

qirqma kandakorlik – "shabaqa" qo'llangan. XIX asrda Buxoro va Xiva kandakorlarining buyumlari, ayniqsa, dovrug' qozongan. Ular shakllarining nafisligi, qismlarning o'zaro mutanosibligi va naqsh-gullari uslublarining barqarorligi bilan ajralib turadi. Ulardan chuqur kandakorlik usulida ijro etilgan Buxoro kandakorlik maktabini alohida ta'kidlash zarur. Buxoro XVIII asrda mintaqa kandakorligining eng yirik markaziga aylangan. Mashhur mahalliy kandakor usta Shodi Muhammad va usta Borotboyda tahsil olish maqsadida O'rta Osiyoning barcha joyidan yoshlar kelishgan. Buxoro kandakorlari yasagan buyumlar turlari xilma-xil bo'lishi barobarida, ular shakllarining oddiyligi va jiddiyligi bilan ajralib turgan. Buyumlarning nisbatan ochiq tagzamini chiziqlar bilan to'ldirib chiqilgan. XVIII asrda Buxoro ustalari qarshilik kandakorlardan tagzaminga rang berishni o'zlashtirib oldilar. Ammo boshqa maktablardan farqli o'laroq, ular bu hammabop usuldan me'yorida va yuksak did bilan foydalanishgan. Buxoro buyumlarining naqsh-guli nafis va aniq ancha yirik. Ular boshqa maktablar gullaridan nafisroq. XIX asr oxiri va XX asr boshida Buxoro kandakor ustalari buyumlarning alohida qismlarini bezar edilar. Masalan, idish qorni, bo'g'zi (bo'yni), dastasi, barkashlarning keng tagiga xattotlik yozuvlari bitganlar, goho ularga islimiy naqshlar bilan bezak berib uslublashtirganlar. O'sha paytda Buxoroda kandakori naqshlar bilan bezatilgan, turli vazifalarga mo'ljallangan ko'plab buyumlar tayyorlangan. Oftoba, choynak, guldon, suv solinadigan ko'zalar, chelaklar, kashkul, chil-kalid, chinniqop singari marosimiy buyumlar, ov paytida qo'llaniladigan nog'ora – dovul, pardoz buyumi – surmadon va boshqa buyumlar yasalgan.

Qumg'on. XX asr boshi Xiva.

Satil. XX asr boshi. Toshkent.

XIX asrda Xiva ustalari chuqur kandakorlik usulidan keng foydalanishgan. Ular yassi, o'ymakorlikka yaqin usulga esa, aksincha, kamroq murojaat qilishgan. Silliq, bezaksiz tagzamin – Xiva kandakorligiga xos xususiyat. Tagzaminga rang berish bu erda urf bo'lmagan. Xiva kandakorlari faqat qora va qizil lakdan foydalanishgan. Xiva ustalarining yaxshi ko'rgan naqsh-gullari "aylanma islimiy" bo'lib, u sertugun navda bo'lib, aylana-aylana bo'lib ko'tarilib ketaveradi va har aylanada besh-oltitadan gul yaprog'i bo'ladi. XIX – XX asr boshidagi Xiva buyumlarida aksar

hollarda "turunj" tumorlarining murakkab shaklli turlari, "sarv" ko'rinishidagi gul uchraydi. Xorazm hashamdor buyumlaridagi yana bir o'ziga xos jihat – buyumning o'z qiyofasiga egaligidir. Bu jihatdan qo'l yuvish idishi - "serobcha", diqqatga sazovor. Uning suv quyadigan qismi baland, ba'zilarida, hatto, taglik ham bor. Xiva mis "nos idish"i ham faqat shu erda uchraydi. Tung, tungcha, qumg'on deb ataluvchi suv soladigan idishlar ham antiqa. XIX asr oxiri va XX asr boshida ko'plab xorazmlik kandakorlar Buxoroda o'qishgan. Bu esa ikki badiiy maktabga xos uslublar bir biriga yaqinlashtirilgan. Buni Xorazm kandakorligi naqsh-gullarida ko'rish mumkin.

XIX – XX asr boshida tayyorlangan Qo'qon kandakorligi buyumlari shakl jihatidan ancha rang-barang. Ammo, Buxoro va Xivaning an'anaviy buyumlariga qiyoslaganda idishning ayrim qismlari nisbati bo'yicha uncha mukammal emas. Suvko'zaning bo'yi baland. Bu ko'za o'zining g'aroyib shakli bilan ajralib turadi. Masalan, oftobaning ba'zi nusxalari o'rdak ko'rinishida. Qo'qon shamdonlarining shakli mintaqa maktablaridagidan o'zgacha. Qo'qon kandakorlari uncha chuqur bo'lmagan, ammo juda aniq qirqish yo'sinini afzal bilishadi. XIX asrda qo'qonlik kandakorlar tagzamin va gullar sirtiga ishlov berishning: puanson, shtrix, to'rning bir necha xili, qiyofali o'ymalar va boshqa mashhur usullarini qo'llashgan. Buxoro ustalari kabi qo'qonliklar ham qarshilik kandakorlardan qo'shimcha bo'yoq berish yo'sinini o'zlashtirganlar. XIX asr oxiri va XX asr boshi Qo'qon torevtika maktabining mahalliy xususiyati rivojlanishida olti og'a-inidan iborat kandakor Otaullaevlar oilasi katta rol o'ynaydi. Sulola nasab boshisi usta Otaulla Muhammad Rajabov kandakor, muhrkor bo'lgan va qurollarga zeb berish bo'yicha saroy ustaxonasida ishlagan. Mis barkashlarda Xudoyorxon saroyini tasvirlash bo'yicha shuhrat qozongan.

Samarqand kandakorlik maktabida so'nggi asr an'analari ancha to'la saqlangan. XIX-XX asr boshida Samarqand misgarlari keng dumaloq tanali ko'zalar (yon tomonlari bir oz yassi); o'ziga xos shakldagi choydishlar va dastalar, ingichka va uzun sut idishi, suv oladigan sarxumi cho'michi, kosalar solib qo'yiladigan mis g'iloflar yasashgan. Samarqand ustalarining yirik va oddiy islimiy naqshlari

Buxoro, Xiva va Qo'qonning nafis va shartli naqsh-gullaridan keskin ajralib turadi.

Patnos, Xudayorxon saroyi tasviri. 1916-yil. Qo'qon.

Qarshi va Shahrisabz ustalarining kandakorlik buyumlari uslubi bir-biriga yaqin. Ayni vaqtda XIX asr oxiri va XX asr boshidagi Qarshi va Shahrisabz buyumlari o'zining shakli va bezagi jihatdan O'zbekistonning boshqa maktablari kandakorligidan jiddiy farq qiladi. Taqasi keng, bo'yni uzun va oddiy bolg'alangan dastali Qarshi oftobalarining shakllari antiqa.

Toshkent kandakorlik maktabi XIX asr o'rtalaridan rivojlangan. Bu erda katta shakldagi xo'jalik (ro'zg'orbop) buyumlari – turli suv idishlar, oziq-ovqat mahsulotlari saqlanadigan anjomlar, chelak, choyidish, qumg'onlar yasalgan. Toshkent naqsh gullari turli shakldagi oltiburchak, yarim doira tumorlardan, ko'plab elementli gullardan iborat.

O'zbekiston badiiy kandakorligi XX asr ikkinchi yarmiga kelib, butunlay yo'qolib ketishdan arang saqlanib qoldi. 1980 – 90-yillarda kandakorlik Buxoroda jadal rivojlandi. U erda o'nlab ustalar va shogirdlar ishlaydi, Marg'ilon, Xiva, Toshkentda kandakorlik qayta tiklandi. Hozirgi zamon ustalari yasagan buyumlar, asosan, ko'rgazmaga qo'yishga yoki sovg'a sifatida berishga mo'ljallangan. Bugun O'zbekistonda baland bo'yli choyidish, oftoba, obdasta, qumg'on, choynak, ko'za, tung, dastshuy, selobcha, sharbatkosa, miskosa va boshqa xilma-xil turdagi kandakorlik buyumlari ishlab chiqarilmoqda.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar:

1. Islom davrigacha bo'lgan kandakorlik buyumlarining badiiy jihatlari nimadan iborat?
2. Movarounnahrda bronzadan ishlangan buyumlarning qanday turlari va naqshlari mavjud?
3. Temuriylar davrida kandakorlik san'ati qanday bo'lgan?
4. XIX-XX asrlarda qaysi asosiy kandakorlik maktablari bo'lgan?
5. Kandakorlikning qanday buyumlari mavjud?

12-MAVZU. O'ZBEK AN'ANAVIY ZARGARLIGI

Reja:

1. O'zbek an'anaviy zargarligi shakllanishi tarixi.
2. O'zbekiston hududidagi zargarlik maktablari.
3. O'zbek an'anaviy zargarlik buyumlari tavsifi.

Qadimgi va antik davrlarga mansub oltindan ishlangan zargarlik buyumlari bir qator xazinalar tarkibida saqlangan (mil. avv. IV-II asr Amudaryo xazinasi va mil. I asr Dalvarzin xazinasi). Ushbu buyumlarning bezagida mahalliy an'analar bilan bir qatorda, yunon-ellin, qadimgi eron hamda ko'chmanchi skif san'ati ta'siri seziladi. Islom davriga mansub tilla va kumushdan ishlangan zargarlik buyumlari haqidagi ma'lumotni o'sha davr miniatyura asarlaridan bilib olish mumkin. XIX-XX asr boshida Buxoro, Xiva va Qo'qon shaharlarida ishlab chiqarilgan yarim tilla va kumush namunalari bizning davrgacha saqlanib qolgan.

Tilla qosh. XIX asr boshi. Toshkent.

Zargarlik san'atida o'zbek xalqi moddiy va ma'naviy hayotining ko'plab jihatlari, uning turmush-tarzi, rasm-rusumlari va badiiy tasavvurlari aks etgan. O'zbek zargarlari qilich qinlari va xanjar sopining jimjimador bezaklarini, ot abzallarini javohir toshlar qadab bezatishgan. Ular yasashgan oltin va kumush to'qali kamarlar juda nafis va ko'rkam. Zargarlar asosan, rang-barang ayol zargarlik taqinchoqlari yasashgan. O'rta Osiyo ayollari hayotidagi barcha

muhim voqealar va o'zgarishlar – yoshlik yillaridan tortib keksaygunicha zargarlik zeb-ziynatlari tusi va tanlovida aks etgan. Zeb-ziynatlar ikki xil bo'lgan: asosan to'y-hasham (yoki bayram) va kundalik (uy ichi)da taqiladigan. Ammo zargarlik buyumlari taqinchoqlar yasashda boshqa omillar – ijtimoiy, yoshning kattalashuvi kabi omillari ham e'tiborga olingan. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan qizaloqlarga ota-onalari, odatda, kumush sirg'alar va bilaguzuklar, arzon marjon munchoqlar tortiq qilganlar. Balog'atga etgan qizlar va yosh kelinlarning ziynat buyumlari rang-barang bo'lgan. Qadimgi taqinchoqlar ko'pincha onadan qizga o'tgan, aksar hollarda zeb-ziynatlarni zargarga buyurtma qilganlar, kuyov esa sovg'a sifatida ularni to'yning dastlabki kunlarida kelinga in'om qilgan. Zargarlik buyumlari bosh, chakka, quloq, soch, bo'yin, ko'krak, elka, bilag va barmoqlarni bezagan. To'y kunida va bayramlarda qizlar va yosh xotinlar taqinchoqlarni taqib, o'zlariga oro berishgan. Yirik taqinchoqlar, asosan, kumushdan yasalgan (goho ularga tilla suvi yuritilgan). Sirg'a, uzuk, bilaguzuklarni tilladan yasashgan. O'rta Osiyo zargarlari ma'danga ishlov berishning:– bolg'alash, quyish, qolip, qirqma, o'yma, kandakori, bosma, yopishtirma va jimjimador simto'r qadash singari barcha ma'lum an'anaviy usullaridan foydalanishgan. Donalar qadash, tilla suvi yugurtirish, kumushni qoraytirish, sir berish va javohirlar qadash yo'lidan mohirona foydalanish buyumlarga sezilarli tarzda jon kirgan.

Nozi-gardon. XIX asr oxiri. Buhoro.

O‘zbekiston zargarlik buyumlari bosh- manglay va manglay-chakka bezaklari (takya tuzi, tosh, jiqa, sanchoq, sarsuzan, bodom-oy, zulfitilla, bosh-tuzi, bibishak, mohi-tilla, ot tuyog‘i, duo tuzi, manglay-tuzi, tilla-qosh, qanot-osma, osma-tuzi, tilla-bargak, tanga-tuzi, tilla-tuzi, manot-tuzi, qush ini) ga; manglay-chakka bo‘yin bezaklari (silsila, to‘saukele va shokila)ga, chakka bezaklari (gajak, naycha, qush-duo, butun-tirnoq, yarim-tirnoq, chakkalik, chakka-tuzi)ga, ensa bezaklari (o‘q-yoy) ga; soch bezaklari (sochpopuk, tuf, tilla-bargak, tumor, savat)ga; burun bezaklari (aravak, latiba, latbini, xolbini, buloqi, natxuni, natbini, natti va h.k)ga; quloq bezaklari (sirg‘a-xalqa, zirak)ga; bo‘yin va ko‘krak bezaklari (munchoq, xafaband, gulband, tavq, murqak, jevak, tapishe dil, nozigardon, zebigardon, zebisiyna, peshovez yoki bezakkubba, peshixalta, kalitbog‘i, bo‘yin tumor, ko‘krak tumor, aqiq, duo tuzi – keyingi tumorlarni libosning boshqa qismlarida ham taqqanlar)ga; elka qo‘ltiq osti bezaklar (qo‘ltiq tumor) ga; bel bezaklari (kamar, tugma, sitora) ga; qo‘l bezaklari (bilaguzuk, uzuklar)ga va oyoq bezaklari (xalxol) ga bo‘lingan.

Zebi-gardon. 1910-yil. Toshkent.

XIX asr o‘zbek zargarlik san’atining eng yirik markazlari quyidagilar bo‘lgan: Buxoro, Xiva, Toshkent, Samarqand, Qo‘qon, Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Chimboy, To‘rtko‘l, shuningdek, Urganch, Andijon, G‘ijduvon, Namangan, Marg‘ilon, Chust, Urgut, Boysun, Denov, Koson, Nurota, Sherobod. O‘zbek kelinlari boshini tilla suvi yugurtirilgan feruza, toza va nimtoza toshlar qadab yasalgan nafis mohitilla yoki tillaqosh bezagan. Uni, odatda, chakka bezagi – rangdor toshlar mo‘l qadalgan gajak bilan birga taqqanlar.

Kumush pirpirak (pistoncha)li ingichka surilma tizimchalar – silsila yoki shokila O‘zbekiston xotin-qizlarining ommabop manglay bezagidir. Buxoroda ma’dan taqinchoqlar taqish rusum bo‘lgan. Ularning to‘mtoq uchi pistoncha tumorlar, to‘qalar ko‘rinishida bezatilgan. Ba’zan qushning uslublashtirilgan qiyofasi qo‘ndirilgan. Xorazmda ko‘pqirrali yoki doira shaklidagi toshlar yoki shishalar qadalgan tilla suvli qubbacha urf bo‘lib, uni qizlar do‘ppisiga o‘rnashtirganlar va “takyado‘zi” deb atashgan.

Toj-do’zi. XXasr boshi. Xiva. Xorazm.

Yorqin ko‘prangli uslub xususiyatlari o‘zbek qiz va kelinlarining ko‘krak bezaklari turlariga xosdir. Unga nozigardon, zebigardon, zebisiyna deb shoirona nomlar berilgan. Xotin-qizlar ko‘ylagining yuqorigi ilgagi ham zargarlar tomonidan yasalgan. Bittadan yoki ikkitadan qilib taqiladigan tumorlarda afsungarlik alomatlari yaqqol ko‘rinib turgan. Ular ko‘krakka (haykal, ko‘kraktumor), bo‘yinga (bo‘yintumor) yoki qo‘ltiqqa (qo‘ltiqtumor) taqib yurilgan. Xalq aqidalariga ko‘ra qush qiyofasidagi inson joni ko‘pincha tananing aynan shu joyidan chiqar emish. Aksar hollarda bular turli shakldagi ichi bo‘sh temir quticha bo‘lib, qutichaning kumush sirtiga islimiy naqshlar bitilgan. O‘zbekistonning turli mintaqalaridagi xotin-qizlar ularda ins-jinslardan saqlanish va xosiyatli karomatlariga moyil bo‘lish niyatida Qur’oni Karimning balo-ofatlaridan saqlovchi oyatlari yozilgan tabarruk qog‘ozlarni saqlaganlar. Halqa, sirg‘a yoki ziraklar ham xilma-xil bo‘lgan: ular donador toshlar, g‘oyat ingichka sim gajaklar, dur, feruza, marjon singari qimmatbaho toshlar qadab ziynatlangan. Har bir tuman yoki shaharda o‘sha joyda yashaydigan xotin-qizlar yaxshi ko‘rgan

sirg'alari bo'lgan. Bizning kunlargacha saqlanib qolgan bilaguzuklar asosan ikki xilda yasalgan – ochiq va yopiq bilaguzuklar. Bilaguzuklar, odatda, kumush, tilla, jez, mis, brinchdan yasalgan. XIX asr oxiri va XX asr oxiriga kelib, zargarlik san'atida taqinchoqni rangli shishalar bilan to'ldirishga, kesimining jimjimadorligi va uslubining qorishishiga intilish kuchaydi. Bu qisman Turkistonda rus va tatar taqinchoqlarining keng yoyilishidan kelib chiqqan. Mahalliy ustalar taqinchoqlarni tayyorlashda badavlat shaharliklarning did va talablarini hisobga olishgan.

Zulfi-zar. XX asr boshi. Xiva.

Zargarlik taqinchoqlaridan tashqari, ustalar lochin ovi anjomlariga zeb berishgan, qimmatbaho ma'danlardan yasalgan uy-ro'zg'or buyumlari va idish-tovoqlarga did bilan naqshlar chizishgan. Zargarlar ma'dan xatcho'plari va ilgakli qo'lyozmalar uchun tayyorlangan qimmatbaho charm muqovalarni ham bezashgan. XIX-XX asr boshida zargarlik buyumlarini tayyorlashda tilla, ko'proq kumush, ba'zan elektr (oltin va kumush qorishmasi), bronza kabi ma'danlar, yoqut la'l, berill kabi javohirot; feruza, aqiq, lojuvard kabi rangdor toshlar, dengiz boyliklari – marvarid, dur, sadaf, kauriy chig'anoqi; shuningdek, rangli shishadan foydalanilgan. Shunisi diqqatga sazovorki, XIX asr birinchi yarmida butun Markaziy Osiyoda zargarlik buyumlari kumushdan yasalgan. Oltin buyumlardan faqat xon saroylarida, asosan Buxoro amirining saroylarida foydalanilgan. Zargarlar mahalliy zodagonlar: saroy

a'yonlari, ruhoniylar, savdogarlar uchun ishlaganlar. Aholining ushbu tabaqasi qimmatli zargarlik buyumlarining buyurtmachilari va iste'molchilari asosiy doirasini tashkil etgan. XIX asr oxiri va XX asr boshida zargarlik san'atida ikki yo'nalish ko'zga tashlanadi. Birinchisi – xalq san'ati an'analari bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Ikkinchisi aholining o'ziga to'q qatlam didiga mo'ljallangan. Zargarlar oqsoqol boshchiligidagi o'ziga xos sex tashkilotiga uyushgan. Zargarlar quruvchilar, temirchilar, kandakorlar bilan birgalikda umumiy "Nizom" – "Risola"ga bo'ysunganlar va ma'dan ishlab chiqarish asoschisi – pir hazrat Dovudga e'tiqod qilishgan. Yirik markazlardagi ustalar turli sinflarga ega bo'lganlar. Ziynatlar, oltin va kumush kandakorligi yo'sinlari, bezaklarga jilo bo'lish tarz-tariqalari bo'yicha ustalarga bo'linganlar. Zargarlar mustaqil, ularni ashyo bilan ta'minlab turuvchi tadbirkor savdogar uchun ishlaganlar. Buyumlarni bozorbop, chet elbop, buyurtmabop, shaharbop, qishloqbop, ko'chmanchi yoki yarimko'chmanchi aholibop qilib yasaganlar. Zargarlarning bir qismi saroy ustaxonalarida faoliyat ko'rsatgan. Zargarlik kasbi otameros bo'lgan va otadan o'g'ilga o'tgan. XIX asr zargarlik san'ati badiiy uslubidagi mahalliy xususiyatlar Buxoro, Xorazm, Toshkent, Samarqand, Qo'qon (yoki Farg'ona), Surxondaryo, Qoraqalpoq maktablarining ustalari buyumlarida ko'rinadi. Buxoro nafaqat O'rta Osiyo, balki Sharq mintaqasidigi zargarlik san'atining asosiy markazlaridan biri sanalgan. Shahar muzeylarida saqlanayotgan zargarlik buyumlari, XVI asr me'morchiligi yodgorligi – Buxoroda shahar va savdo-hunarmandchilik markazi sifatida qurilgan Toqi Zargaron inshooti ushbu maktab nechog'lik mashhur bo'lganini ko'rsatadi. Toqi Zargaronda ustaxonalar va zargarlik rastalari joylashgan. XIX asr Xorazm ziynatlari murakkab shakli-shamoyiliga ega: islimiy naqshlar yanada maydalashgan, zanjirchalar, munchoqlar, tishlar va ma'dan "yaproqchalar" – bosma pistonchalardan qilingan ko'puyali mayda shokilalar mo'l qo'llanadi. Tasviri jihatdan ular o'z qiyofadoshlariga yaqin. O'tmishda ular ramziy ma'noga ega bo'lgan. Asosan, kumush va qotishmadan yasalgan, keyinchalik tilla suvi yugurtirilgan tarixiy buyumlar zargarlik san'ati Toshkentda ham ravnaq topganidan dalolat beradi. Toshkent zargarlik maktabi buyumlari aholining o'rta qatlami uchun mo'ljallangan. Buxoro

zargarlik san'ati Samarqand zargarlik san'atiga ko'proq yaqin. Buxoro zargarlari buyumlarida Toshkent maktabining ham ta'siri sezilib turadi. Qo'qon, Namangan va Andijon ustalarining buyumlarida XIX asr Farg'ona vodiysi zargarlik san'ati maktabi namoyon bo'ladi. Farg'ona vodiysida "oybaldoq" eng sevimli sirg'alar xilidan bo'lgan. U yarim oy shaklidagi qadimiy qiyofadoshiga borib taqaladi. Uzum boshi ko'rinishidagi shokilali sirg'alar "qashqarbaldoq" deyilgan jimjimador sim gajaklar yopishtirilgan ayni xildagi sirg'alar bu erda juda ommabop bo'lgan. "Qashqarbaldoq" shaklini Farg'ona vodiysiga XIII asrda bu erga ko'chirib olib kelingan qashqarliklar joriy qilgan.

Ko'krak tumor. 1910-yil. Toshkent.

XIX asr zargarlik san'atining qoraqalpoq maktabi Qo'ng'irot, Xo'jayli, To'rtko'l, Chimboy, Xalqabod shaharlari zargarlari buyumlarida namoyon bo'ladi. Qoraqalpoqlar san'ati tarixiy jihatdan Surxondaryo, Farg'ona vodiysining qadimgi yarim ko'chmanchi xalqlari, ularning hozirgi qo'shnilari – turkman xalqlari san'ati bilan bog'liq. Ularda ko'chmanchilar san'atining qadimgi an'analari saqlangan. Qoraqalpoqlar zargarlik buyumlarida ham qadimiy shakl-shamoyil va naqsh-gullar saqlanib qolgan. Ularda qiyofa kesimlari lo'nda, shakl-shamoyil yiriklashgan, bo'yoqlar mo''tadil taqsimlangani bo'rtib turadi. Surxondaryo zargarlik san'at maktabi majmua ziynatlarining yaxlitligiga erishgan. Bu maktabda tayyorlangan aksariyat buyumlarning asosiy unsuri munchoqdir. Marjon munchoqlar bu maktab uchun barcha ziynatlarning bevosita tarkibiy qismiga aylangan. Surxondaryo zargarlik buyumlari orasida

turlari bo'yicha eng xilma-xili "besh oyoqli sirg'a"dir. Ushbu sirg'a va Surxondaryo zargarlik maktabining boshqa buyumlari XX asr 20 – yillari O'zbekiston zargarlik san'ati rivojlanishida yangi bosqich bo'ldi. Bu yillarda zargarlik buyumlarining ko'rinishi o'zgaradi. Ular yanada odmiroq va kamtarroq shakl va rangga ega bo'ladi. Murakkab, serqad, shokila va toshlarga serob zargarlik buyumlari o'rnini ko'proq bitta rang, aniq qiyofali buyumlar egallaydi. XX asrning oxiriga kelib Surxondaryoda zargarlik san'ati butkul yo'qolib ketdi. Bugangi kuda vohada asosan munchoq to'qish san'ati saqlab qolingan xolos. Buxoro, Qo'qon, Farg'ona, Xorazm, Surxondaryo va Qoraqalpog'iston zargarlik buyumlari qadimgi shakllari shunday sharoitlarda saqlanib qolgan. Bular: sirg'alar, bilaguzuklar, to'g'nog'ichlar, nikoh uzuklaridir. 1950 – 70-yillarda ham Toshkent, Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Xiva zargarlik hunarmandchiligi markazlari bo'lib qoldi. Ushbu markazlarda zargarlik buyumlar doirasi deyarli o'zgarmagan: sirg'a, nikoh uzugi, bilaguzuk, munchoqlar yasalgan. SHuningdek, besh qirrali yulduz shaklidagi, o'rtasida feruza yoki dur bo'lgan oltin sirg'alar singari yangi shakllar paydo bo'ldi. Bu davr O'zbekiston zargarlik san'ati o'zida umumiylik va mahalliylik singari o'ziga xos fazilatlarni namoyon etadi.

Bu yillarda uslubiylik jihatidan Buxoro san'ati ko'proq yaxlitlik kasb etdi. Bu erda asosan "xolaq", "xolqabarg", "shibirma" kabi sirg'a xillari tayyorlangan. Hozir O'zbekistonda juda ko'p xalq ustalari va usta musavvir zargarlar ishlaydi. Ular o'z buyumlarida zargarlik san'atining asriy an'analariga shaxsiy ijodiy izlanishlarini qo'shib yuborishga harakat qilmoqdalar.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar:

1. Qadimgi va antik davr zargarlik buyumlarining o'ziga xosligi nimadan iborat?
2. Islom davridagi zargarlik san'ati haqidagi manbalar nimadan iborat?
3. Ayollar taqinchoqlarining umumiy xususiyatlari nimada?
4. XIX-XX asr zargarlik buyumlari qaysi shaharlarda ishlab chiqarilgan ?
5. Zargarlik buyumlarining qanday asosiy jihatlari mavjud?

13-MAVZU. O'ZBEK YOG'OCH O'YMAKORLIGI

Reja:

1. O'zbek an'anaviy yog'och o'ymakorligining paydo bo'lishi.
2. O'zbekiston hududida yog'och o'ymakorligi maktablari.
3. O'zbek an'anaviy yog'och o'ymakorlikgi buyumlari tavsifi.

Islom davri yog'och o'ymakorligiga xos xususiyatlar IX-X asrlarga oid Obburdon ustunida o'z ifodasini topgan. Unda qadimgi an'analar bilan bir qatorda, islom san'atiga xos xususiyatlar mujassamlashgan. Temuriylar davriga mansub yog'och o'ymakorligi namunalari – temuriy hukmdor nomi muhrlangan lavx, qutichalar horijiy davlatlar muzeylarida saqlanmoqda. XX asrga kelib, me'morchilik ishlari bilan bir qatorda, yog'ochdan ishlangan ro'zg'or buyumlari keng tarqaladi. Bu davrda ganch o'ymakorligi zamonaviy inshootlarni bezatishda keng ishlatiladi. Xiva, Buxoro, Toshkent va Qo'qon shaharlari yog'och o'ymakorligi etakchi markazlari bo'lsa, ganch o'ymakorligi esa Buxoro, Toshkent, Samarqand shaharlarida rivojlangan.

O'yma-ustun. XX asr boshi. Xiva.

Shaharlarda yog'och sandiqlar, beshiklar, qutichalar, lavhlar singari maishiy buyumlar tayyorlashda, shuningdek, eshiklar, ustunlar, tokchalar va h.k.larni bezashda ham yog'och o'ymakorligidan foydalanganlar. XIX asr ikkinchi yarmida Tojikiston va O'zbekistonda O'rta Osiyo shaharlarining evropacha turmush tarziga intiluvchi aholisi didiga mos ko'pqirrali xontaxta va kursichalar keng rasm bo'lgan edi. XIX asr oxiri – XX asr boshida kelib, Xiva, Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Toshkent, Xo'jandda

yog‘och o‘ymakorligining etuk maktablari jonlandi va ularda hozirgacha shuhrat qozonib kelmoqda.

O’yma eshik. XVIII asr. Xorazm.

O‘zbekiston xalqlari turmushida va an’anaviy me’morchilikda azaldan yog‘och o‘ymakorligi ommabop bo‘lib kelgan. Me’morchilikda undan ustunlar, bo‘g‘otlar, eshiklar, shiftlar, panjaralar kabi muhim me’moriy qism va qurilmalar sifatida foydalaniladi. Turmushda yog‘och o‘ymakorligining keng qo‘llanilishini katta yog‘och jihozlar (mebel)dan tortib, mayda ro‘zg‘or buyumlarida ko‘rish mumkin. Xontaxtalar, kursichalar, sandiqlar, jovonlar, qutichalar, keng yog‘och karavotlar o‘ymakori bezaklar bilan bezatilgan. Kitoblarning yig‘ma lavhlari, qalamdonlar, kitob muqovalari, dovotlar, taroqlar, cholg‘u asboblari, matoga gul bosish qoliplari, shuningdek, Qo‘qonaravalar, egar-jabduqlar, taxtaravonlar o‘ymakori naqshlar bilan orolangan. XIX asr oxiri XIX asr boshida yog‘och uy-ro‘zg‘or buyumlarining ko‘plab turlari taqdim etilgan. Bular: juvoz, zarangtovoq, korson, lagan, duk (urchuq), darveshlar hassasi, yog‘och tumor, tasbeh va boshqa buyumlardir. Yog‘ochdan masjid minbari, sag‘analar did bilan qilingan. Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va buning oqibatida, o‘lkaga rus aholisining oqib kelishi yog‘och o‘ymakorligi sohasiga ham ta’sir o‘tkazgan. Ustalar hashamdor buyumlarga qiziqadigan shahar aholisining didiga mos narsalar yasashgan. Bu hol o‘ymakori naqsh tushirilgan buyumlar xilini ancha ko‘paytirdi. Dori qutichalari, jimjimador qush qafaslari, qutichalar, jomadonchalar, tamakidonlar va boshqalar mayda o‘ymakorlik noan’anaviy buyumlar sanaladi. Baland ko‘pqirrali xontaxtalar keng urf bo‘lgan “sharqona uslub” da naqshlangani uchun ham qadrlangan. Ayni xildagi xontaxtalar evropacha uylar

ichiga zeb bergan. XX asr boshida Turkistondan olis-olislarda ham bunday xontaxtalarga talab katta bo'lgan. Ashyo sifatida daraxtlarning mahalliy navi: chinor, qayrog'och, yong'oq, archa, tut, o'rik, terak, tol, nok, behi, jiyda va boshqalar ishlatilgan. Turli maishiy buyumlar, mebel va cholg'u asboblarini bezashda ustalar naqsh o'ymakorligiga xos naqshu-nigor va tosh qadamalardan foydalanilgan.

Naqsh-u nigorli namoyon. XIX asr. Buxoro.

XIX asr ikkinchi yarmida o'ymakorlikning ikki usuli keng tarqalgan. Birinchisi tagzaminli bo'lib, unda yassi-bo'rtma gul o'yish va tagzamin tanlash yo'li bilan xosil qilingan. Ikkichisi tagzaminsiz, uchqirrali qilib, qavssimon va taroqsimon o'yish yo'li bilan amalga oshirilgan. O'ymakorlikning bu turlari o'zining badiiy ifodaliligi bilan ham ajralib turgan. Tagzaminli o'ymakorlik mohir ustalar tomonidan, katta texnik mukamallik ila ijro etilgan va qattiq yog'ochli daraxtlardan qilingan noyob buyumlar bezatilgan. Qutichalar, salla g'iloflari, lavhlar, kitob muqovalari va baland serqirrali taxtlar shular jumlasidandir. XIX asr boshida Xiva, Urganch, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Farg'ona, Shahrisabz, shuningdek, Surxondaryo viloyatining tog' qishloqlari yog'och o'ymakorligi san'atining asosiy markazlari hisoblangan. Xiva Markaziy Osiyodagi yog'och o'ymakorligi san'atining eng qadimgi markazlaridan biri bo'lgan. Xiva o'ymakor ustalari bir vaqtning o'zida ham duradgor, ham quruvchi, ham o'ymakor, ham panjarasozu qolipchi dutorchi, ya'ni musiqa- asboblari yasovchi ham bo'lishgan. Ashyo tanlashda Xiva ustalari daraxtlarining mahalliy navlarini afzal ko'radilar. Ular:

karaman (qayraqochning bir turi) va terak. Boylarning uylari uchun o'rik, tut daraxtlari yog'ochidan o'ymakori eshiklar qilingan.

XIX asrning oxiri va XX asr boshida yog'och o'ymakorligi bo'yicha Toshkent ikkinchi yirik markaz hisoblangan. Bu erda ustalar ijodida me'moriy inshootlarga badiiy bezak berish bilan bir qatorda, maishiy o'ymakorlik katta o'rin tutadi. Ko'pqirrali xontaxtalar, qutichalar va boshqa buyumlar pargor (sirkul) yordamida nozik o'yma naqshlar bilan qoplangan. Shu bois bunday buyumlar "pargari ustma" degan nom olgan. Bu davr Toshkent yog'och o'ymakorligi jismlarni yassi-bo'rtma xildagi serislimiy naqshlar bilan bezatilgan. 1920 yildan 1980 yilgacha o'ymakori eshikka talab susayib borganiga qaramay, o'ymakorlik san'atida mavjud mahalliy maktablarning badiiy an'analari rivojlanishdan to'xtamagan va ularning naqsh-gul tizimiga yangi g'oyalar tadbiq etilgan. Xiva, Samarqand, Toshkent, Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Farg'ona, Shaxrisabz singari yog'och o'ymakorligi markazlari saqlanib qoldi.

3. S.Xo'jayev. O'yma kursi. 1927-yil.

Usta Haydarning o'g'li Qodirjon Haydarov yog'och o'ymakorligi Qo'qon maktabining yorqin vakilidir. Q.Haydarov ishlari an'anaviy yog'och o'ymakorligining yuksak badiiy namunalaridir. Usta yasagan eshiklar, namoyonlar, bo'g'otlar, shuningdek, bezakli stol va kursilar, lavhlar, qalamdonlar, javonlar, tumbochkalar, orom kursilar naqsh-bezaklarining nafisligi, shaklning ko'rkamligi bilan kishini xayratga soladi. Bu davr yog'och o'ymakorligi Samarqand maktabi o'ymasining aniqligi, handasaviy, islimiy va gul mavzularining o'ziga xos ijro yo'sini bilan boshqalaridan ajralib turadi. Bu maktab vakillari ichida chinor, eman, qora qayin, terak yog'ochlaridan ko'proq foydalanishadi.

1990-yillarda yog'och o'ymakorligi xalq amaliy bezak san'atining an'anaviy va eng keng tarqalgan turlaridan biriga aylanadi. Bugungi kunda markazlari Qo'qon, Xiva, Samarqand, Toshkent, shuningdek, Andijon, Namangan, Jizzaxda bo'lgan yog'och o'ymakorligining qator an'anaviy maktablari faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbek ustalarining yangi avlodi asriy badiiy an'analar izidan borib yog'och o'ymakorligi xalq san'atining bunday nodir turini saqlab qolishga bebaho hissa qo'shishmoqda.

YOg'och badiiy naqshu-nigorlari me'moriy inshootlar va mebeldan tortib xilma-xil mayda yog'och buyumlar va turli uy-ro'zg'or ashyolarigacha keng ko'lamda qo'llanadi. XIX asr oxiri – XX asr boshidagi Xiva, Qo'qon, Buxoro, Samarqand, Marg'ilon, Farg'ona, Toshkent, Andijon, Namangan, Chust, Quva, Oltiariq, Rishton O'zbekiston yog'och naqsh san'ati asosiy markazlari bo'lgan. Hozirgi paytda yog'och va ganch o'ymakor ustalari foydalanayotgan zamonaviy naqshu-nigor bezak-gul tizimi o'sha paytda yuzaga kelgan. Ushbu bezak gul tizmi islimiy va handasaviy unsurlari miqdori cheklanganiga qaramay, kompozitsiyasi boshqalariga o'xshamasligi va mavzularining o'ta xilma-xilligi bilan kishini hayratga soladi. Mohir ustalar bunga unsurlarning alohida yo'riqlari, gulning boshqasi ustiga chiqib ketishi, tagzaminning o'zgaruvchan rangdorligi, qismlarning antiqa tarzdagi talqini bilan erishgan.

Islimiy naqshlar bezaklarning eng keng tarqalgan turidir. Uning negizida chirmoviq va buralib o'suvchi o'simliklar tasvirlari turadi. Yog'och va ganch o'ymakorligida islimiy naqshning "patnis" degan turi qo'llanadi. Islimiy naqshning bu turi tumorlar farqini ham belgilab beradi: to'rtburchak shakldagi patnisni eslatadigani patnisiy, jonli mavjudot shakllari – turunj, quroq xilidagi ko'rinishlar – koshin deb ataladi. Gajak, qavs, suv, tanob kabi nom va atamalar kompozitsiyada ulovchi unsurlar bo'lib xizmat qiladi. O'zbek naqsh-gul naqshu-nigorlari bezak gulining mohirona tuzilgani bilan emas, balki rang birikmalarining uyg'unligi bilan dilni quvnatadi. Bunga qo'shimcha ranglar qoidasiga rioya qilish va takrorlanuvchi birikmalarning jiddiy ohangdoshligi orqali erishish mumkin. Bir rangning boshqasiga o'tmasligi O'zbekiston naqshu-nigorlarining o'ziga xos xususiyatidir. O'zbek ustalari, o'z ishlarida asosan, bir-

biriga zid ranglardan foydalanadilar. Mayda va yirik gullarning o'ziga xos tarzda yaxlitlik hosil qilishi, turdosh ranglarning chiziq bilan chegaralanishi, tagzamin va naqshli bezakning bir-biriga zid qo'yilishi bilan o'zbek naqsh-gul naqshu-nigorlarida uyg'unlikka taassurotiga erishiladi.

Yog'och naqshu-nigorlarida mahalliy bo'yoqlar ishlatilgan. XIX asr oxirigacha mahalliy bo'yoqchilar, asosan tuxum va elimdan foydalanishgan. XIX asr oxiridan ustalar fabrikada ishlab chiqarilgan quruq va moyli bo'yoqlardan foydalanganlar. XX asrda naqqosh musavvirlar quruq fabrika bo'yoqlaridan, moyli va emal (sir) bo'yoqlardan, laklardan foydalanganlar. O'zbek naqqoshlari ko'k, yashil, sariq, qizil, oq, pushti, to'q pushti, qora ranglarni ko'proq ishlatishgan. XIX asr oxiri va XX asr boshida naqshu-nigorlarni qotirish uchun ustalar kunjut moyi va kanifoldan tayyorlanadigan lak qo'llagan. XX asrdan naqqoshlar amaliyotiga fabrika laklaridan foydalanish odat tusiga kiradi. Naqsh-gulning alohida qismlarini chizish uchun maxsus qalamlar mavjud: ingichka mo'yqalam "siyox qalam" bilan faqat qora, jigarrang, to'q binafsharang chiziqlar bo'yaladi, yumshoq va siyrak "tarir qalam" ingichka chiziqlarni yo'g'onlashtirishda qo'llanadi. Enli, yumshoq mo'yqalam "tag qalam"da keng tagzamin yuzalari bo'yaladi. Maishiy buyumlarning naqshu-nigori ikki turga bo'linadi va ular ijro yo'sini va badiiy sifatlari jihatidan bir-biridan farq qiladi. Birinchi turga xontaxtalar, tokchalar, g'iloflar, qutichalar, egarlarning badiiy naqshu-nigorlari kiradi. Ikkinchi tur ommabop buyumlarning oddiy naqshu-nigorlari bo'lib, ular: beshik, mayda ro'zg'or buyumlari, bolalar o'yinchoqlari va h.k. lardan iborat. Badiiy naqshu-nigorning birinchi turini yog'och naqshu-nigori bilan shug'ullanuvchi naqqosh rassomlar bajaradi. Ikkinchi turini esa duradgorlar ado etadi.

Egar. Naqshu-nigor. XIX asr. Buxoro.

Mayda yog'och buyumlar naqshlari o'ta barqarorligi va an'anaviyligi bilan ajralib turadi. Me'moriy naqshlardan farqli o'laroq, mayda buyumlar naqshu-nigorlaridagi bezaklar ham mayda bo'ladi. Naqqoshlar naqshu-nigor sirtini shu qadar zich bo'yashadiki, tagzamin deyarli ko'rinmay qoladi. Barcha yirik naqqoshlar mayda buyumlar naqshu-nigori bilan shug'ullanganlar. Naqshu-nigor chizish jarayoni qog'ozda qalam tasvir (tarx)ni ishlab chiqishdan boshlanadi. Keyin uning konturlari trafaret yordamida ko'mir kukuni bilan me'moriy qismga yoki buyum sirtiga o'tkaziladi. XX asrda bu texnologiya ham yangilik qurboni bo'lib ketdi – qalam tasvirni qora qog'oz yordamida ko'chirib olinadigan bo'ldi. Qalam tasvir qalin, tiniq, qog'ozda yoki kalkada ko'chiriladi. XIX asr oxiri XX asr boshida mahalliy jaydari qog'oz yoki toza paxta tolasidan qilingan objuvoz qog'ozdan foydalanishgan, XX asrda uning o'rnini kalka egallagan. 1920-yildan 1980-yillargacha bo'lgan davrda eski shaharlarni qayta tiklash va qurish munosabati bilan O'zbekistonda me'moriy naqshu-nigorlar qo'llash ko'lami kengaydi. Bu davrda, ayniqsa, keksa avlod an'anaviy naqsh-gullardan foydalanishda davom etmoqda. Bu, ayniqsa, yog'och me'morchiligi bezagida yaqqol ko'rinadi. Avvalgidek, Xiva, Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Marg'ilon, Farg'ona, Andijon, Namangan, Chust, Quva, Oltiariq, Rishton, Toshkent va boshqa shaharlar naqshu-nigorning asosiy markazlari bo'lib kelmoqda. 1990-yillardan yog'och naqshu-nigorlari o'zbek xalq amaliy san'atining etakchi turlaridan biriga aylandi.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar:

1. Ganch va yog'och o'ymakorligining ilk namunalari qaerdan topilgan?
2. Islom davrning naqsh estetikasini ganch va yog'och o'ymakorligiga qanday ta'sir ko'rsatgan?
3. XX asr me'morchiligida ganch va yog'och o'ymakorlik san'atlarning qanday o'rni va etakchi markazlari bor?
4. Uy ro'zg'or buyumlarida nimalar qo'llanilgan?
5. Kompozitsiyada o'lchovchi chiziqlar nima deb ataladi?

14-MAVZU. O'ZBEK KASHTACHILIGI VA ZARDO'ZLIGI

Reja:

1. O'zbek an'anaviy kashtachiligi etakchi markazlari.
2. O'zbekiston an'anaviy kashtachiligining asosiy buyumlari .
3. O'zbek an'anaviy zardo'zlik buyumlari tavsifi.

Kashtachilikning eng qadimgi namunalarining aksariyati XIX asr boshiga mansub. Bu davrda kashtachilikning Buxoro, Nurota, Shahrisabz, Samarqand, Toshkent, Farg'ona kabi etakchi markazlari shakllangan. An'anaviy kashtachilikning asosiy buyumlari quyidagilardan iborat – so'zana, joypush, oy palak, zardevor, yostiqpo'sh, lo'la bolish, bo'g'joma, joynamoz, oyna xalta, tuz xalta va boshqa. Kashtachilik buyumlarning bezagi asosan o'simliksimon naqshlardan iborat bo'lib, unda ham geometrik, zoomorf va buyumlar tasvirlari mavjud. Kashtachilik o'zbek xotin-qizlari xalq ijodining eng ommaviy turlaridan biri bo'lgan. O'troq aholi uchun kashtachilik an'anaviy uy bezaklarining uzviy qismi bo'lgan. Ular ancha katta hajmdagi ro'zg'or buyumlarini kashtalar bilan bezashgan. Bu kashtalarning ifodasida hashamdor shakllarga moyillik ko'zga tashlanadi. Bular: devorga osiladigan so'zana, zardevor, dorpech, choyshab, ro'ijo, joynamoz, dasturxon, gavorapo'sh, ya'ni beshikpo'sh (beshikko'rpa), do'ppi, kiyim-kechaklarning alohida qismlaridir. Respublikaning ko'chmanchi va yarimko'chmanchi xalqlarida kashtachilik ularning kiyim-kechaklari va qator mayda ro'zg'or buyumlarida o'zining yorqin ifodasini topgan. Erkaklarning bayramda kiyiladigan choponlari, belbog'lari, xotin-qizlarning yopinchiqlari, pichoq qinlari, choyxalta, oynaxalta, ketmon, qozon, tutqichlar shunday kashtalar bilan ziynatlangan. XIX asr oxiri va XX asr boshida o'zbek kashtachiligida naqsh-gullar mavzusini tanlash, ularning kompozitsion, gul, rang tuzilishi usullari bo'yicha farqlanuvchi o'ziga xos maktablari yuzaga keldi. XIX asrda badiiy kashtachilikning Nurota, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent va Farg'ona singari yirik markazlari paydo bo'ldi. Bu markazlarning har biri mahalliy badiiy xususiyatlari bilan farq qilar edi. XIX asrga kelib, Nurotada kashtachilikning o'ziga xos xili vujudga keldi. Nurota kashtalari muayyan xususiyatlariga ega

bo'lib, ular guldastalar bilan ziynatlanadi. Ammo guldastalar matoning oq tagzaminini zich qoplamaydi. Nurota kashtachiligi O'zbekiston badiiy kashtachiligida gul mavzularining boyligi va xilma-xilligi bo'yicha etakchi o'rinni egallaydi. Ko'pincha islimiy naqshlar qushlarning suvratlari bilan jonlantirilgan. Goho esa ko'zga tashlanmaydiganroq joylarda hayvolar va odamlarning uslublashtirilgan qiyofalari bezak vazifasini bajargan. Markazida sakkiz qirrali yulduz va markaziy maydon burchaklarida to'rtta yirik-yirik guldastalari bo'lgan yopiq kompozitsiya eng keng tarqalgan bo'lib, bunday kompozitsiya "chor shox-yak moh", ya'ni to'rt butoqu bitta oy deb ataladi. Qolgan naqshlar asosiy gullar oralig'idagi bo'shliqda joylashgan. Rombsimon to'r naqsh-gul tuzilishining ikkinchi xili bo'lib, u tishli yaproqlardan yuzaga kelgan ("Toba doni" panjarasimon). Uning uchlari butoqlar, gullar, to'pgullar, qush va hayvon tasvirlari bilan to'ldirilgan. Buxoro kashtachiligida Markaziy Osiyodagi kashtachilikning eng qiziqarlilaridan biri. Buxoroda ingichka shoxli gullar keng rasm bo'lgan, ular mato ustidan teng bo'laklarga bo'lingan yoki dumaloq to'pgullar sershox poyalar bilan aylantirib chiqilgan. Kashtalarda moviy, kulrang, och sariq, qizil aralash va yashil rang ajoyib tarzda birikkan. Samarqand kashtalari Buxoro va Nurota kashtalaridan gullarining yirik va yaxlitligi bilan farqlanadi. U yaproq doira ichida katta-katta dumaloq to'pgullardan tashkil topgan. Ranglarida binafsharang sovuq bo'yoqlar ko'proq uchraydi.

So'zana. XIX asr. Buxoro.

Samarqand kashtachiligi kabi SHahrisabz kashtalari gulida ham asosiy o'rinni moviy yaproq gulchambaridan ko'k rangli qismlari bo'lgan katta to'pgul egallaydi. Ba'zi kashtalarda markazdagi maydonlarda islimiy naqshlari bo'lgan kompozitsiya aks ettirilgan. Hoshiyaga esa katta-katta xurmo yaproqlari va doiralar joylashgan. SHahrisabz do'ppilari g'oyat rang-barangdir. Kashtalar to'q qizil, yashil, feruza va qizil ranglarning sovuq ranglari ustidan ifoda etilgan.

So'zana. XIX asr Nurota.

Toshkent va Pskentning o'ziga xos kashtachiligi bezakdorligi bilan O'zbekistonning boshqa mahalliy maktablari kashtalaridan farq qiladi. Toshkent maktabida yirik kashtalarning to'rtta asosiy turi mavjud: *palak, gulko'rpa, choyshab, joynamoz.* Palaklarning (arab. *falak* so'zidan olingan) *oy-palak, yulduz-palak, tog'ora-palak* singari bir necha turlari bo'lgan. Toshkent palaklari sidirg'asiga bosma chokda tikilgan bo'lib, ulardagi to'q-qizil aylana va yulduzsimon naqshlar koinot ramzini bildirgan. *Gulko'rpa* va *choyshab*ning naqshlari markaziy yulduz yoki aylana va gulli shoxlardan iborat bo'lib, bir oy – to'rt shox jadvalini tashkil etadi.

Farg'ona vodiysi kashtalari butoqlardan tuzilgan ingichka to'rtburchak gullari va tagzaminda ko'p joyni bo'sh qoldiruvchi halqalar to'plamidan iborat. Farg'ona chevarlari kashta buyumlari rangli tagzaminga tikilgan. Ayrim hollarda tagzamin uchun shoyi mato tanlangan. Farg'onaning yirik bezak kashtalari ishning nozikligi va nafisligi bilan do'ppini eslatadi. Ularning ranglari och va to'q tuslar zidligiga asoslangan. Kashta gullari alohida "qalamkashlar" tomonidan chizilgan.

XIX asrning 80 - yillari oxirigacha O'zbekiston bezak kashtalari oq qo'lbola mato – "karbos"ga tikilgan. Ba'zan tabiiy malla rangli matodan foydalanilgan. XIX asr 80-yillaridan to'q sariq rangdagi qo'lbola mahalliy matolar, shuningdek, chetdan keltirilgan oq va rangdor ip-gazlama matolar tagzamin uchun ishlatilgan. Kashta tikish uchun shu erda ishlab chiqilgan, tabiiy ranglarga bo'yalgan ipak iplar qo'llangan. XIX asr (80-90 yillarigacha) kashtalarning go'zalligi ko'p jihatdan shu bilan izohlanadiki, tabiiy rangga bo'yalgan ipak iplar mayin, chuqur qorishiq tus bergan. XIX asr 90-yillari oxiridan to hozirgacha ipakni qirmizi rangga bo'yashadi. Buning natijasida XIX asr kashtasining chiroyli rangi bilan raqobatlasha olmaydigan, bir-biriga keskin zid ranglar birikmalari yuzaga keladi.



Tog'ora-palak. XX asr boshlari. Toshkent.

O'zbekiston kashtasida tikishning shunday o'ziga xos yo'sini borki, unda katta yuzaga gullar sidirg'a tikiladi va ko'pincha tagzaminning nisbatan uncha katta bo'lmagan kengligi ochiq qoladi. Bir yoqlama yuzaning xilma-xil turlari qo'llanadi: yo'rma va zanjir kashta. Naqsh-gulning barcha joyi kashtaning ayni turlari bilan baravar to'ldirib chiqiladi. Yo'rmalab tikishning ikki turi mavjud: "bosma" va "kandaxayol". O'zbekistonning ayrim tumanlarida so'zana tikishda zanjir choki qo'llanib, u "yo'rma" va "darafsh" deb ataladi. "Zanjirchok" qadimgi usullardan biridir. O'zbek kashta buyumlarida zanjirchok bilan bo'lmagan bezak gullarining butun yuzasi tikiladi. Tikish quyidagi yo'sinda bajariladi: zanjirchok tikiladigan gul chizig'i bo'ylab eshib chiqiladi, keyin eng chekkadagiga zichroq joylashib, ichkariga qarab buriladi. Bu butun

shakl chekkasidan o'rtasigacha kashta bilan to'lguncha davom etadi. Zanjir kashta igna yoki ilmoq bilan tikiladi.

XIX asr oxiriga kelib, boshqa davlatlar bilan savdo aloqalari bir oz o'sib, O'zbekistonga arzon fabrika mollari ko'plab olib kirila boshlanadi. Bu esa O'zbekiston badiiy hunarmandchiligiga o'z aksini o'tkazdi. Fabrika matolari bilan raqobatlasholmagan ayrim sohalar deyarli faoliyatdan to'xtadi. To'qimachilikning qo'lbola turlari shular sirasiga kiradi. Bunday raqobatga duch kelmagan kashtachilik esa xalq kundalik turmushining zaruriy bisoti bo'lib qolaverdi. Ammo uning uslubida ham XX asr o'zgarishlari aks etmasligi mumkin emasdi. Bezak buyumlari ilgarilari bo'lganidek faqat kelin sepi yoki oila a'zolari ehtiyoji uchungina emas, balki usta kashtachilar tomonidan boy xonadonlar yoki bozorda sotish uchun ishlab chiqarilaverdi. Bozorbop buyumlar kashta sifatini asta-sekin tushirib yubordi. Ammo kashta san'atidagi ayrim tanazzullarga qaramay, XX asr boshida chevarlar oldingi davrlarda ma'lum bo'lmagan qator badiiy sifatlarga ega yangi kashtalar yaratdilar. 1920 yillar oxiridan boshlab, O'zbekiston hududida kashtachilik shirkatlarining butun bir tarmog'i faoliyat ko'rsata boshladi. Ularda mashinada tikiladigan zanjir kashta hammasidan ko'proq rasm bo'ldi. So'zana, kirpech, darparda, yostiq g'ilofi, belbog' singari buyumlar mana shu kashta usuli bilan tikilgan. Shirkatlarlarda tikilgan mashina kashtalarining badiiy tuzilishi mahalliy san'atning rang-barangligini aks ettirmagan. 1950–80 yillarda shu davr butun bezak amaliy san'atida bo'lganidek, kashtada dastgohli san'atning kuchli ta'siri kuzatiladi.

So'zana. XIX asr Nurota.

Xonaki usulda rivojlanib kelayotgan kashtachilik ma'lum sabablar oqibatida o'z ta'sir miqyosi va hududini boy berdi. U

Toshkent, Piskent, Buxoroda yo'qolib ketdi va asosan respublikaning qishloq tumanlarida saqlanib qoldi. Chevarlar o'zlari tikkan buyumlarda an'anaviy gullarni takrorlash barobarida ularga yangi tasviriy usullarni ehtiyotlik bilan kiritdilar va ularni yanada umumlashtirilgan ekspressiv ko'rinishda ifoda etdilar

Do'ppi. XX asr. Marg'ilon

Xonaki hunar shaklida rivojlanayotgan hozirgi kashtachilik ba'zi o'zgarishlarga duchor bo'ldi. So'zana xilidagi yirik shaklli devoriy kashtalar Urgut, Nurota, Kattaqo'rg'on, Boysun, Denov, Sherobod, Sho'rchi, Sariosiyo, Kitob, Shahrisabz, Koson, Qamashi, G'uzor, Namangan, Andijon, G'allaorol, Baxmal, Shofirkon singari shaharlar va shahar atrofi hududlarda tikilmoqda va ular tobora ko'proq mahalliylashmoqda. Shulardan Urgut shahri va unga tutash qishloqlari eng yirik markaz bo'lib qoldi. Bu hudud kashtado'zlari uslubida XIX asr oxiridagi Samarqand kashtachiligi an'analari davom etmoqda. Kashtachilik bo'yicha yirik markazlar sifatida Chust, Marg'ilon, Andijon, Shahrisabz, Kitob, Boysun e'tirof etilmoqda. Kiyimlarning alohida qismlari va mayda maishiy buyumlarning bezagi uchun mo'ljallangan kashtalar mavjud. Xuddi ilgarigidek, hozirgi paytda ham xonaki kashtalar xalq chizmakashlari chizgan suvratlarga qarab yaratiladi. Hozir kashtaning: so'zana, joynamoz, yostiq va ko'rpa g'ilofi, belbog', do'ppi, jiyak kabi turlari ishlab chiqarilmoqda.

Do'ppi. 1963-yil. Boysun. Surxandaryo.

Tijorat ko'rsatkichlarini ham qo'shib hisoblaganda, an'anaviy kashtachilikning qayta tiklanishidagi eng muvaffaqqiyatli tajribani Shahrisabz, Nurota, Buxoro va G'ijduvonda kuzatish mumkin. Bu erda buyumlar xonaki matolarda, tabiiy bo'yoqlar, ipak va ip-gazlama iplardan foydalanib, kashtalar kompozitsiyasiga ko'hna naqsh-gul unsurlaridan qo'shib yaratilmoqda.

Zardo'zlik qadimdan shahar hunarmandchiligining oliy shaklini namoyon etgan va uning markazi Buxoro bo'lgan. Bu san'at, asosan, shohlar saroyiga mo'ljallangan bo'lib, u bilan faqat erkaklar shug'ullangan. Zardo'zlik zodagonlarning ayol va erkak buyumlari: chopon, yaxtak, belbog' va hatto, poyafzalni bezashda ishlatilgan. Zardo'zlikning naqsh-guli asosan islimiy, ba'zan handasaviy shakllardan iborat bo'lgan. O'zbekiston xalqlarining zardo'zi buyumlari ayrim xorijiy muzeylarda ham bor. Bu san'atning nodir namunalari Sankt-Peterburgdagi Davlat ermitaji, Mikluxo Maklay nomidagi Antropologiya va etnografiya muzeyi, Moskvadagi Sharq xalqlari madaniyati muzeyi ekspozitsiyalaridan o'rin olgan. Biroq zardo'zi buyumlarning katta qismi O'zbekiston muzeylari: O'zbekiston Davlat San'at muzeyi, O'zbekiston xalqlari tarixi davlat muzeyi, O'zbekiston xalqlari madaniyati tarixi Samarqand muzeyi, Buxoro viloyat tarix-o'lkashunoslik muzeyi, Toshkentdagi amaliy-san'at muzeyida saqlanadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshida Buxoro zardo'zlik markazi edi. Manbalarda qayd etilishicha, XIX asr ikkinchi yarmida Buxoro amirining qarorgohi – Arkda katta saroy zardo'zlik ustaxonasi bo'lgan. Bundan tashqari, bu davrda yigirmadan ko'proq yirik xususiy ustaxona faoliyat ko'rsatgan. Ular orasida eng mashhuri usta

Qori Hasanovning ustaxonasi edi. Ko'pincha oila doirasi bilan cheklangan bunday ustaxonalar, o'z-o'zidan a'yonki, tarixiy solnomalarda qayd etilgandan ko'ra ancha ko'proq bo'lgan. Tarixiy manbalar darak beradiki, bu davrda zardo'z hunari bilan, asosan, erkaklar shug'ullangan. Bordi-yu, buyurtmalar haddan tashqari ko'p bo'lsa, yordamchi sifatida ustalarning yaqin qarindosh ayollari ham bu ish bilan shug'ullangan. Bu davrda zar va kumush iplarda: chimildiq, katmon, choyxalta, muhrxalta, pichoq qini, joynamoz, taxmonpo'sh, ot egar-jayduqlari, zinpo'sh, yopqich, yo'lpo'sh (egarpo'sh) va boshqa uy-ro'zg'orga oid ko'plab buyumlar tikilgan.

Ayollar bayram liboslari, jumladan, peshonaband, sazandoz, ro'mol, kaltapo'shak, kurta (ko'ylak), zoqi kurta (ko'krak jiyak), xaltacha, do'ppi, poycha zardo'zi (poyshona), mahsi-kavush, nopush (uchi qayrilgan ayollar poyafzali), paranji va boshqalarning ko'p qismlari zardo'zlik bilan bezatilgan. Zardo'z ustalar hunarmandlari boshida hurmatli va boobro' kishilar – bobo va oqsoqol turgan. Bobo asosan diniy ishlarni yo'lga solib turgan. Oqsoqol vakolatiga talay vazifalar kirgan. U amir saroyi va amirlik ma'muriyati bilan munosabatlarda rasmiy mansabdor shaxs va sex (sho''ba) vakili bo'lib turgan, ustalar o'rtasida yirik buyurtmalarni olish va taqsimlashda dallollik qilgan, usta xo'jayin va usta, yollanma usta kashtachilar va xalfa, xalfa va shogirdlar o'rtasida yuzaga kelgan to'qnashuvlarni bartaraf etgan. Xalq sayli zardo'zi buyumlarni sotishda asosiy bozor hisoblangan. Sayillar amirning shahar tashqarisidagi saroylari – Shirbo'din va Sitorai Mohi Xosada uyushtirilgan. Zardo'zlikda baxmal, chet el va mahalliy shoyilari, atlas, doka, surup, yung, olacha, charm kabi ashyo va matolar ishlatilgan. Zardo'zlik jarayoni bir necha yo'llardan tashkil topgan: avvaliga gul yigirilgan, keyin u to'ftado'zi (aylanma) yoki sindo'zi (eshma) oltin bilan qismlarga ajratib chiqilgan. So'ngra "holibatun jingili o'rusi" iplari, "birishido'zi" ipiga, ipak aralash tilla ip bilan tikilgan. Kiyimning alohida qismlari tikilib bo'lgach,zardo'zi bezaklarga taqlidan bo'rtiq to'pgullar ham tikilgan. Alohida tikib chiqilgan bu qismlarni ulash va astarlash uchun tikuvchiga berishgan. Buxoro zardo'zlari uylari zardo'zlikni bir necha xilga bo'ladilar: 1) "zardo'zi - zamindo'zi" tagzamin tilla bilan bir sidra tikiladi.; 2) "Zardo'zi - guldo'zi" – qog'ozdan tikilgan rasm bo'yicha

tikish; 3) "Zardo'zi guldo'zi zamindo'zi" – dastlabki ikkalasini qo'shib tikishning aralash usuli; 4) "Zardo'zi birishido'zi" – aralash tikish (chok); 5) "Zardo'zi pilakchado'zi" – zardo'zlikning pistoncha (pilakcha) qo'shib tikish usuli.

Zardo'zlikda, asosan, islimiy naqshlar qo'llaniladi, handasaviy naqshlar ham uchraydi. Uning asosiy turlari: to'pgul, polopetka (xurmoshoxi), butoq, daraxt, shox, gulli guldon, bodom, anor, gilos, uzum. Maxsus buyurtma bilan tikilgan ayollar do'ppisidagi qush rasmi mutlaqo favqulodda xarakter kasb etadi."Guli chiniy" (xrizantema), "guli qashqariy" (qashqargul) kabi ma'lum islimiy naqshlar Buxoro zardo'zlari ularni azaldan Markaziy Osiyoga olib kelingan xitoy chinnilaridan olishganini anglatadi. Chunki XIX asr oxiri – XX asr boshida bu chinnilar juda ommalashib ketgandi. Naqsh turlaridan yana biri rus fabrika matolaridan olingan gullar bo'lib, bu matolar XIX asrning so'nggi o'ttiz yil mobaynida Markaziy Osiyoga keltirilgan. XIX asr zardo'zlarining naqsh-gul bezagida asta-sekin me'moriy yodgorliklar mavzusi keng yoyila boshlaydi: "mehrob", "kitobcha" (peshtoqdagi yozuv), "koshin".

1920–1980 - yillarda zardo'zlik hunari va faoliyatini tashkil etish shakli tubdan o'zgardi. Maxsus mahoratni ifoda etishning yopiq shakllari, asosan, jamiyatning qatlami o'rtasida taqsimlab ishlab chiqariladigan hunarmandchilik barham topgan. Asta-sekinlik bilan zargarlik buyumlarini ommaviy ishlab chiqarishga o'tilgan. Bu davrda Buxoro zardo'zlikning asosiy markazi hisoblangan. 1920-yillarda zardo'z ustalar ikki yirik artelga birlashtirilgan. Ular o'zbek do'ppilari, peshonabandlari, kamarlar, kavushlar tikishgan va bu buyumlarni zardo'zlikdagi an'anaviy naqsh-gullar va kompozitsiyalar, ularning gul tamoyillaridan kelib chiqib bezatishgan. XIX- XX asr boshida yaratilgan buyumlar bu san'atning yorqin namunalaridir.

Hozirgi paytda an'anaviy kashtachilik O'zbekistonning barcha hududida va hatto, bu tur ilgari mavjud bo'lmagan Xorazmda ham saqlab qolindi yoki qayta tiklandi (bugun Xivadagi Ichanqal'a majmuasida yosh tikuvchi qizlar O'rta va Yaqin Sharq me'moriy bezaklari bo'yicha kitoblardan olingan eskizlar bo'yicha o'ziga xos mahsulotlar ishlab chiqarmoqda). Shu bilan birga, zamonaviy kashtachilikda badiiy maktablarning ilgarigi mahalliy xususiyatlarini

rivojlantirishga intilish emas, balki bozor talablari asosida ishlab chiqarish kuchaydi. Ayni paytda kashtalarni tayyorlash va sotish bo'yicha ikki yo'nalish, guruh mavjud. Shartli ravishda "innovatsion" deb nomlangan birinchi yo'nalish eksportga, keng bozor ehtiyojiga yo'naltirilgan bo'lib, unda mualliflar tashabbusi kuchli ekani seziladi. Ikkinchisi, "autentik" yo'nalish bo'lib, u uncha katta bo'lmagan hudud (qishloq, tuman)ni qamragan. Mahalliy xususiyatga ega ushbu yo'nalish, XX asr ikkinchi yarmida vujudga keldi. Bu yo'nalish mahsulotlaridan mahalliy an'analarda foydalaniladi.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar:

1. Kashtachilikning umum tarixi va kelib chiqishi haqida nimalar bilasiz?
2. O'zbekistonda kashtachilikning qaysi etakchi markazlari bor va ularning xususiyatlari qanday?
3. Kashtachilik an'analarini tiklash jarayoni nimadan iborat?
4. Zardo'zlik san'ati haqida nimalar bilasiz?
5. Kashtachilikda qanday matolar ishlatiladi?

15-MAVZU. O'ZBEKISTON JANUBIY HUDULARIDAGI YARIM KO'CHMANCHI AHOLI BADIIY HUNARMANDCHILIGI

Reja

1. O'zbekiston janubiy hududlari an'anaviy kigizchiligi
2. O'zbekiston janubiy hududlari an'anaviy gilamdo'zligi va uning badiiy xususiyatlari
3. O'zbekiston janubiy hududlari aholisi an'anaviy kashtachiligi va uning badiiy xususiyatlari

O'zbekiston amaliy san'atining ko'p asrlik tarixida o'troq va ko'chmanchi xalqlar madaniy an'analarining o'zaro aloqasi alohida o'rin tutadi. XIX asr oxiri – XX asr boshida hududda shaharlarning ko'payishi, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi xalqlarning asta-sekinlik bilan o'troq hayot tarziga o'tishi tufayli ko'chmanchi urug'lar an'anaviy madaniyatining ko'pgina tarmoqlari va turlari tabiiy ravishda yo'qolib borgan. Shunga qaramay, o'zbek xalqining o'ziga xos madaniyati shakllanishida ularning roli nihoyatda katta. Surxondaryo, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarining ko'pgina tumanlarida yashab kelayotgan, O'zbekistonning yirik etnik guruhlaridan biri – qo'ng'irotlarning madaniy an'anasi shundan dalolat beradi.

Yarim ko'chmanchi etnik guruhlarning noyob o'ziga xos hunarmandchilik va madaniy an'analari hozirgacha to'la o'rganilmagan. Ularning maishiy va xo'jalik hayot tarzi, o'troq xalqlar bilan o'zaro aloqasi bilan bog'liq amaliy san'ati alohida e'tiborni tortadi. Hozirgi paytda badiiy hunarmandchilik, asosan, O'zbekistonning janubiy hududida yashayotgan qo'ng'irotlarda saqlab qolingan. Qo'ng'irotlarning maishiy turmushida to'qima va namat yoki kigiz gilamlar, kichikroq gilam buyumlari, kashtalar, charm va yog'ochdan ishlangan ashyolar keng tarqalgan. Amaliy san'at mahsulotlarining aksariyat qismi qo'ng'irotlarning ko'chma o'tovi – "qora uy" intererini bezatish bilan bog'liqdir. O'tov ichiga kigiz to'shalib, uning ustidan to'qilgan gilam yoki oshlangan teridan tayyorlangan po'stak solingan.

Sholcha. 1960-yil. Surxandaryo.

Jun mahsulotlariga ishlov berish va bezash O'zbekiston janubidagi yarim ko'chmanchi aholi badiiy hunarmandchiligida etakchi o'rin tutgan. Hozir ham qo'ng'irotlar yashayotgan har bir qishloq va uylarda kigizlarni uchratish mumkin. Ular o'tovlarning ham tashqi, ham ichki bezagi uchun qo'llanilgan. Kigiz asosi qoramtir rangdagi jundan tayyorlanib, bezagi uchun oq tusli yoki qizil, yashil va ko'k rangga bo'yalgan junlardan foydalaniladi. Boshqa ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi xalqlar singari qo'ng'irotlar ham kigiz mahsulotlarini tayyorlashda bir qancha usullarni qo'llashgan. Birinchi usulda kigizning asosiy foniga rangli jundan naqsh qilinadi. Buning uchun turli rangga bo'yalgan jundan kompozitsiya xosil qilib, mato ustiga naqsh shaklida qo'yib chiqiladi. So'ngra jun bosib chiqiladi va usti bo'yalmagan jun bilan qoplanadi. Bularning barchasi o'raladi, tirsaklar bilan bosib shibbalanadi va o'ramning ustidan tez-tez qaynoq suv quyib turiladi. Bu jarayon ko'p bora takrorlanadi Ikkinchi usul – applikatsiya yopishtirish. Bunda kigiz asosiga bo'yalgan kigiz yoki matodan naqsh qo'yiladi. Uchinchi usul mozaika texnikasi bo'lib, kigizning ikki xil rangli bo'laklari kesib olinadi va bir naqshning barcha

unsurlari tikib chiqiladi. Bunda ulardan biri – naqsh, boshqasi – fon bo‘ladi yoki aksincha.

Palos-g’ajari gilam. XX asr o’rtasi. Jizzax.

Kigizlardagi bezaklar sodda, aniq, lo‘nda bo‘lib, naqshlari serjilodir. Ularning yirik hajmi kigizga mahobat baxsh etadi. Naqsh unchalik ko‘p bo‘lmasa ham, to‘quvchilar uning turli variantlarini yaratishgan. Kigizlar ko‘chmanchi xalqlarning dunyoqarashini aks ettiradi. Bular, asosan, zoomorf motivlardan iborat bo‘lib, ular orasida “qo‘chqor shoxi”, “qurbaqagul” naqshlari alohida ajralib turadi. SHuningdek, kigizlarga uchburchak, romb, meandr shakllari, uyurma belgilari, osmon jismlari tasviri, turli gul naqshlari ham tushirilgan.

O‘tov anjomlarining ajralmas qismi – to‘qima gilamlar ham qo‘ng‘irotlar maishiy turmushida muhim o‘rin tutgan. Hozirgi paytda qo‘ng‘irot ayollari faqat patsiz gilamlar to‘qishadi. Lekin, keksa gilamdo‘zlarning aytishicha, qo‘ng‘irot ayollari avval patli gilamlar ham to‘qishgan. Qo‘ng‘irotlar maishiy turmushida polos-gilamlar bilan birga, xurjunlar, dig-diga (dik-dika) – ot ustiga tashlanadigan yopinchiqlar, xo‘jalik ashyolari va kiyimlar saqlash uchun sandiq shaklidagi napramach – to‘qima xaltalar, dasturxonlar, o‘tov atrofini o‘rash uchun bov, qur singari bezakdor to‘qima tasmalar keng tarqalgan.

Ishlab chiqarish usuli va yo'siniga ko'ra, patsiz gilamlar bir-biridan farqlanadi. Masalan, har ikkala tomoni bir xil rangdagi yo'l-yo'l qator bezakdan iborat bo'lsa, ***qoqma gilam***; arqoq iplari rang va naqsh xosil qiluvchi, tanda iplarini bog'lash hisobiga yaratiladigan gilam esa ***taqir gilam***; umumiy kompozitsiyasini bezaksiz, sidirg'a hamda ikki rangli bezakdor chiziqlar tashkil qiluvchi patsiz gilam ***terma gilam*** (bu turdagi gilamning bir necha turi bor. ***G'ajari gilam*** ulardan biri bo'lib, uning yuza tomoni tekis naqshdan iborat, orqa tomonida esa bu naqshni yaratishda foydalanilmagan tanda iplari bo'sh qo'yiladi); g'ajari usulida ishlangan, bezakdor hamda oq jundan to'qilib, usti kashtalangan bo'laklarning o'zaro almashinib kelishi natijasida xosil bo'ladigan ***oq enli gilam*** singari turlarga bo'linadi.

Qo'ng'irotlarning gilam va gilam buyumlarida bo'g'iq tus hosil qiluvchi qizil va ko'k ranglar ko'proq qo'llangan. Shuningdek, qo'shimcha sifatida sariq, pushti, yashil, oq va qora ranglardan foydalanilgan. Lekin hozirgi paytda qo'ng'irot gilam buyumlarida o'ta yorqin, ba'zan nihoyatda ko'zni "qamashtiruvchi" ranglardan foydalanilmoqda. Aslida esa ularning ilgarigi namunalari olachipor bo'lmagan. Gilamlardagi qarama-qarshi ranglar o'zaro uyg'unligi bilan ajralib turgan. Bu esa gilam to'quvchilarning yuksak badiiy mahorati va nozik dididan darak beradi. Gilamlar, asosan, jun, ba'zan paxta iplaridan to'qilgan. Gilam to'quvchilar uzoq yillar davomida jun, kigiz va iplarni ro'yan ildizi, o'rik, jiyda, pista barglari, yovvoyi daraxtlar ildizidan olingan bo'yoqlar bilan bo'yashgan. XIX asr oxiridan arzon anil bo'yoqlaridan foydalanilishi esa, gilam buyumlari sifatining keskin yomonlashuviga olib keldi.

Patsiz gilamlarining bezaklari shaklu-shamoyiliga ko'ra, handasaviy va zoomorf turlarga bo'linadi. Handasaviy shakllar sodda, pog'onali romb, meandr mavzulari, W va S – simon belgilar, sakkiz burchakli yulduzlar, uchburchak, samoviy va mistik ramzlar – xochlar, kvadrat va boshqalardan, naqshlarning zoomorf guruhi esa qushlar, yovvoyi va uy hayvonlari tasviridan iboratdir. Bunda bezak sifatida jonzotlarning faqat shoxi, tovoni, tirnog'i, ko'zlari singari ayrim a'zolarigina tasvirlanadi. Ushbu naqshlar *qo'chqor shoxi* yoki

qo'chqorak, *tuya bo'yin*, *it izi* yoki *it tovon*, *kaklik to'shi*, *qurbaqagul*, *ho'kiz ko'zi* tarzida nomlanadi.



Arabi sholchasi. 1970-yil. Qashqadaryo.

Patsiz gilamlarda faqat oq enli gilamda o'simliksimon bezak foydalaniladi. Oq enli gilamlar bezagining o'ziga xosligi "ko'chmanchilik" va "shahar" gilamlari unsurlarining qo'shilib ketganligi bilan belgilanadi. Birinchidan, ularda qadimgi qabilaviy zoomorf va astral ramzlar mavjud. Ikkinchidan, *oq enli* gilamlar bezagida "shahar" san'atiga xos gulli palmettalar aks etgan. Bu ko'proq XX asr o'rtasidan to'qila boshlangan oq enli gilamiga tegishli. Chunki, ko'chmanchi va o'troq aholining uzoq davrlar yonma-yon hayot kechirishi natijasida, oq enli gilamlar kompozitsiyasida o'troq va ko'chmanchi xalqlar san'ati uchun xos naqshlar uyg'unlashuvi yuzaga kelgan. Ayni xildagi gilamlar va ayrim kashtalarning ilgarigi namunlarida esa asosan cho'l va tog' tepaliklarida uchraydigan gullar, lolalar, tikanli va boshqa o'simliklarning sodda tasviri uchraydi. Bundan ayon bo'ladiki, *oq enlida* ilgari ham "shahar" san'atiga bog'liq bo'lmagan o'simliksimon tasvirlardan foydalanilgan.

XIX asr oxirida gilamdo'zlik ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Evropada O'rta Osiyo gilamlariga talabning kuchayishi va savdo raqobati gilam ishlab chiqarishning kengayishiga, ularni tayyorlash jarayonida pala-partishliklar avjlanishga olib keldi. Ijodiy yondashuv o'rnini nusxa ko'chirish egalladi. Bezak kompozitsiyasi quruq, sayoz chiqa boshladi, uslublar jo'nlashtirildi va notekis qirqish tufayli bezaklar dag'allashdi. Kalava ipi yo'g'onlashib, iplarga qo'l uchida ishlov berildi. Gilamlar rang gammasining o'zgarishiga anilin bo'yoqlar jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. Avvalgi, rang mayinligi va teranligi yo'qoldi.

Kashtachilik O'zbekiston janubiy hududlaridagi yarim ko'chmanchi etnik guruhlar (qo'ng'irotlar) maishiy madaniyatining o'ziga xos muhim turlaridan biridir. Ularda devoriy panno yoki so'zana singari yirik kashta turlari tarqalmagan bo'lsa-da, kashtadan erkaklar va ayollar kiyimlarini, o'tov ichini, shuningdek, kichikroq maishiy buyumlarni bezashda foydalanilgan. Kashtalar turlari juda xilma-xil bo'lib, har birining o'z vazifasi va nomi bor. Ko'zgu-oyna va boshqa mayda-chuydalar solinadigan kvadrat yoki to'rtburchak shakldagi *oynaxalta* va *to'rva*, shuningdek, kashta tikilgan kichikroq *choyxalta*, *tuzxalta* qo'ng'irotlar maishiy turmushida keng tarqalgan ommapob ashyolardir. Bir manzilga ko'chish paytida ko'rpa to'shak yoki kiyimlarini o'rashga mo'ljallangan gilam yoki oddiy matodan tikilgan *bo'g'joma* ham muhim o'rin tutgan. Bug'joma ko'rinib turadigan va old qismidagi popukli ikkita enli tasma tushib turgan burchagigina kashta bilan bezatilgan.

An'anaviy liboslarning ayrim qismlari ham yomon nazar – ko'z tegishi, suq kirishidan asrovchi magik vazifani bajaruvchi kashta bilan bezatilgan. Garchi hozirgi paytda foydalanilmasa-da, yaxlit kashta bilan qoplanadigan erkaklar – belbog'i *tengmat*, shuningdek, ayollar bosh kiyimi – *kiygich*ni bezab turuvchi *mayna kashta* – peshona bog'i o'ziga xosdir.

Qo'ng'irot kashtachiligida ishlatilgan material va texnik usullar ham o'z badiiy xususiyatlariga ega. Paxta matolari, avvalroq esa xonadonlarda ishlab chiqarilgan movut kashtachilik uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Kashtalar jun, ipak va paxtadan tayyorlangan iplar bilan tikilgan.

Qo'ng'irotlar an'anaviy kashtachiligi naqshlari nihoyatda rang-barangdir. Kashta naqshlari majmuasi handasaviy, zoomorf, o'simliksimon tasvirlarni o'z ichiga oladi. Bu guruhda XIX asr oxiri – XX asr boshida keng tarqalgan bezaklar va mavzularning qadimiyroq qatlami ajralib turadi.

Kashtachilikda qo'ng'irot amaliy san'atining boshqa turlari uchun ham umumiy bo'lgan turli variantdagi *qo'chqor shoxi*, uch panja shaklidagi *qushoyoq* ko'rinishlari, shuningdek, *it izi*, *ilon izi*, *ot tuyoq*, *tumorcha*, *jillik* singari kashtalar, o'simlik – gul tasvirlari va boshqalar uchraydi. Har bir tikuvchi tomonidan o'ziga xos tarzda talqin etilgan har bir bezak ko'rinishlari kashta tikilgan buyumning umumiy tuzilishida tamoman o'ziga xos tarzda namoyon bo'lib, unga osoyishtalik, jiddiylik yoki harakat, dinamiklik bag'ishlashi mumkin.

Chinniqop. XIX asr oxiri. Buxoro.

Qo'ng'irotlarning zamonaviy gilamchilik, kigizchilik va kashtachiligi tahlili shuni ko'rsatadiki, ularda bir tomondan, badiiy hunarmandchilikning bu turlari an'analari saqlab qolgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, afsuski, ularning bezak tuzilishi va rang jihatlari buzilayotganligi kuzatiladi. Endilikda, ayrim to'quvchilar gilam kompozitsiyasiga atlas matolaridagina uchraydigan unsurlarni kirita boshladilar. Bu esa ko'p hollarda ularning didsizligini bildiradi. SHuni qayd etish joizki, zamonaviy gilamdo'zlar gilam bezaklarini, mos kelmasa-da, kashtachilik, kigiz tayyorlash va, xatto, munchoq to'qishga ham joriy qila boshlashdi. Keyingi yillardagi ekspeditsiya chog'ida biz ayollarning ko'plab munchoqdan to'qilgan ko'krak taqinchoqlari va oynaxaltalarida gilam bezak unsurlari nojoiz qo'llanilganini uchratdik.

Umuman, uzoq asrlar davomida vujudga kelgan qo'ng'irot hunarmandchiligi va hozir ham badiiy qadriyat sifatida muhim tarixiy-madaniy ahamiyatga ega o'ziga xos bo'lib, u noyob an'analarini muayyan darajada saqlab qolgan.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar:

1. O'zbekiston janubiy hududlari aholisi badiiy hunarmandchiligining asosiy turlari va badiiy xususiyatlari?
2. Kigiz buyumlar turlari va to'qish texnologiyasi?
3. Gilamchilik buyumlarining asosiy turlari va to'qish texnologiyasi?
5. Kashta buyumlarining asosiy turlari va to'qish texnologiyasi?
6. Gilamning rivojlanish bosqichlari?

16-MAVZU. O'ZBEKISTON BADIIY SANOATI

Reja:

1. XX asr o'rtasida O'zbekistonda badiiy sanoat paydo bo'lishi.
2. O'zbekiston badiiy sanoatining asosiy sohalari.
3. O'zbekiston badiiy sanoati va xalq amaliy san'ati.

XX asr o'rtasi O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlantirilishi natijasida unda badiiy sanoat ham paydo bo'ladi. Ya'ni, chinni, oyna, sopol, zargarlik, gilam, gazlama, mashina uslubidagi kashtachilik, zardo'zlik buyumlarini ishlab chiqaradigan zavod va fabrikalar barpo etildi. Bu korxonalar engil va mahalliy sanoat, hamda maishiy xizmat vazirligi tizimida faoliyat ko'rsatadi. Ular ijobiy natijalar berishi barobarida, xalq amaliy san'atining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ko'plab an'anaviy uslub va texnologiyalar unutilib, qo'l mehnati o'rniga mashina uslubi qo'llanildi.

O'zbekistonda badiiy sanoat 1920–30 yillarda gilam ishlab chiqarish artellari paydo bo'lishi natijasida yuzaga keldi. 1960-yillarda Shahrisabz, Xiva va O'zbekistonning boshqa shaharlarida gilamdo'zlik fabrikalari tashkil etilganligi tufayli bu jarayon yanada rivojlanadi.

XX asr o'rtasida O'zbekistonda sanoat asosida ipak matolarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. Bu davrda Marg'ilon, Buxoro va respublikaning boshqa shaharlarida ipak matolarni ishlab chiqarish fabrikalari tashkil etiladi. O'zbekistonda engil sanoat vazirligi qoshida mashina texnologiyasi asosida bir qator paxta gazlamalarini ishlab chiqish joriy etiladi. Buxoroning zardo'zlik san'ati ham mashina texnologiyasiga o'tishi natijasida maxsus fabrikalar yaratiladi.

1960-yillar boshida O'zbekistonda mahalliy sanoat va maishiy hizmat ko'rsatish vazirliklari tashkil etilishi munosabati bilan respublikada bir qator kulolchilik, gilamdo'zlik, zargarlik, kandakorlik, zardo'zlik ishlab chiqarish kombinat hamda fabrikalar ochiladi. Ularning faoliyati esa an'anaviy amaliy san'at rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki ustalar chiqaradigan buyumlar uchun qo'llanadigan naqsh va shakllar Toshkentdan markazlashtirilgan badiiy texnik byuro tomonidan majburiy namuna

sifatida yuborilgan. Shu bois hunarmandchilikning hududiy markazlarni badiiy va mahalliy xususiyatlari deyarli yo'q bo'lib ketgan.

O'zbekistonda XX asr o'rtasida badiiy sanoatning yangi sohalari tashkil etildi. Jumladan, 1953 yilda respublikada birinchi Toshkent chinni zavodi, 1970 yilda Samarqand va 1978 yilda Quvasoy chinni zavodlari ishga tushdi.

Endilikda, bunday yirik zavodlarda an'anaviy milliy shakldagi piyola, kosa, choynak, lagan, guldon kabi buyumlar ishlab chiqarilmoqda. Chinni buyumlarining bezaklarida: *paxtagul*, *anorgul*, *bodom*, islimiy, *barg* va boshqa milliy naqshlar qo'llanadi. Chinnisoz ustalar sir ustiga va sir tagiga naqsh yozish uslublaridan keng foydalanadilar. Har bir chinni zavodining o'ziga xos badiiy, texnologik uslublari va xususiyatlari mavjud. Masalan, Toshkent chinni zavodi ustalarining servizlari tag asosida moviy kobalt ishlatilib, sirti oq va tilla rangdagi paxtagul va o'simliksimon naqshlar bilan bezatilgan. Samarqand chinni zavodi mahsulotlarida qizil fon ustiga ohu va o'simliksimon naqshlar tasvirlangan. Quvasoy chinni mahsulotlarida esa oq va moviy ranglar fon vazifasini bajarib, sirtiga mayin gullar shaklidagi naqshlar tasvirlangan.

Mustaqillik davrida badiiy sanoat tizimi davlat tassarufidan xususiy sektorga o'tadi. Jumladan, Rishtonda kulol ustalar ko'p hajmda chinni buyumlarni ishlab chiqarish jarayoniga o'tishdi. Ular o'z mahsulotlarini mahallalarda o'tkaziladigan marosim va tadbirlar uchun mo'ljallab tayyorlashmoqda.

Keyingi paytda jun va paxta ipidan to'qilgan fabrika mahsulotlariga ehtiyoj susayganligi tufayli ipak gilamlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. O'zbekiston gilamdo'zligi uchun bu yangi sohadir. Jumladan, Samarqand va Buxoroda mustaqillik davrida ochilgan ipak gilamlar ishlab chiqarish fabrikalari barpo etildi. Ularda qadimgi naqshlar va tabiiy bo'yoqlar asosida qimmatbaho ipak gilamlarning barchasi qo'lda to'qiladi. Bu gilamlarni to'quvchi xotin-qizlar buyurtma asosida bajaradi. Ushbu ipak gilamlar nafaqat ichki bozor uchun ishlab chiqariladi, balki horijiy mamlakatlarga ham eksport qilinadi.

Zargarlik sohasidagi badiiy sanoat yo'nalishi 1963 yilda Toshkentda tashkil etilgan zargarlik fabrikasi bilan bog'liq. Fabrika mahsulotlari: milliy an'analar uslubida ishlangan zirak,uzuk hamda bilaguzuklardan va boshqalardan iborat.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar:

1. O'zbekistonda badiiy sanoat qanday paydo bo'lgan?
2. Badiiy sanoatga qanday turlar kiradi?
3. Badiiy sanoatning ijobiy va salbiy ta'siri nimada?

17-MAVZU. O'ZBEKISTON NOAN'ANAVIY BEZAK SAN'ATI

Reja:

1. O'zbekistonda noan'anaviy bezak san'ati paydo bo'lishi.
2. O'zbekiston noan'anaviy bezak san'atining asosiy sohalari.
3. O'zbekiston noan'anaviy bezak san'ati va xalq amaliy san'ati.

O'zbekistonda 1970-yillarda noan'anaviy bezak san'ati – gobelen, noan'anaviy dastgohli, interer va landshaft-manzaraviy kulolchilik, zargarlik san'ati va badiiy oynasozlik paydo bo'ldi. Noan'anaviy bezak san'ati boshqalarga nisbatan tez rivojlandi. O'zbekistonda kulolchilik bo'yicha bir qator xalqaro simpozium o'tkazildi. Ijodkorlar Toshkentning eng muhim inshootlari, hamda metropolitenni bezashda faol ishtirok etishdi. Gobelen, oyna, noan'anaviy zargarlik buyumlari ko'rgazma ekspozitsiyalarida paydo bo'ldi.

1970-yillarda O'zbekistonda noan'anaviy bezak keramika maktabi shakllanadi va u ikki yo'nalishda faoliyat olib boradi. Birinchisi – bu ko'rgazmalar uchun mo'ljallangan ijodiy asarlar va loyihalar. Ikkinchisi – shahar va me'morlik muhiti uchun bajarilgan bezak plastika uslubidagi kompozitsiya hamda pannolar. Bu yo'nalishda xalq ustalari (U.Jo'raqulov, M.Rahimov, S.Rakova) va professional rassomlar (A.Kedrin, H.Xaqberdiev, S.Sultonmurodov, G.Dergach, A.Rahimov, F.Toshmuhamedov) faoliyat ko'rsatishdi.

O'zbekistonda gobelen san'ati 1960-70 yillarda shakllandi va Toshkent, Farg'ona, Andijon va Samarqandda ijod qilgan rassomlar asarlarida o'z ifodasini topdi. 1970- yillargacha Samarqandda ijod qilgan I.Yarema hamda V.Boxan o'zlarining lirik uslubda yaratilgan gobelenlari bilan ko'rgazmalarda faol ishtirok etishgan.

Andijonda er-xotin YA. va A.Ishoqovlar ko'rgazmalar uchun va buyurtma asosida geometrik uslubda yirik hajmdagi va ko'p figurali gobelenlar yaratishgan.

Bu yillarda Farg'onada L.Semizorova, M.Churlu bir qator kichik hajmdagi gobelenlarini yaratgan. 1990-yillarda chet elga ko'chib ketgan M.Churlu asarlarida an'anaviy o'zbek gilamdo'zlik va kashtachiligiga xos naqsh va uslublar keng ijodiy talqin etilgan.

M.Churlu noan'anaviy kulolchilik ustasi S.Alibekov bilan hamkorlikda Toshkent va Farg'nadagi bir qator binolar intererlarida gobelen va keramika pannolarini uyg'unlashgan shaklda yaratishgan. Hozirda M.Churluning shogirdi YU.Useinov shu yo'nalishni davom ettirmoqda va ko'rgazmalarga gobelen asarlarini o'zining installyasiya loyihalariga kiritmoqda. Toshkentda bugunda gobelen sohasida M.Tyurina faol ijod qilmoqda.

1970–80-yillarda Toshkentdagi Mikond zavodining oynasozlik sexi asosida V.Dudin, I.Egorova hamda J.Zabudskayadan iborat ijodiy guruh O'zbekistonda badiiy oynasozlik sohasiga asos solishdi.

1970–80- yillarda noan'anaviy zargarlik san'at yo'nalishi: M.Troshin, A.Dzyuba, G.Tikaev, mustaqillik yillaridan so'ng esa N.Xolmatov, U. Xolmurodov, A. Ulumbekova va boshqalar ijodida o'z ifodasini topdi.

Noan'anaviy amaliy bezak ustalari ko'proq O'zbekiston xalq amaliy san'ati an'analariga murojaat etishadi. Keyingi paytda noan'anaviy dekorativ san'ati sanoat, interer va xo'jalik dizaynida, ayniqsa, zamonaviy dizayn sohasida rivoj topmoqda.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar:

1. O'zbekistonda noan'anaviy bezak san'ati qachon paydo bo'lgan?
2. Noan'anaviy bezak san'atining asosiy tur va yo'nalishlari ganday?
3. Noan'anaviy bezak san'atini me'morlikdagi o'rni nimada?
4. Mustaqillik davrida noan'anaviy bezak san'atining shakllari qanday?

18-MAVZU. ZAMONAVIY AMALIY BEZAK SAN'ATI MUAMMOLARI

Reja:

1. Zamonaviy amaliy bezak san'atining iqtisodiy muammolari.
2. Xalq amaliy san'ati an'analarini saqlash va tiklash muammolari.
3. An'anaviy "ustoz-shogird" tizimi muammolari.

Zamonaviy amaliy bezak san'ati muammolari ikkiga bo'linadi. Birinchisi, iqtisodiy xarakterdagi muammo bo'lib, u O'zbekistonning bozor iqtisodiga o'tish sharoitlariga moslashishi bilan bog'liqdir. Respublikada amaliy san'atning rivojlanishi uchun barcha sharoit yaratib berilmoqda. Jumladan, soliq bo'yicha imtiyozlar beruvchi bir qator hukumat qarorlari qabul qilingan. Ikkinchisi, ijodiy muammolar bo'lib, ular unutilgan xalq amaliy san'at an'analari qayta tiklash bilan bog'liqdir.

1991 yili boshlangan tub ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar O'zbekiston badiiy madaniyati tarixida yangi sahifa ochdi. Mustaqillikka erishilgach, tarixan qisqa davrda yurtimizning istiqbolidagi taraqqiyoti uchun mustahkam asos yaratildi, O'zbekistonning davlat va jamiyat qurilishida butunlay yangi siyosiy asos vujudga keldi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar yangi madaniy siyosatning asosiy qadriyati sifatida e'lon qilindi. Bu har ikkala qadriyat O'zbekiston san'atida zamonaviy estetik izlanishlarga o'ziga xos ruh berdi.

1990-yillar boshida O'zbekistonning xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishi va xalqaro huquq sub'ekti sifatida jahonning ko'pgina mamlakatlari bilan diplomatik munosabatlar o'rnatishi natijasida madaniyat va san'at sohasidagi to'siqlarga barham berildi. Natijada, mamlakatimizning ijodiy ziyolilari nafaqat zamonaviy jahon badiiy jarayoni bilan chuqur tanishish, balki o'zlari ham milliy madaniyat va san'atimiz yutuqlarini jahon miqyosida namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ldilar. O'zbekistonning BMT, YUNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishi ta'lim, madaniyat va san'at sohalarida keng qamrovli loyihalarni ishlab chiqishga imkon

berdi. Ular O'zbekistonda muvaffaqiyatli amalga oshirildi va millatimiz ma'naviy madaniyati rivojlanishiga turtki berdi.

O'zbekiston mustaqillikning dastlabki kunlaridan, iqtisodiy siyosat sohasida energiya va xomashyo mustaqilligiga erishish, milliy iqtisodiyotni ko'tarish va aniq maqsadlarni amalga oshirish yo'lini tutdi. Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini rivojlantirish davlatga ma'naviy madaniyat taqdiriga ma'sullikni o'z zimmasiga olish va o'zini san'at sohasidagi o'zgarishlarning bosh homiysi sifatida e'lon qilish imkoniyatini berdi.

Milliy mustaqillik g'oyasida mujassamlashgan xalqimiz tarixiy merosini ob'ektiv anglash va baholash, milliy madaniyat va san'atning istiqboldagi rivojini belgilash kabi omillar ham san'at taraqqiyotidagi muhim asos bo'ldi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan O'zbekistonning madaniy siyosati madaniyat sohasini tiklash va takomillashtirish, tarixiy, axloqiy-diniy va madaniy qadriyatlarni o'rganish va targ'ib qilishga qaratildi. Xalqimizning asosiy dini – islomning ma'naviyat sohasidagi o'rniga haqqoniy baho berildi, masjidlar va madrasalar qurildi, musulmonlarimizning muqaddas haj safariga borishi uchun barcha sharoit yaratildi. Sohibqiron Amir Temur faoliyati yangicha ijtimoiy-tarixiy nuqtai nazardan talqin etildi. Bu kabi ijtimoiy-tarixiy omillar madaniy siyosatning rivojlanish tamoyillarini belgilab berdi. Iqtisodiy andoza va mafkuraviy yo'nalishlarning o'zgarishi san'atda jiddiy yangilanishlarni amalga oshirish imkonini berdi. Buni falsafasi ko'z oldimizda o'zgargan milliy rangtasvir rivojida ko'rish mumkin. Badiiy ijod erkinligiga erishildi va ijodga bo'lgan davlat nazorati rad etildi. SHu bilan birga, bozor iqtisodiyotiga o'tishning qiyin sharoitida davlat madaniyat va san'atni iqtisodiy ta'minlashni o'z zimmasiga oldi.

1990-yillarning ikkinchi yarmida badiiy madaniyatning turli sohalarida moddiy-texnik bazani mustahkamlashga, san'atning tashkiliy va ijodiy tarkibini takomillashtirishga qaratilgan ijtimoiy islohotlar amalga oshirildi. Tasviriy san'at sohasida O'zbekiston Badiiy Akademiyasini tashkil etish haqida qaror qabul qilindi. Yangi tashkilotning bosh vazifasi tasviriy va amaliy san'atning yangi tarixiy sharoitda rivojlanishiga ko'maklashish, O'zbekiston milliy san'atining mustaqil badiiy hodisa sifatida xalqaro madaniyat

maydoniga chiqishiga sharoit yaratish kabilardan iborat bo'ldi. Rassomning ijtimoiy maqomini, yangi jamiyat va ma'naviy madaniyatni shakllantirishda uning o'rnini oshirish, shuningdek, ijodkorlarning moddiy ahvolini yanada yaxshilash kabilar Badiiy Akademiya yaratish haqidagi masalani ko'rib chiqishda etakchi omil bo'ldi. Mustaqil davlat yurtimiz uchun og'ir bo'lgan bozor iqtisodiga o'tish davrida badiiy madaniyat taqdiriga mas'ullikni o'z ustiga oldi.

Badiiy Akademiya, uning tarkibi va ustavi loyihasini yaratish chog'ida bunday tashkilotlarning zamonaviy va tarixiy taraqqiyotiga oid jahon tajribasi o'rganilib, hisobga olindi. Badiiy kuchlarni birlashtira oladigan va san'atda badiiy ta'lim, ko'rgazma – ijod faoliyati, shuningdek, ilmiy-tanqid va targ'ib ishlaridan iborat uch asosiy omil rivojiga turtki beradigan kuchli davlat tarkibini yaratish eng maqbul yo'l deb topildi. 1997 yil 13 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning Farmoniga ko'ra tashkil etilgan O'zbekiston Badiiy Akademiyasi zamon talablariga javob beradigan ana shunday tuzilma bo'lib qoldi. Tasviriy va amaliy san'atda sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Agar bozor bilan chambarchas bog'liq bo'lgan an'anaviy amaliy san'at taraqqiyoti hukumatning tashkiliy-iqtisodiy tadbirlariga bog'liq bo'lsa (xorijga chiqarishda boj to'lashdan ozod qilish, xalq ustasining ijtimoiy maqomini mustahkamlash, xalq hunarmandlarining yangi tashkiliy tarkibi va uyushmalarini shakllantirish kabilar), tasviriy san'atda esa ijtimoiy o'zgarishlar jarayonini o'ziga xos tarzda aks ettiruvchi uslubiy va xususiy ijtimoiy izlanishlar muhimroqdir.

O'zbekistonda XX asr davomida etuk professional badiiy maktab shakllandi. Ammo ustalarning ijodiy imkoniyatlari o'n yillar davomida mafkuraviy nazoratning kuchli ta'siri ostida qoldi. Ularning ijodiy erkinligi cheklab qo'yildi. 1990-yillar boshida rassomlarning ijodiy erkinligi va shaxsiy imkoniyatlarini yuksak darajada namoyon qilishga intilishi san'at qiyofasini o'zgartirib yubordi. 1990-yillarda o'z falsafasiga ko'ra o'ziga xos bo'lgan rangtasvir san'ati avvalgi akademik yo'nalishlar bilan bemalol bellasha oldigan darajaga erishdi.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar:

1. Zamonaviy amaliy san'at muammolari nimalardan iborat?
2. O'zbekistonni bozor iqtisodiga o'tishda amaliy san'atning taqdiri qanday?
3. Unutilgan xalq amaliy san'atini tiklash bo'yicha asosiy tamoyillari nimadan iborat?

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent. 1998.

Abdullaev T. Katalog mednix izdeliy XVIII-XX vv. Tashkent. 1974.

Abdullaev T. Remesla Uzbekistana XIX – XX vekov. Tashkent. 1976.

Abdullaev T., Faxretdinova D., Xakimov A. Pesn v metalle. Tashkent. 1986.

Avedova N. Iskusstvo oformleniya uzbekskix natsionalnыx instrumentov. Tashkent, 1966.

Azimov I. Rospisi Uzbekistana. Tashkent, Izdatelstvo literaturi i iskusstva im. G. Gulyama, 1987.

Akilova K. Narodnoe dekorativno-prikladnoe iskusstvo Uzbekistana XX veka: problemi razvitiya. Tashkent, 2002.

Alieva S. Xudojestvennaya polivnaya keramika Uzbekistana IX-nachalo XXI vv. Tashkent: Izd-vo jurnala "SAN'AT", 2009.

Andreev M. K materialu po sredneaziatskoy keramiki. Tashkent, 1926.

Bulatov S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent, 1991.

Vidayushiesya pamyatniki arxeologii Uzbekistana. Tashkent: Izd-vo jurnala "SAN'AT", 2013.

Vyatkin V. Afrasiab – gorodishe bilogo Samarkanda. Tashkent. 1927.

Goncharova P. Zolotoshveynoe iskusstvo Buxari. Tashkent, 1986

Darkevich V. Xudojestvenniy metall Vostoka VIII-XII vv. M., 1976.

Derviz G., Jadova L., Jdanko I., Mitlyanskiy D. Sovremennaya keramika narodnix masterov Sredney Azii. M., 1974.

Istoriya i traditsionnaya kultura Baysuna. Tashkent, 2005.

Kustarnie promisli v bitu narodov Uzbekistana XIX-XX vv. Tashkent, 1986.

Marshak B. Sogdiyskoe serebro. 1972.

Moshkova V. Kovri narodov Sredney Azii konsa XIX - nachalo XX vv. Tashkent, 1970.

Narodnoe iskusstvo Uzbekistana. Tashkent, 1979.

Nasledniki shelkovogo puti. Uzbekistan. Shtutgard, 1995.

Nodir B. Xudojestvennыe remesla kungratov yujnix regionov Uzbekistana // SAN'AT, №2, s. 18-22. Tashkent, 2013.

Pechereva E. Goncharnoe proizvodstvo Sredney Azii. M.,-L.,1959.

Pugachenkova G., Rempel L. Vidayushiesya pamyatniki izobrazitelnogo iskusstva Uzbekistana. Tashkent,1961.

Pugachenkova G., Rempel L. Istoriya iskusstv Uzbekistana. M., 1965.

Pugachenkova G., Rempel L. Ocherki iskusstva Sredney Azii. M., 1982.

Raximov M. Xudojestvennaya keramika Uzbekistana. T. 1961.

Rempel L. Dalekoe i blizkoe. Stranitsi jizni, stroitelnogo dela remesla i iskusstva Staroy Buxari. Tashkent, 1981.

Staviskiy B. Iskusstvo Sredney Azii: Drevniy period s VI v. do n.e. – VIII v. n.e. M., 1974.

Suleymanov R. Drevniy Naxshab. Tashkent, 2000.

Suxareva O. Buxara XIX - nachalo XX veka . M., 1966.

Suxareva O. Suzani. Sredneaziatskaya dekorativnaya vishivka. M. 2006.

Faxretdinova D. Dekorativno-prikladnoe iskusstvo Uzbekistana. Tashkent. 1972.

O'zbekiston san'ati. Toshkent, 2001.

Tashxodjaev Sh. Xudojestvennaya polivnaya keramika Afrasiaba 9-nachala 13 vv. Tashkent, 1967.

Faxretdinova D. Yuvelirnoe iskusstvo Uzbekistana. Tashkent, Izdatelstvo literaturi i iskusstva im. G. Gulyama, 1988.

Chepelevetskaya G.L. Suzani Uzbekistana. Tashkent, 1961.

Xakimov A. Sovremennoe dekorativnoe iskusstvo respublik Sredney Azii. Tashkent, 1988.

Xakimov A. Iskusstvo Uzbekistana: istoriya i sovremennost. Tashkent: Izd-vo jurnala "SAN'AT", 2010.

Xakimov A., Gyul E. Baysun. Atlas xudojestvennix remesel. Tashkent, 2006.

Xakimov A. Prikladnoe iskusstvo Uzbekistana: traditsii i innovatsii. Tashkent, 2013.

Shayakubov Sh. Prikladnoe iskusstvo Uzbekistana. Tashkent, 2010.

Fitz Gibbon K., Hale A. Uzbek embroidery in the nomadic tradition (The Jack A. and Aviva Robinson collection at the Minneapolis Institute of Arts). Singapore, 2007.

Knorr, Thomas, and David Lindahl. Uzbek: The Textiles and Life of the Nomadic and Sedentary Uzbek Tribes of Central Asia. Lorrac – Tullengen, 1975.

Schurmann, U. Zentralasiatische Teppiche. Frankfurt/Main. 1969

Tent and Town, Rugs and Embroideries from Central Asia, The H. McCoy Jones Collection, The Fine Arts Museums of San Francisco, November 20 - February 6, 1983

Yanai Y. Suzani, Central Asian Embroideries. – Tel Aviv, 1986.

ATAMALARNING IZOHLI LUG'ATI

Kashtachilik

belbog', belqars – belga bog'laydigan to'g'ri to'rtburchak ro'mol. Belbog' satin, shoyi, atlas va boshqa matolardan qilinib, chetlari yoki burchaklari kashta bilan bezatiladi.

bosma – kashtachilikda keng qo'llaniladigan chok bo'lib, iplari tarang tortiladi. Bu chok bilan naqsh guli sodirg'asiga to'ldirib tikib chiqiladi

bo'g'joma – ko'rpa-to'shak o'raladigan buyum. Qadimdan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi xalqlar ro'zg'orida o'rin-ko'rpa, yostiq yopishda va tashishda foydalanilgan. Bug'joma to'rtburchak shaklida bo'lib, bir burchagiga kashta tikilgan

bo'xcha – kiyim-kechak saqlash va tashishda ishlatiladigan ro'mol. To'rtta atrofi kashtalangan, ba'zida atrofi popuk bilan bezatilgan

dorpech – xona devorining yuqori qismiga, ko'ndalang osiladigan kashta buyumi

jiyak – do'ppi, to'n, yaktak, lozim kabi kiyimlar chetiga tikiladigan maxsus tasma. Asosan yo'rma, kanda hayol, iroqi choklarida tayyorlanadi

joynamoz – namoz o'qish uchun to'shama. Shoyi, bo'z, atlas, satin kabi matolardan to'rtburchak shaklida tikiladi, bosh qismiga mehrob, yon tomonlariga tor va keng hoshiyalar naqshlar bilan bezatiladi

joypo'sh – kelin-kuyov to'shagining ustidan yopib qo'yiladigan, yig'ilgan o'rin-ko'rpa ustidan o'raladigan kashta buyumi. Yo'rma, bosma, kanda hayol uslubida tikiladi

zardevor – xona devorining shift qismiga bezash uchun osiladigan kashta buyumi. Satin, baxmal matolarga har xil naqshlar tikilgan.

ilmoq – ilmoq chok

iroqi – kashtachilikda keng qo'llaniladigan eng qadimgi usullardan biri. Unda "xoch" va "yarim xoch" shaklida gul va tarh tikiladi. Iroqi usulida asosan Shahrisabz va Qarshi chevarlari kashta tikkan

yo'rma – tanbur chokining nomi, kashta choklaridan biri. Yo'rma ilmoqli bigiz yoki igna yordamida mato sathi tikiladi. Bu chokda yirik kashta buyumlarining hoshiyalari, gul va barglari atrofi tikiladi, so'ng naqshning ichi to'ldiriladi

kanda hayol (chindahayol, duro'ya) – kashtachilikda qo'llaniladigan murakkab choklardan biri. Kashta buyumining old va orqa tomonidan sidirg'a qoplab choklanadi. Matoga bir me'yorda tikilib, matoning ikki tomonida bir xil naqshlar xosil bo'ladi. Kanda hayol ususlida ikki tomoni ko'rinadigan buyumlar (sochiq, ro'mol) tikiladi

lo'ngisolar – kelin ro'moli. To'y kunidan boshlab, birinchi farzand ko'rgunga qadar o'raladi

lo'la bolish – uzunchoq oval shaklida tikilgan yostiq. Butun sathi va ikki cheti yo'rma, bosma choklar bilan tikilgan

malla – sarg'ish rangli qo'lda to'qilgan mato

nimso'zana – satin, chit, karbos, shoyiga kashta tikilgan kichik hajmdagi so'zana

nusxa – naqsh namunasidan ko'chirma

oyna xalta – ko'zgu solib qo'yish uchun foydalaniladigan buyum. Yo'rma, bosma chokda kashta tikilgan

oq enli gilam – kashtachilik va to'qimachilik aralash texnikasida bajarilgan gilam. Gadjari gilam tasmalari bilan kashta tikilgan oq tasmalar bir-biriga ulanib tikiladi

palak – butun tarhi tikilgan yirik bezakli kashta

piltado'zi – kashtachilikda ommabop choklardan biri. Asosan do'ppi tikishda qo'llaniladi. Uzun, ingichka metal tayoqcha – piltakach yordamida qavilmaga pilta tiqiladi, bu esa qavilmalarni bo'rtirib, aloqida va chiroyli ko'rinishini ta'minlaydi. Piltdo'zi usuli Samarqand, Buxoro, ayniqsa Surxondaryoda keng tarqalgan

popop – tikuv mashinasi

romb – handasaviy naqsh elementi. Xosildorlik, ayol timsoli

ro'mol – ayollar bosh kiyimi. Doka, chit, shoyi matoga duro'ya, bosma choklarda kashta tikilgan

ro'ydjo – choyshab, bezakli kashta buyumi

sandalpo'sh – sandal ustiga yopib qo'yiladigan kashta buyumi. Bo'z, satin, shoyi matolariga turli usulda kashta tikilgan

surp – bo'z matosi

so'zana – uyni bezatishda devorga osiladigan yirik kashta buyumi. Kelin sepining muqim buyumi qisoblangan. Satin, bo'z, shoyi, baxmal matolarga har xil choklarda o'simliksimon naqshlar tikilgan. So'zana markazida bir undan ortiq to'pbarglar tikilib, atrofi islimiy naqshlar bilan hoshiyalangan

takiyapo'sh – yostiq ustiga yopiladigan kashta buyumi. Turli choklarda kashtalangan

taxmonpech – taxmondagi o'rin-ko'rpa ustiga yopiladigan choyshab

xomdo'zi – ikki tomonlama ko'rinishga ega chok turi

chimildiq, go'shanga – kelin-kuyov nikoq to'yi kuni o'tiradigan xona burchagiga tutiladigan parda. Chit, satin, shoyi, baxmalga kabi matolarga kashta tikilgan

choyshab – o'rin-to'shak ustidan to'shaladigan yopinchiq. Oq chit, bo'z, satin, shoyi

chorbelbog' – kuyov belbog'i

chorsi – to'rtburchak, kvadrat shaklida tikilgan belbog'

shona xalta – taroq uchun g'ilof

egarpo'sh – ot egari uchun tikilgan kashta buyumi

yakandoz – xonani bezatish uchun kashta buyumi

o'rinpech – katta taxmon uchun tikilgan parda

qaychi qop – qaychi uchun xalta

qalamdon qop – qalam uchun xalta

qiyiqcha – erkaklar belbog'i

qoziqlungi (qoziq ro'mol) – ikki chetiga kashta tikilgan sochiq

qumg'on – suv uchun mis idish

hoshiya – kashta buyumlari cheti va o'rtasidagi to'g'ri chiziq

Naqsh

anor – anor mevasi shaklida tikilgan naqsh nomi

anorgul – anor guli ko'rinishidagi naqsh

abri bahor – bulutsimon shaklidagi naqsh

arragul – arrasimon shaklidagi naqsh

atirgul – atirgul ko'rinishidagi naqsh

barg – yaproq ko'rinishidagi naqsh

bodom – bodom shaklidagi naqsh

buta, butoq – butoqli o'simliksimon naqsh

gulchinni – chinnigul tasvirlangan naqsh

gultojixo'roz – xo'roz toji ko'rinishidagi naqsh
davragul – dasta shaklidagi naqsh
doiragul – doira ko'rinishidagi naqsh. Ichi bodom, anor kabi naqshlar bilan ham to'ldiriladi
jiydagul – jiyda guli ko'rinishidagi islimiy naqsh
jingalak – o'rama gajak ko'rinishidagi naqsh
zanjir (zanjira) – bir-biriga ulanib, zanjir ko'rinishida tikilgan naqsh
zuluk – zuluk (ipak qurti) ko'rinishidagi naqsh
islimi – bir-biri bilan chirmashib ketgan o'simliksimon naqsh
kaptar nusxa – kaptar ko'rinishidagi naqsh
kordi-osh – pichoq ko'rinishidagi naqsh
kulcha nusxa – aylana naqsh
kungira – zigzagsimon naqsh
ko'zacha – ko'za, guldon ko'rinishidagi naqsh
lolagul – lola ko'rinishidagi naqsh
majnuntol – majnuntol ko'rinishidagi naqsh
mehrob – o'qsimon ko'rinishdagi arkali, mehrobli ommabop naqsh
oba – suv, to'lqin ko'rinishdagi naqsh hoshiyasi
oy – oy ko'rinishidagi naqsh
oftob – quyosh ko'rinishidagi naqsh
oftoba – ko'zacha shaklidagi naqsh
oygul – oy va gul shaklidagi naqsh bezagi
olma – olma mevasi ko'rinishidagi naqsh
olmagul – olma guli ko'rinishidagi naqsh
ot izi – ot tuyog'i ko'rinishidagi naqsh
panja – beshta barmoq ko'rinishidagi naqsh
parrak – parrak shaklidagi naqsh nomi
paxta gul – paxta chanoqi asosida tikilgan naqsh
sandiq nusxa – sandiq ko'rinishidagi naqsh
samovar nusxa – samovar ko'rinishidagi naqsh
suv – to'lqinsimon, to'g'ri chiziqli suv naqshi
tangacha – kichik doirachalar shaklidagi naqsh
tumor – tumor ko'rinishidagi naqsh
to'lqin – suv to'lqini ko'rinishidagi naqsh

to'pbarg – ko'p gul va barglardan iborat, doira, romb ko'rinishidagi naqsh

uzum – uzum mevasi, tok qujumlari ko'rinishdagi naqsh

chinni barg – chinigul bargi ko'rinishidagi naqsh

chorbarg – to'rt yaproqdan iborat naqsh

chayon – chayon ko'rinishdagi naqsh

chaman – maysazor, kashta naqshi

shox, shoxcha – daraxt, gullar shoxi ko'rinishdagi naqsh

yulduz – yulduz ko'rinishida naqsh

o'rdak – o'rdak ko'rinishidagi zoomorof naqsh

qalampir – qalampir, garmdori ko'rinishidagi o'simliksimon naqsh

qo'chqorak – qo'chqorning shoqi ko'rinishidagi naqsh

qo'sh barg – bir juft, qo'shaloq barg naqsh

qo'sh bodom – juft bodom ko'rinishidagi naqsh

qo'sh gajak – juft gajakli naqsh

qo'sh qanot – juft qanot ko'rinishidagi naqsh

g'uncha – ochilmagan gul ko'rinishdagi naqsh

g'o'za – paxta ko'rinishidagi naqsh

xalqa – yoysimon, aylana, yarim aylana ko'rinishidagi naqsh

hoshiya gul – hoshiyaga moslab tikilgan naqsh

Kulolchilik

bodiya Chanoq – vertikal yon devorli lagan (d:15-18 sm)

bodiya - vertikal yon devorli lagan (d:20-25 sm)

bo'yoq xumcha – bo'yoqlar uchun idish

guldon – gullar uchun idish

guppi – yog' olish uchun moslama

jomashov - kir tog'ora

digir – g'ildirak

domgir-tog'oracha

don kosa – qush katagidagi don idishi

dukki kosa – tubi chuqur idish

dulcha – qatiq uchun katta bo'lmagan idish

qantdon – shirinliklar uchun og'izli idish

kopshirma – tubining diametri kichik yon devorlari baland idish (Xorazm) kosa

kukanak – non saqlash uchun idish
kuloba – bir bandli, tor bo'g'izli idish
mashrafa – vaza
miyona toboq – o'rta hajmli idish
nil xum – bo'yoq saqlaydigan idish
non xurma – kulcha (non) saqlanadigan idish
obdasta o'rdak – o'rdak shaklidagi idish
sar-kalla – qaymoq yoki qatiq uchun idish
tarkash – xo'jalik tog'orasi
toboqi sham-shirlab – keng yon devorli lagan
tovoqi-langari – katta hajmdagi lagan
tovoqi-labigardoni – kichik hajmli
tovoqi oshxuri – o'rta hajmli idish (d:38sm)
tovoqi palovxuri – osh uchun idish
tovoqi-safid – oq sirli lagan
tog'oracha – katta hajmdagi tog'ora (d:14-25 sm.)
tuy tavoq – to'y idishi
Naqsh
aylanma islimi – aylanma o'simliksimon naqsh
ayripargar – yog'och sirkul
ayriplon - aeroplan ko'rinishidagi naqsh
angur – uzum naqsh
aspi-morak – ilon shaklidagi naqsh
bayrok gul - bayroq ko'rinishidagi naqsh
bandi rayxon – rayxon shaklidagi bog'
bandi rumi – rim bog'i
buyra zanjira – to'ldirilgan o'rama naqsh
bulut zanjira – bulut shaklidagi naqsh ba'zi ustalar uni xitoy yoki qoshg'ar naqshi deb ataladi. Bu esa uning kelib chiqiqshidan darak beradi.
girix – murakkab geometrik naqsh
guli sanjar – Marv yaqinidagi gul nomi bilan ataluvchi naqsh
guli xazorisfand shoxi – isiriq guli shaklidagi naqsh
guli sha'm – sham shaklidagi naqsh
dondona – tish shaklidagi naqsh
dumi asp – ot dumi
dumi murg'- tovuq dumi

kanoti murg' – qush qanoti
qarg'a tish – qarg'a tishi shaklidagi naqsh
kordi muza – etikdo'z pichog'i shaklidagi naqsh
madoxili-vardanzi – gulli yon devor bezak naqshi
madoxili kashkarcha - kashgarskiy madoxil
mixrobi - arkali
mixrobcha – kichik nishali
naxuti-terma – nuqtali naqsh
oba – chiziq, chuv oqimi

Kandakorlik
barkash - patnis
dastsho'y – yuvinish uchun tog'oracha
dovul – tungi qo'riqchi uchun doira
dulcha – suv uchun mis idish
jom - 1) sharob uchun maxsus idish 2) soch yuvish uchun maxsus idish
kashgul – darveshlarning maxsus suv uchun idishi
qumg'on – dasta va jo'mrakli suv uchun mo'ljallangan mis idish;
misg'ilof – qilich uchun g'ilof
obdasta – ingichka bo'yinli yuvinish uchun maxsus idish
oftoba – suv uchun idish
savri – mis naqshinkor buyum og'zi
sarxumi – naqshinkor mis cho'mich
satil – naqshinkor o'yma og'izli chelak
selobcha – yuvinish uchun maxsus tog'oracha
tun – suv uchun ko'za
tufdon – tuflash uchun maxsus idish
o'smadon – pardoz buyumi
chilingar – kandakor
chilkalit – qirqkalit ibodat uchun maxsus naqshinkor mis idish
chilopchin – ko'za bilan birga yuvinish uchun ishlatilgan mis tog'ora
chinnikop – naqshinkor mis chinni saqlanadigan idish
choydish – choy ichish uchun mo'ljallangan idish
yaxob – suv uchun idish

Naqsh

aylanma – spiralsimon gullar va barglar tasviri mavjud naqsh Xorazm hududiga xarakterli

bargak – kichik bargli naqsh

bodomi dubarg - qo'shbodom gulli naqsh

g'isht – Buxoro, Samarqand, Qo'qon ustalariga xos geometrik naqsh

guli g'isht – g'ishtin naqsh

guli katak – kataksimon naqsh

zuluk – zuluk shaklidagi naqsh

katta kirmak – yirik ipak qurti shaklidagi naqsh

kirmak-zandjira – spiralsimon o'ralgan ipak qurti shaklidagi naqsh

kunabarg – qadimiy barg shakli

Yog'och o'ymakorligi

lavx – kitob uchun maxsus tirgak

taxt- divan

Naqsh

zanjira – zanjir, ingichka jiyak

islimiy pargar - asosan aylana geometrik ornamentli chok

panjara gul – pardadek nafis panjarasimon gul

pargori gul – sirkul yordamida ishlanadigan gul

to'rt yaproq – to'rt yaproqdan tashkil topgan naqsh

xatti girix – geometrik tasmalar, chiziqlar

xatti mehrobi – chiziqli mehrob

chetangul — o'rama devor naqshi

Zardo'zlik

dauri – ot uchun yopinchiq

jiyak – kiyim uchun maxsus tasma

kaltacha – ayollar uchun nimcha

kamarband – erkaklar uchun kamar

kovush – milliy poyafzal

kultapushak – ayollar bosh kiyimi

kulox – uchli, erkaklar bosh kiyimining turi

kurtai zardo'zi –zardo'zi ko'ylak

muzacha – etik
peshkurta – ayollar kiyimi uchun yoqa
peshonaband – ayollar uchun peshana bog'ich
poicha zarduzi – zardo'zi lozim
pulxalta – pul uchun maxsus xaltacha
sarandoz joma – bosh uchun yopinchiq
choyxalta – choy uchun maxsus xaltacha

Charm
juzdon, juzgir – kitob uchun papka
kamarband – kamar
qoshiq xalta – qoshiq uchun xalta
pichoqqin bog' – pichoq uchun bog'
po'stin – tayyorlangan charm
xom teri – xomashyo charm
charm muqova – kitob uchun muqova
chinniqop – fayans idishlarni saqlash uchun maxsus quti
cholvor - shim
yaxdon – muz uchun maxsus charm idish

Gilamdo'zlik
bo'g'joma – kiyim va ko'rpalarni o'rash uchun maxsus mato
julxirs – (ayiq terisi) uzun patli gilam
kigiz – namat
napramach – kiyim xalta
"arabi" – gilam turi
"koxma" – turli rangli tasmalar bilan bezatilgan gilam turi
"qiz gilam" – gilam turi
"bozor gilam" – bozorda sotish uchun to'qilgan gilam
"alocha" – yo'l-yo'l gilam
to'rva – kiyim xalta
xurjin – xatlab taqiladigan sumka
chavadan – kundalik hayot buyumlari uchun maxsus xalta
chuval – kichik buyumlar uchun xalta
yolpo'sh – ot uchun yopinchiq
Naqsh
ola qurt – qurtga o'xshash naqsh

olaxat – yo'l-yo'l xat
baxmal yulduz –yulduz shaklidagi naqsh
besh-kashta – orasiga kashtali bo'laklar qo'shilgan gilam
g'ajari–gilam texnika turi
qalqon-nusxa – qalqon ko'rinishidagi naqsh
qo'chqorak – qo'chqor shoxi ko'rinishidagi naqsh turi
qush qanot – qush qanoti shaklidagi naqsh
taroq-taroq shaklidagi naqsh
tumorcha - tumor ko'rinishidagi naqsh
chibin kashta – chivin ko'rinishadi naqsh turi
urus kochot – ruscha naqsh

Musiqiy asboblar
doira – xalq urma asbobi
do'mbira – ikki torli chertma asbob
dutor – ikki torli musiqa asbobi
qayroq – xalq urma musiqa asbobi
yog'och karnay - misdan ishlangan puflab chalinadigan, uzuznligi 2 metr
qobuz - ikki torli kamoncha bilan chalinadigan musiqa asbobi
qo'shnay – ikki nayli musiqa asbobi
nog'ora – urma musiqa asbobi odatda ikki loydan yasalgan va charm tortilgan xum shaklidagi tayoqcha bilan chalinadigan musiqa asbobi
afg'on rubob – afg'on 5 torli musiqa asbobi
qoshg'ar rubob – qoshg'ar 5 torli musiqa asbobi
setor – 3 torli musiqa asbobi
surnay – puflab chalinadigan 8 ta havo yo'nalishini o'zgartiruvchi maxsus teshiklari mavjud musiqa asbobi
tanbur – 26 tor va 7 tovush sirasidan iborat musiqa asbobi
tor – chertma xalq musiqiy asbobi

Qaydlar uchun

Qaydlar uchun

Akbar Hakimov
Zilola Nasirova
Binafsha Nodir

O‘ZBEK XALQ AMALIY SAN’ATI

o‘quv qo‘llanma

Muharrirlar: N.Niyazova
Musahhiha: M.Talipova
Dizayner va sahifalovchi: N Fayziyeva

Terishga 07.11.2019-yilda berildi. Bosishga 27.11.2019-yilda ruxsat etildi. Bichimi: 60x84 1/16. Ofset bosma. «Times New Roman» garniturasi. Shartli b.t. 8.25. Nashr b.t. 7,67.
Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 06-1.

«LESSON PRESS» nashriyoti, Toshkent shahri,
Komolon ko‘chasi, Erkin tor ko‘chasi, 13.

«HAKIMA NASHR GROUP» MCHJ bosmaxonasida bosildi.
Buxoro shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 1-uy.

ISBN 978-9943-6260-0-3